O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№ 3-2026 (8)

ISSN: 3060-5024

KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№3 / 2026 (8)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay’ati raisi
Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
Institut boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Tahrir hay’ati a’zolari
Niyazmetov Ikrom Masharipovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas’ul xodimi, tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari
Azim Shuhrat Obid o‘g‘li
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
Nigmatov Ruftullo Olimdjonovich
falsafa doktori, professor
Sharafutdinov Alisher Ozodovich
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, dotsent
Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor
Turg‘unov Murod Tursunbayevich
yuridik fanlar doktori, professor
Niyozova Salomat Saparovna
yuridik fanlar doktori, professor
Zakirova Adina Gulyamovna
yuridik fanlar doktori, professor
Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor
Otajonov Abrorjon Anvarovich
yuridik fanlar doktori, professor
Ganiyev Sherzod Alisherovich
yuridik fanlar doktori, professor
Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor
Toshpulatov Akrom Ikromovich
yuridik fanlar doktori, dotsent
Maxsadov Maqsatullo Ismatovich
yuridik fanlar doktori, dotsent
Nurullayev Umid Kupalovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Ollamov Yarash Yo‘ldoshevich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Nurumbetova Sadoqat Allayarovna
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Mirzayev Jahongir Umirzakovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
Matchanov Ruslanbek Azatovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent
Yernazarov Solijon Yerkinovich
iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Yarov Bekmamat Alikulovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, bosh muharrir

MUNDARIJA

TAHLIL, TATDQIQOT VA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Berdialiyev B.E.
Oliy ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy profilaktikaning kriminologik asoslari 3
Якубов А.С., Азим Ш.О.
Первый уголовный кодекс независимого Узбекистана: тридцать лет функционирования (II часть)..... 11
Yusupov B.F.
Criminal-Law characteristics and classification of crimes against justice.. 17
Maxmudov D.R., Maxmudov K.R.
Yangi O‘zbekiston sharoitida narkojinoyatchilikka qarshi kurashishning konsyeptual paradigmalari: qonunchilik evolyutsiyasi, kriminologik determinantlar va ilg‘or xorijiy tajriba implementatsiyasi 23
Тазетдинов Р.Р.
Психологические аспекты социальной профилактики преступности как механизма раннего предупреждения правонарушений 29
To‘xtayev F.M.
Ekstremistik faoliyat natijasida sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar 36
Рахманов Д.К., Саматова Ж.Т.
Фемицид как социально-правовая проблема: вопросы совершенствования законодательства Республики Узбекистан 43
Baratova D.O., Abdihamidov G‘.Z.
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining mohiyati, ijtimoiy tabiati va ilmiy tadqiq etish zarurati 51
Turayev M.A.
Ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish 58

XALQARO HAMKORLIK

Нигматов Р.О., Рахмаджонзода Р.Р.
Философско-правовые предпосылки формирования криминологического знания в Великобритании 64
Насуриён П.А., Исаев С.А.
Современная трансформация наркоугрозы: глобальные тенденции и криминологические вызовы для Узбекистана 73
Козубенко Ю.В., Яров Б.А.
Психологические особенности личности преступника, совершившего террористический акт: сравнительно-правовой анализ подходов Республики Узбекистан и Российской Федерации.. 81
Тазетдинов Р.Р., Майоров А.В.
Зарубежный опыт социальной профилактики преступности: сравнительно-психологический анализ 87
Нурумбетова С.А., Сафарзода Х.С.
Современные методы раннего выявления и предупреждения преступлений, связанных с экстремизмом 92

Tahririyat manzili:
100187, Toshkent shahri
Mirzo Ulug‘bek tumani
Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Elektron pochta: kti@iiv.uz
Website: kti.iiv.uz

© O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.

KRIMINOLOGIK FAOLIYAT
ILMIY-AMALIY JURNAL
№3 / 2026 (8)
ISSN: 3060-5024

MUNDARIJA

Пулоди Ф.Ю., Абдусаломова Х.Н.
От профилактики правонарушений к виктимологической профилактике: десятилетняя трансформация системы защиты несовершеннолетних в органах внутренних дел 102
Назарова Л.Г., Елькин Иоанн
Особенности преступлений, связанных с незаконным оборотом и распространением наркотических средств среди несовершеннолетних: уголовно-правовой и криминологический анализ 108

JINOYATCHILIK PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ismailov Isamiddin
Huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning yangi O'zbekiston modeli: mahalla, manzilli ishlash va idoraviy hamkorlik 114
Расулев А.К.
От электронного к цифровому правительству: эволюция правового регулирования и государственного управления в Узбекистане 122
Ikanov A.A., Xoliqov Sh.A., Jumayev A.J.
Kriminogen vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi indikatorlar masalasi va ilmiy asosi 133
Asqarov M.M., Valijonova G.M.
Ayollar va bolalarga nisbatan raqamli zo‘ravonlikka qarshi kurashish milliy mexanizmlarini takomillashtirishning ayrim jihatlari: AQSH tajribasi misolida 139
Галлямов М.Г.
Интернет вещей (Internet of Things): концептуальные основы, архитектурные модели и перспективы развития 147
Xamidov A.A.
Kiberfiribgarlik: zamonaviy shakllari, ijtimoiy-muhandislik mexanizmlari va unga qarshi kurashishning kriminologik choralari 152

TADQIQOTCHI MINBARI

Kutbitdinov G‘.X.
Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining oldini olishda jahon kriminologiyasi nazariyalarining qiyosiy-tanqidiy tahlili 159
Boliyev U.U.
Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish 166
Murzajanov Sh.G.
Huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ijtimoiy tarmoqlar hamda jamoatchilik fikridan foydalanish samaradorligini oshirish 172
Nasrullayev F.S.
Ekstraditsiya jarayonida interpol milliy markaziy byurosining roli va huquqiy asoslari 178
Kutlimuratov M.Sh.
Xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning qiyosiy-huquqiy asoslari va rivojlanish tendensiyalari 183
Axmedova M.A.
Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning kriminologik-viktimologik mohiyati va jabrlanuvchilarni tasniflashning profilaktik ahamiyati 190
Садриддинов Ш.Ш.
Конституционно-правовые гарантии свободы передвижения в Республике Узбекистан: проблемы правового регулирования и направления совершенствования 199

Muminova Gulnora Taxirovna
Katta muharrir, dizayn
Fayziyev Abdujabbor
Texnik muharrir

Original-maket O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirilib bosilganida «O‘zbekiston Respublikasi Kriminologia tadqiqot institutining «Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko‘chirmalar, iqtisodiy statistik ma’lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.
Bosma tabag‘i 13,0.
Adadi 50 nusxa.
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan.
Bosishga ruxsat etildi 23.09.2026.
Buyurtma № 26/50.

O‘z.KTI

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI IJTIMOIY PROFILAKTIKANING KRIMINOLOGIK ASOSLARI



BERDIALIYEV
Baxtiyor Erkinovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishning kriminologik va tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Globallashuv va raqamlashuv sharoitida oliy ta’lim tizimining institutsional kengayishi, talabalar kontingentining ortishi hamda ularning duch kelayotgan iqtisodiy va virtual xavf-xatarlari yoritilgan, empirik va sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida talabalar jinoyatchiligining asosiy kriminogen determinantlari ochib berilgan. Shuningdek, “HEMIS” axborot tizimini “E-ijtimoiy profilaktika” platformasiga integratsiya qilish, “Ijtimoiy keys-menejment” metodologiyasini joriy etish orqali barvaqt profilaktika tizimini yaratish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, talabalar jinoyatchiligi, ijtimoiy profilaktika, kriminogen determinantlar, kiberjinoyatlar, keys-menejment, HEMIS, E-ijtimoiy profilaktika.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы криминологические и организационно-правовые основы профилактики преступности среди студентов высших учебных заведений. Освещены институциональное расширение системы высшего образования в условиях глобализации и цифровизации, рост студенческого контингента, а также экономические и виртуальные риски, с которыми они сталкиваются. На основе эмпирических и социологических данных раскрыты основные криминогенные детерминанты студенческой преступности (финансовые трудности, стремление к легкому заработку, цифровая виктимизация и дефицит духовно-нравственного воспитания). Разработаны научно-практические предложения по созданию системы ранней профилактики путем интеграции информационной системы «HEMIS» в платформу «E-социальная профилактика» и внедрения методологии «социального кейс-менеджмента».*
Ключевые слова: *высшее образование, студенческая преступность, социальная профилактика, криминогенные детерминанты, киберпреступления, кейс-менеджмент, HEMIS, E-социальная профилактика.*

Abstract. *This article analyzes the criminological, organizational, and legal foundations for crime prevention among students in higher education institutions. It highlights the institutional expansion of higher education, the growth of the student body, and the economic and virtual risks they face amid globalization and digitalization. Based on empirical and sociological research, the main criminogenic determinants of student crime – such as financial difficulties, the desire for easy money, digital victimization, and a lack of spiritual and moral upbringing – are revealed. Furthermore, scientific and practical proposals are developed to establish an early prevention system by integrating the "HEMIS" information system with the "E-social prevention" platform and introducing the "social case management" methodology.*
Keywords: *higher education, student crime, social prevention, criminogenic determinants, cybercrime, case management, HEMIS, E-social prevention.*

Xalqaro tashkilotlarning so‘nggi rasmiy hisobotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning umumiy soni qariyb 269 million nafarni tashkil etib, so‘nggi o‘n yillikda oliy ta’lim yoshidagi yoshlarning qamrov darajasi qariyb 43 foizga yetgan. Biroq ta’lim olayotgan yoshlar sonining global miqyosda ortishi bilan bir qatorda, zamonaviy xalqaro kriminologik tadqiqotlar dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida yoshlar jinoyatchiligi yangi sifat bosqichiga ko‘tarilayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, transchegaraviy kiberjinoyatlar, kibermoliyaviy firibgarliklar hamda psixoaktiv moddalar va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi hisobiga jinoyatlar keskin o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Mazkur statistik ko‘rsatkichlar yoshlar muhitidagi deviant xatti-harakatlar shunchaki mahalliy muammo emas, balki transnatsional xususiyat kasb etayotgan hamda global miqyosdagi intellektual kapitalga tahdid solayotgan umuminsoniy xavf ekanini to‘liq tasdiqlaydi.

Talabalar orasida uchraydigan salbiy holatlar ko‘pincha moddiy yetishmovchilik, hayotiy qadriyatlarning o‘zgarib ketishi, yangi muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar va turli jinoyatlarning qurboni bo‘lib qolish xavfi bilan bog‘liq. Yoshlar mustaqil hayotni boshlagan davrda uchraydigan ruhiy va hayotiy to‘siqlar, oilaviy yoki hududiy migratsiya jarayonlari hamda internet zanjiridagi nazoratsiz muhit ularning huquqiy tushunchalarga ega bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning bevosita jinoyat sodir etib qo‘yishi yoki firibgarlarga aldanib qolishi xavfini yanada kuchaytiradi.

Bu holat mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan 1,6 milliondan ortiq talaba-yoshlar qatlamida jinoyatlarni barvaqt aniqlash, ularning oldini olish hamda xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan milliy ijtimoiy profilaktika tizimini ilmiy asosda tubdan takomillashtirishni talab etadi. Xususan, Prezidentimiz tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar ta’lim muassasalarida faqatgina ma’rifiy tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, balki chuqur kriminologik tahlil va amaliy profilaktik mexanizmlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi [1].

Ushbu maqolada oliy ta’lim maskanlarida jinoyatlarning oldini olish choralarini ilmiy jihatdan qanday tashkil etish kerakligi batafsil ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, talabalarda kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror chiqarish, qiyinchiliklarga ruhan bardosh berish, madaniyatli bo‘lish, muloqot qilish etikasiga rioya etishi hamda ta’lim muhitida xavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha foydali taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda dunyoda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar soni qariyb 1,2 milliardga yetgan bo‘lib, ular jahon umumiy aholisining qariyb 16 foizini tashkil etmoqda. Biroq global miqyosda yoshlar ta’limi, bandligi va sog‘lig‘i bilan bog‘liq jiddiy ijtimoiy-gumanitar muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti va YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, millionlab yoshlar hamon munosib ta’lim va kasbiy ko‘nikmalardan mahrum bo‘lib, o‘n millionlab yoshlar ishsizlar toifasini tashkil etmoqda. Xususan, dunyo bo‘yicha 3,2 million nafarga yaqin 15-24 yoshli o‘smirlar va yoshlar VICH infeksiyasi bilan yashayotgani qayd etilgan. Mazkur ko‘rsatkichlar har bir mamlakatni tashvishga solmoqda.

Jinoyatchilikni barvaqt oldini olishning zamonaviy konsepsiyalari doirasida yoshlar, xususan, oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilik profilaktikasi fundamental va strategik ahamiyat kasb etadi. Bu ustuvorlik, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasining o‘ziga xos demografik tuzilishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda mamlakat aholisining 60 foizdan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishi ulkan demografik dividend hisoblanadi. Biroq, kriminologik nuqtayi nazardan, yoshlar qatlamining bunday yuqori ulushi tizimli ijtimoiy profilaktika mexanizmlari ishlamagan taqdirda, jiddiy kriminogen xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar – bu ertaga jamiyatni boshqaradigan, ilm-fan va iqtisodiyotni olg‘a yetaklaydigan inson kapitali, yurtimizning intellektual elitasi. Shu bois, ularning iqtisodiy zo‘riqishlar yoki virtual makondagi firibgarliklar qurboniga aylanib, jinoyat ko‘chasiga kirib qolishlari nafaqat shaxs fojiasi, balki butun jamiyat barqarorligi uchun strategik yo‘qotishdir.

O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning yetakchi olimlari mazkur xavflarning oldini olish masalasini chuqur tahlil qilib, yoshlar jinoyatchiligini o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baholaydilar. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari uchta asosiy ilmiy yondashuv asosida tushuntiriladi:

Birinchidan, ijtimoiy dezadaptatsiya va anomiya nazariyasi. Xorijiy olimlar R. Merton va Ya.I. Gilinskiyning ilmiy xulosalariga ko‘ra, yoshlar jinoyatchiligining asosini ko‘pincha jamiyatdagi qadriyatlar tizimining yemirilishi va yangi ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik holatlari tashkil etadi [4]. Xususan, mustaqil hayotga qadam qo‘yish va oliy ta’lim muhitiga moslashish davrida talabalarda kuchli psixologik bosim yuzaga keladi va bu davrda ular deviant guruhlar ta’siriga tez beriluvchan bo‘lib qoladi.

Ikkinchidan, psixologik bardoshlilikning shakllanmaganligi. Taniqli kriminolog Yu.M. Antonyanning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, huquqiy ong va stressga chidamlilik to‘liq shakllanmagan o‘smirlik va yoshlik davrida shaxs tashqi salbiy ta’sirlarga, ayniqsa, raqamli makondagi kiberjinoyatlar va moliyaviy firibgarliklarga eng ko‘p uchraydigan qatlam hisoblanadi [5].

Uchinchidan, kompleks ijtimoiy profilaktika zarurati. Mahalliy kriminolog olimlar I. Ismailov, M. Rustambayev va boshqalar o‘z tadqiqotlarida ta’kidlashicha, bugungi kunda an’anaviy profilaktika usullari faqatgina ma’rifiy va quruq pand-nasihat choralari bilan cheklanib qolmasligi kerak [7]. Zamonaviy kriminologik yondashuvlar ta’lim muassasalarida talabalarning murakkab va nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, stressga chidamlilik va huquqiy madaniyatni yuksaltirish kompetensiyalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu bois, olimlarning ilmiy xulosalariga tayangan holda, globallashuv va raqamlashuv sharoitida talaba-yoshlar muhitida yuzaga kelayotgan yangi tahdidlarni barvaqt aniqlash hamda ularni bartaraf etishning zamonaviy kriminologik modellarini yaratish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy vazifasi hisoblanadi.

Talaba-yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik muammosining kelib chiqishi va uni bartaraf etish zaruratini ikki asosiy guruhga, ya’ni obyektiv va subyektiv omillarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Masalaning obyektiv sabablariga e’tibor qaratsak, bugungi globallashuv va raqamlashuv davrida transchegaraviy kiberjinoyatlar, narkotrafik hamda turli buzg‘unchi mafkuraviy tahdidlar asosan jamiyatning eng faol qatlami bo‘lgan talabalar auditoriyasiga yo‘naltirilganini anglaymiz. Bu esa yoshlarning naqadar jiddiy tashqi xavflar qurshovida ekanini ko‘rsatadi.

Muammoning subyektiv sabablari esa bevosita talabalarning ichki ruhiyati va shaxsiy moslashuv jarayonlari bilan izohlanadi. Ayrim yoshlar ongida qonun-qoidalarni mensimaslik yoki ularga ishonmaslik holatlarining uchrashi, mustaqil hayotga va oliy ta’lim muhitiga moslashishdagi ruhiy qiyinchiliklar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi ayrim uzilishlar ularni jinoyat yo‘liga kirib qolishiga zamin yaratmoqda.

Aynan shu omillarni hisobga olgan holda, tadqiqotimizda institutsional yechim sifatida ***“Ijtimoiy profilaktika xizmati”*** va uning doirasida qo‘llaniladigan “Ijtimoiy keys-menejment” – muammoli vaziyatdagi shaxs bilan yakka tartibda ishlash metodologiyasi ilgari surilmoqda.

Mazkur innovatsion mexanizm muammoli vaziyatga tushib qolgan talabalarga manzilli yordam ko‘rsatish orqali ularning jamiyat bilan sog‘lom aloqalarini mustahkamlaydi. Natijada, bu tizim nafaqat jinoyatlarning barvaqt oldini oladi, balki davlatimizning ichki xavfsizligi va barqarorligini himoya qiluvchi mustahkam kriminologik qalqon vazifasini bajaradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining kengayishi va talabalar sonining keskin ortishi ushbu ijtimoiy qatlam orasidagi jinoyatchilikni alohida, mustaqil ilmiy tadqiqot yo‘nalishi sifatida o‘rganishni taqozo etmoqda.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimizda jami 207 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatyapti. Ularning 101 tasi davlat tasarrufidagi, 74 tasi nodavlat va 32 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ushbu muassasalarda tahsil olayotgan talabalarning umumiy soni 1 611 231 nafarni tashkil etib, bu raqam 879 883 va 731 348 nafarlik demografik taqsimotda aks etadi [7].

Ta’lim makonida bunday ulkan yoshlar qatlamining shakllanishi juda katta intellektual kapitalning bir joyda jamlanishini anglatadi. Ammo, shu bilan birga, bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy nazorat tizimi oldiga mutlaqo yangi, tizimli xavf-xatarlar va

profilaktik vazifalarni ham qo‘ymoqda. Bu esa talabalar muhitida xavfsizlikni ta’minlashga doir yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Oliy ta’lim tizimidagi bunday miqdoriy va sifat o‘zgarishlari, shuningdek, an’anaviy nazorat mexanizmlarining zaiflashuvi oqibatida talaba-yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning sezilarli darajada faollashuvi kuzatilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga murojaat qilsak, vaziyatning qanchalik murakkab ekanini ko‘rish mumkin. Xususan, 2025-yil yakunlari bo‘yicha olingan statistik ma’lumotlar ham bu boradagi vaziyatning naqadar jiddiy ekanini ko‘rsatadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yil davomida 544 nafar talaba tomonidan 590 ta jinoyat sodir etilgan [7]. Bu o‘rinda eng achinarli va e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat shundaki, tahlillarga ko‘ra, mazkur jinoyatlarning barchasi *“oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar”* toifasiga kiradi. Bu ko‘rsatkich jinoyat sodir etgan jami yoshlarga nisbatan 4,1 foizni tashkil etadi. Garchi bu raqam umumiy miqyosda kichikdek tuyulsa-da, jamiyatning eng ziyoli va istiqbolli qatlami hisoblangan talabalar muhitida bunday ko‘rsatkichning mavjudligi o‘ta xavotirli ogohlantirishdir.

Mazkur jinoyatlarning hududiy taqsimoti ham o‘ziga xos kriminologik manzaraga ega. Talabalar tomonidan sodir etilgan oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlarning asosiy qismi, ya’ni qariyb 59,9 foizi respublikamizning asosiy 5 ta hududi hissasiga to‘g‘ri keladi [7]. Xususan, bu borada Toshkent shahri va Toshkent viloyati yetakchilik qilmoqda. Keyingi o‘rinlarda esa Samarqand, Buxoro va Andijon viloyatlari qayd etilgan.

Zero, mazkur hududlarda talabalar jinoyatchiligi yuqori ko‘rsatkichni tashkil etayotganini o‘ziga xos sabablari mavjud. Buni ilmiy-amaliy jihatdan quyidagicha izohlash mumkin: ushbu hududlar mamlakatimizning asosiy yirik ta’lim markazlari hisoblanadi va ularda oliy ta’lim muassasalari hamda talabalar soni eng ko‘p jamlangan. Tabiiyki, boshqa viloyatlardan kelib o‘qiyotgan yoshlarning ichki migratsiyasi, ijara va yashash xarajatlari bilan bog‘liq iqtisodiy zo‘riqishlar, shuningdek, katta shahar muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashishdagi qiyinchilik va stresslar aynan shu markazlarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Demak, yuqoridagi raqamlar yana bir bor ta’lim muassasalarida tizimli profilaktikaning naqadar zarurligini tasdiqlaydi. Oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar – aslida, vaqtida aniqlanmagan muammolar va e’tiborsiz qoldirilgan ijtimoiy-ruhiy zo‘riqishlarning oqibati. Ayniqsa, eng ko‘p jinoyat sodir etilayotgan mazkur 5 ta hududdagi oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy profilaktika mexanizmlarini joriy etish va birinchi navbatda, kuchaytirilgan tartibda ishlashi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu salbiy tendensiya talabalarning ijtimoiy va huquqiy nazoratdan qanchalik uzilib qolganini ko‘rsatadi. Eng yomoni, bu ko‘rsatkichlar ta’lim maskanlaridagi sog‘lom akademik muhitga turli jinoiy odatlar, yot qarashlar va tushunchalar kirib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa zudlik bilan ta’lim maskanlarida yangicha profilaktik mexanizmlarni joriy etishi zaruratini ko‘rsatadi.

Talabalik davri o‘ziga xos murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, bu davrda yoshlar ko‘pincha moddiy qiyinchiliklar, xususan, shartnoma to‘lovlari va kundalik yashash xarajatlari hamda Internet olamidagi xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz keladi. Mana shu ijtimoiy dinamika va iqtisodiy zo‘riqishlarni inobatga olgan holda, talabalar qatlamini davlat xavfsizligi va strategik barqarorlik nuqtayi nazaridan alohida mustaqil kriminologik obyekt sifatida tahlil qilish nihoyatda zarur.

Mazkur vazifani amalda ta’minlashning institutsional yechimi sifatida oliy ta’lim tizimidagi raqamli infratuzilmani, xususan, “HEMIS” axborot tizimini bevosita “E-ijtimoiy profilaktika” platformasiga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu raqamli integratsiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad 1,6 milliondan ortiq yoshlar qatlamini xato qilganidan so‘ng ma’muriy tazyiq bilan jazolash emas, balki jinoyatga yetaklovchi ilk xavf belgilari, barvaqt kriminogen indikatorlar paydo bo‘lgandayoq ularni aniqlash va yoshlarga vaqtida manzilli ijtimoiy-gumanitar yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Bu tizim jamiyatning eng muhim intellektual qatlamini jinoyatchilikdan himoya qilishning yangi, insonparvar nazariy-amaliy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalar o‘rtasidagi jinoyatchilikning institutsional, ya’ni bevosita oliy ta’lim muassasalari kesimidagi tahlili ayrim o‘quv yurtlarida kriminogen vaziyat boshqalariga nisbatan ancha murakkabligini ko‘rsatmoqda. Xususan, tadqiqotlar davomida shakllantirilgan “10 dan ortiq talabalari jinoyat sodir etgan oliy ta’lim muassasalari reytingi” ta’lim jarayonida ijtimoiy profilaktika va ichki nazorat mexanizmlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur o‘ziga xos reytingda 2025-yil davomida “antireyting”ning yetakchi o‘rinlarini asosan poytaxtda joylashgan yirik universitetlar egallagani kuzatilmoqda. Jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 51 nafar talabasi jinoyatga qo‘l urgani bilan mazkur salbiy ro‘yxatda birinchi o‘rinda qayd etilgan. Undan keyingi o‘rinlarda Toshkent davlat transport universiteti 32 nafar hamda Toshkent davlat texnika universiteti 27 nafar talabalari jinoyat sodir etgan bo‘lib, yuqori ko‘rsatkichni egallagan. Ushbu holat ulkan kontingentga ega, megapolis muhitida joylashgan va respublikaning turli hududlaridan kelib o‘qiyotgan talabalar jamlangan muassasalarda ijtimoiy-psixologik moslashuv hamda iqtisodiy zo‘riqish jarayonlari ancha keskinroq kechishidan dalolat beradi.

Shuningdek, statistik tahlillar nafaqat davlat tasarrufidagi oliygohlarda, balki nodavlat va hududiy ta’lim muassasalarida ham jinoyatchilik ko‘rsatkichlari yuqori ekanini oshkor qilmoqda. Toshkent amaliy fanlar universiteti (26 nafar) va Alfraganus universiteti (23 nafar) kabi xususiy sektor vakillari, shuningdek, Buxoro davlat universiteti (24 nafar), Samarqand davlat universiteti (24 nafar), Andijon tibbiyot instituti (22 nafar) va Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (22 nafar) kabi viloyatlardagi yetakchi oliygohlar ham ushbu ro‘yxatdan joy olgan.

Bu ko‘rsatkichlar ta’lim shakli va hududidan qat’i nazar, yoshlar muhitida deviant xulq-atvor shakllanishining tizimli sabablari mavjudligini tasdiqlaydi. Mazkur statistik manzara yuqorida nomlari keltirilgan ta’lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy muammolarini barvaqt aniqlash, ularni raqamli viktimizatsiyadan himoya qilish hamda tadqiqotimizda ilgari surilayotgan “Ijtimoiy profilaktika” tizimini birinchi navbatda va kuchaytirilgan tartibda joriy etish zarurligini ilmiy-amaliy jihatdan to‘liq asoslab beradi.

Ushbu institutsional disproporsiya va xavfli nuqtalarning mavjudligi oliy ta’lim tizimida preventiv chora-tadbirlarni umumiy va yuzaki tarzda emas, balki aynan kriminogen xavf darajasi yuqori bo‘lgan mazkur universitetlar profilidan kelib chiqib, maqsadli va differensial shaklda tashkil etishni taqozo etadi. Bu esa tadqiqotda ilgari surilayotgan oliy ta’lim muassasalarida “Ijtimoiy profilaktika”ni tashkil etish mexanizmini, birinchi navbatda, aynan ushbu kriminal faollik yuqori bo‘lgan ta’lim maskanlarida pilot loyiha sifatida sinovdan o‘tkazish zaruratini ilmiy jihatdan to‘liq asoslab beradi.

Mazkur OTMlarda “HEMIS” axborot tizimini bevosita “E-ijtimoiy profilaktika” yagona platformasiga raqamli integratsiya qilish orqali yangicha profilaktik muhit yaratiladi. Natijada ushbu universitetlardagi xavf guruhiga mansub talabalarning akademik o‘zlashtirishi va ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarini avtomatlashtirilgan tarzda monitoring qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Eng muhimi, mazkur tizim muammoli talabalarga nisbatan ma’muriy tazyiq o‘tkazish yoki jazolash emas, balki ularni inqirozdan qutqarishga qaratilgan individual reabilitatsiya dasturlarini zudlik bilan ishga tushirish imkonini yaratadi.

Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan olingan empirik ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yil davomida talabalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tarkibida eng yuqori ko‘rsatkich mulkiy tajovuzlarga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, o‘g‘rilik jinoyati bo‘yicha jami 99 ta holat qayd etilgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinni 35 ta holat bilan firibgarlik jinoyati egallab turibdi. Umumiy jinoyatchilik tuzilmasida ushbu ikki turdagi jinoyatning yetakchi o‘ringa chiqishi bevosita talabalarning iqtisodiy ahvoli hamda raqamli makondagi transformatsiya jarayonlari bilan izohlanadi.

Mazkur tendensiyaning asl sabablarini aniqlash maqsadida 11 321 nafar respondent-talabani qamrab olgan keng ko‘lamli ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari jinoyatga undovchi asosiy omillarni quyidagicha tasniflash imkonini berdi:

Tadqiqot doirasida ishtirokchilarga berilgan “Sizningcha, talabalarni jinoyatga undaydigan asosiy sabablar nimalar?” degan savolga olingan javoblar muammoning naqadar ko‘p qirrali ekanini va u bir qator ijtimoiy-iqtisodiy omillarga borib taqalishini ko‘rsatdi. So‘rovnomada qatnashgan respondentlarning fikrlari asosan quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlangan:

Moliyaviy qiyinchilik (5959 nafar), eng yuqori ko‘rsatkich. Respondentlarning mutlaq ko‘pchiligi talabalarni jinoyatga yetaklovchi asosiy sabab sifatida aynan moddiy yetishmovchilik va iqtisodiy zo‘riqishlarni qayd etgan. Bu holat talabalar oladigan stipendiyaning kundalik yashash xarajatlarini qoplay olmasligi hamda to‘lov-kontrakt yukining og‘irligi bilan bevosita bog‘liq. Iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilmasligi talabalarni noqonuniy daromad topish yo‘llarini izlashga majbur qilmoqda.

Oila va muhit ta’siri (4083 nafar). Ikkinchi o‘rinda nosog‘lom oilaviy muhit, ota-ona nazoratining sustligi va talabani o‘rab turgan mikromuhitning salbiy ta’siri deb belgilagan. Respondentlarning sezilarli qismi jinoyatga yetaklovchi sabab sifatida nosog‘lom mikromuhitni ko‘rsatgan. Bunda oiladagi zo‘ravonlik holatlarining talaba ruhiyatiga ta’siri hamda ota-onalarning mehnat migratsiyasida ekanligi sababli farzandlarning nazoratsiz qolishi kuzatiladi. Oqibatda, yangi ijtimoiy muhitga moslasha olmagan yoshlar ijtimoiy izolyatsiyaga tushib, bo‘sh vaqtlarini mazmunsiz o‘tkazadi va psixologik bosimlarga bardosh bera olmay, tez og‘ib ketishadi.

Oson pul topish istagi (3803 nafar). Mehnat qilmasdan, tez va oson boyish maqsadida turli qing‘ir yo‘llarga kirib ketish holatlari talabalar jinoyatchiligini keltirib chiqaruvchi eng xavfli va murakkab motivlardan biri sifatida baholandi. Ushbu ko‘rsatkichning yuqoriligi faqatgina moddiy yetishmovchilik bilan emas, balki bugungi yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Internet va ijtimoiy tarmoq ta’siri (3605 nafar), ya’ni bugungi axborot makonidagi virtual aldovlar, firibgarliklar hamda destruktiv kontentlarning yoshlar ongiga ta’siri yuqoriligicha qolmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, TikTok va boshqalar) orqali targ‘ib qilinayotgan “hashamatli hayot”, qimmatbaho buyumlar va tez boyish kontentlari talabalarda sun’iy iste’molchilik ehtiyojlarini shakllantirmoqda. Real daromad va virtual makondagi havas o‘rtasidagi disproporsiya yoshlarni halol va mashaqqatli mehnatni chetlab o‘tib, eng qisqa yo‘l bilan daromad topishga undaydi.

Halol mehnat qadriyatlarining yemirilishi, ya’ni ayrim talabalar orasida uzoq muddatli va tizimli mehnat qilish, o‘z ustida ishlash va bilim orqali sekin-asta karyera qilish jarayoni “eskirgan” yoki “samarasiz” usul sifatida qabul qilinmoqda. Buning o‘rniga hech qanday jismoniy yoki intellektual kuch sarflamasdan turib, onlayn qimor, totalizator yoki moliyaviy piramidalar orqali boyish kayfiyati avj olmoqda.

Raqamli jinoyatlarning “psixologik to‘siqsizligi”. Oson pul topish istagidagi talabalar ko‘pincha kibermakondagi jinoyatlarni, masalan, birovning plastik kartasidan pul yechib olish, soxta e’lonlar orqali aldash, “dropperlik” xizmatlari ko‘rsatishni an’anaviy jinoyatdek qabul qilmaydilar. Jabrlanuvchining yuzini ko‘rmaslik va jismoniy muloqotning yo‘qligi ularda jinoyat sodir etishdagi ichki psixologik to‘siqni pasaytirib yuboradi.

Oson pul topish yo‘liga kirgan talaba o‘z xatti-harakatlarini “hamma shunday qilyapti”, “bu shunchaki biznes”, “men hech kimni o‘ldirganim yo‘q” qabilidagi vajlar bilan oqlashga moyil bo‘ladilar.

Ma’lumotsizlik va ma’naviy tarbiya yetishmasligi (2658 nafar). Huquqiy ongning pastligi, hayotiy qadriyatlar va ma’naviy immunitetning to‘liq shakllanmaganligi talabalar orasida deviant xulq-atvor va jinoyatchilikka zamin yaratuvchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida e’tirof etilgan. Ushbu ko‘rsatkich oliy ta’lim bosqichida faqatgina kasbiy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsning dunyoqarashi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda quyidagi tizimli bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi:

Huquqiy nigilizm va huquqiy savodsizlik. Talaba-yoshlar muhitida huquqiy ongning yetarli darajada shakllanmagani ularning sodir etayotgan xatti-harakatlarining huquqiy oqibatlarini to‘liq anglab yetmasligiga yoki qonun talablariga nisbatan bepisand munosabatda bo‘lish holatlariga sabab bo‘lmoqda. Bu holat yoshlarning kundalik faoliyatida jiddiy kriminogen xavflarni keltirib chiqaradi.

Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qonun normalaridan xabardor bo‘lmaslik yoki ularning mas’uliyatini chuqur his etmaslik yoshlarning ko‘pincha o‘zlari sezmagan holda turli jinoiy guruhlar, noqonuniy uyushmalar va huquqbuzarliklar doirasiga tortilib ketishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, raqamli makondagi huquqiy savodsizlik ayrim talabalarning internet orqali sodir etiladigan

jinoyatlarning asl mohiyatini tushunmasdan turib, oddiy “onlayn yordamchi” yoki ishtirokchiga aylanib qolishiga olib kelmoqda.

Mazkur salbiy tendensiya oliy ta’lim muassasalarida faqatgina umumiy targ‘ibot ishlari bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda qonunga hurmat va qonuniylikni ta’minlash ruhini shakllantirishga qaratilgan maqsadli hamda tizimli huquqiy ta’lim mexanizmlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Ma’naviy immunitet va mafkuraviy bo‘shliq. Globallashuv va zamonaviy axborot xurujlari mislsiz darajada kuchaygan davrda yoshlarning ongi va dunyoqarashi uchun kurash keskin tus olmoqda. Oliy ta’lim bosqichida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning zaiflashuvi hamda milliy qadriyatlarga asoslangan barqaror ma’naviy immunitetning to‘liq shakllanmaganligi talabalarni turli buzg‘unchi va destruktiv yot g‘oyalarning ta’siriga o‘ta beriluvchan qilib qo‘ymoqda.

Ayniqsa, raqamli makonda turli yot va begona qadriyatlarning ommaviy ravishda targ‘ib qilinishi yoshlarda tanqidiy fikrlashni pasaytirib yuboradi. Natijada ayrim talabalar bunday yod g‘oyalarni sog‘lom qadriyat sifatida qabul qilishga, ularni chuqur tahlil qilmasdan ko‘r-ko‘rona ergashishga moyil bo‘lib qoladilar. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning turli radikal oqimlar, buzg‘unchi submadaniyatlar va noqonuniy uyushmalar ta’siriga tushib ketish xavfini keskin oshiradi.

Mazkur salbiy holatlar ta’lim muassasalarida faqatgina huquqiy targ‘ibot bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, milliy o‘zlikni anglash va sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan ustuvor tarbiyaviy mexanizmlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Shaxsiy mas’uliyat va kelajakni anglash hissining pastligi. Talaba-yoshlar hayotida aniq maqsadlarning yo‘qligi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik hamda ongli ravishda fikrlash o‘rniga vaqtinchalik kundalik kayfiyat va hissiyotlar oqibatida ish tutish ularning qisqa fursat ichida noto‘g‘ri va falokatli qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yoshlarning jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyatini hamda oliy o‘quv yurtida tahsil olayotgan intellektual elita sifatidagi yuksak maqomini to‘liq anglab yetmasliklari ularda ijtimoiy mas’uliyat hissining pasayishiga olib keladi. Mazkur psixologik va ijtimoiy beparvolik oqibatida ular yengil-yelpi hayot tarziga berilib, oxir-oqibat turli huquqbuzarliklar va jinoiy yo‘lga kirib ketish xavfi bilan yuzma-yuz qolmoqdalar.

Olib borilgan kriminologik va sotsiologik tadqiqotlar shuni yaqqol tasdiqlaydiki, talabalar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishda an’anaviy va yuzaki yondashuvlardan voz kechib, asosiy e’tiborni ularning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga, ta’lim muassasalarida sog‘lom akademik muhit yaratishga hamda raqamli makondagi xavfsizligini ta’minlashga qaratish maqsadga muvofiq. Tadqiqot natijalari va aniqlangan determinantlar asosida milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga tizimli preventiv innovatsiyalarni kiritish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Birinchi navbatda, barcha oliy ta’lim muassasalari uchun hukumat darajasidagi qarorga asosan yagona va majburiy bo‘lgan Ijtimoiy profilaktikani tashkil etish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash hamda unda talabalar o‘rtasida jinoyat sodir etilishining barvaqt oldini olish yuzasidan qat’iy va aniq preventiv talablarni belgilab qo‘yish zarur.

2. Profilaktika inspektorlari faoliyatini transformatsiya qilish. Oliy ta’lim muassasalariga biriktirilgan profilaktika inspektorlarining ish uslubini tubdan yangilab, ular tomonidan talabalarning kundalik ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tizimli ravishda monitoring qilib boruvchi ta’sirchan “Ijtimoiy profilaktika” mexanizmini joriy etish talab etiladi.

3. Raqamli integratsiya va platformalarni yaratish. Zamonaviy texnologiyalarni jalb qilgan holda, oliy ta’lim jarayonlarini boshqaruvchi “HEMIS” axborot tizimini bevosita davlatning “E-ijtimoiy profilaktika” yagona elektron platformasiga integratsiya qilish hamda virtual makonda talabalar uchun xavfsiz muloqot muhitini yaratish lozim.

4. Iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom raqobat. Iqtidorli hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar uchun maxsus grant loyihalarini, sovrinli tanlovlarni tizimli tashkil etish orqali ta’lim muassasasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish va ularni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

5. Viktimologik prevensiya va amaliy ta’lim. Viktimologik tahlilning yaxlit natijalari oliy ta’lim muassasalarida jinoyatchilikning oldini olish metodikasini tubdan o‘zgartirishni taqozo etadi. Nafaqat jinoyatchilikning tizimli determinantlariga, balki talabalarning viktimizatsiya omillariga ham ta’sir ko‘rsatish zarur. Buning uchun oliy ta’lim dasturlariga raqamli xavfsizlik, kibergigiyena va viktimologik himoya asoslari bo‘yicha maxsus amaliy kurslarni kiritish lozim.

6. Psixologik xizmat va institutsional ishonch. Universitetlar huzurida anonim tarzda faoliyat yurituvchi ijtimoiy-psixolog va keys-menejer xizmatlarini tashkil etish hamda talabalarda jinoyat qurboniga aylangan yoki qiyin vaziyatga tushib qolgan holatda davlatning huquqiy himoyasiga bo‘lgan institutsional ishonchni mustahkamlash preventiv siyosatning eng ustuvor strategik yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

Ushbu kompleks chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etilishi oliy ta’lim tizimidagi inklyuziv va xavfsiz muhitni ta’minlab, mamlakatimiz intellektual salohiyatining asosi bo‘lgan yoshlarni har qanday tahdidlardan samarali himoya qilishning ishonchli poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish va mahallalarda profilaktika mexanizmlarini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan yig‘ilishidan. 2026-yil 8-aprel.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz / Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 2021- yil 6-noyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 801-son qarori. 2024.30.11
4. Гилинский Я.И. Девиантология: социология преступности, наркотизма, проституции, самоубийств и других “отклонений”. – СПб.: Алеф-Пресс, 2013. – С. 112–115. (Shuningdek, qadriyatlar yemirilishi bo‘yicha qarashlar: Merton R.K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968.)
5. Антонян Ю.М. Психология преступника и расследования преступлений. – М.: Юрайт, 2020. – С. 84-89.
6. Ismailov I., Rustambaev M.H. va boshq. Kriminologiya. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – B. 201–205.
7. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2024-yil bo‘yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. –136 b.
8. BMT (United Nations): Global Issues – Youth. Ma’lumot: Dunyoda 15–24 yoshdagi yoshlar soni 1,2 milliard kishini (umumiy aholining 16 foizini) tashkil etishi haqidagi rasmiy statistika. – Manba: un.org/en/global-issues/youth.
9. UNESKO (UNESCO Institute for Statistics / Global Education Monitoring): Ta’lim va savodxonlik bo‘yicha global hisobotlar. Yoshlarning bazaviy ta’lim va savodxonlik ko‘nikmalari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari. – Manba: uis.unesco.org va UNESKOning xalqaro savodxonlik kuniga bag‘ishlangan rasmiy ma’lumotlari.
10. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO): "Global Employment Trends for Youth" (Yoshlar bandligi bo‘yicha global tendensiyalar) hisoboti. Global yoshlar ishsizligi va bandlik muammolari tahlili. – Manba: ilo.org hamda ILOSTAT ma’lumotlar bazasi.
11. UNISEF va UAYNADS (UNICEF / UNAIDS): "Adolescent HIV Prevention and Treatment" (O‘smirlar orasida VICh profilaktikasi va davolash) global hisobotlari. Demografik yosh toifasidagi (15–24 yosh) VICh bilan yashovchi shaxslarning rasmiy statistikasi (3,2 million nafar ko‘rsatkichi). – Manba: data.unicef.org.



ПЕРВЫЙ УГОЛОВНЫЙ КОДЕКС НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА: ТРИДЦАТЬ ЛЕТ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ

(II часть)



ЯКУБОВ
Александр Санджарович
Заслуженный юрист Республики Узбекистан,
профессор, доктор юридических наук



АЗИМ ШУХРАТ
Заместитель начальника
Исследовательского института криминологии,
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Аннотация. *В статье анализируются концептуальные основы и итоги тридцатилетнего функционирования первого Уголовного кодекса независимого Узбекистана. Рассматриваются основные направления уголовно-правовой реформы начала 1990-х годов, принципы формирования нового уголовного законодательства, его соответствие Конституции и международным стандартам, а также значение Кодекса в становлении национальной уголовной политики. Особое внимание уделяется преемственности реформ, проблемам совершенствования уголовного законодательства и реализации концепций его развития в условиях современных вызовов.*

Ключевые слова: *Уголовный кодекс Республики Узбекистан, уголовно-правовая реформа, криминализация, декриминализация, уголовное законодательство, независимый Узбекистан, правовая реформа, концепция развития законодательства.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqil O'zbekistonning birinchi Jinoyat kodeksining o'ttiz yillik faoliyatining kontseptual asoslari va natijalari tahlil qilinadi. Unda 1990-yillarning boshlarida jinoyat qonunchiligini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari, yangi jinoyat qonunchiligini ishlab chiqish tamoyillari, uning Konstitutsiya va xalqaro standartlarga muvofiqligi va milliy jinoyat siyosatini rivojlantirishdagi Kodeksning ahamiyati o'rganiladi. Islohotlarning uzluksizligiga, jinoyat qonunchiligini takomillashtirishdagi qiyinchiliklarga va zamonaviy qiyinchiliklarga qaramay, uni rivojlantirish konsepsiyalarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, jinoyat qonunchiligini isloh qilish, kriminallashtirish, dekriminallashtirish, jinoyat qonunchiligi, mustaqil O'zbekiston, huquqiy islohot, qonunchilikni rivojlantirish konsepsiyasi.*

Abstract. *The article examines the conceptual foundations and the thirty-year development of the first Criminal Code of independent Uzbekistan. It analyzes the key directions of the criminal law reform launched in the early 1990s, the principles underlying the formation of new criminal legislation, its compliance with the Constitution and international standards, and its role in shaping the national criminal policy. Particular attention is paid to the continuity of legal reforms, the challenges of improving criminal legislation, and the implementation of legislative development concepts in the context of contemporary challenges.*

Keywords: *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan criminal law reform, criminalization, decriminalization, criminal legislation, legal reform, independent Uzbekistan, concept of legislative development.*

В условиях системного социально-экономического и политического реформирования государственности, осуществляемого непрерывно с момента провозглашения независимости Республики Узбекистан, вопросы укрепления законности и правопорядка, обеспечения надёжных гарантий охраны конституционных прав, свобод человека и гражданина, интересов общества и государства всегда являются приоритетными и находятся в центре внимания государства. Принятие Конституции независимого государства, внесение в неё последующих дополнений и изменений, обусловленные современным состоянием общества и государства, потребовало и формирования прочной правовой основы дальнейшего укрепления и развития государственности, справедливости гражданского общества.

С повестки дня не снимаются два главных вопроса… «первый – сохранение мира и спокойствия в обществе, второй – охрана здоровья населения». Для реализации этих задач, как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев, необходимо кардинально изменить социальную обстановку во всём обществе в целом, для чего следует эффективно организовать работу …. по предупреждению преступности и профилактике правонарушений, повышению правосознания и правовой культуры населения, утверждению в сознании граждан важнейшего принципа: **«Наш приоритет – верховенство закона, наказание за преступление неизбежно»** [1].

Традиционно государство уделяло и продолжает уделять пристальное внимание тем отраслям права и законодательства, основное социальное предназначение которых состоит в обеспечении функционирования общественных отношений во всех сферах жизнедеятельности, их охране. К их числу относится Уголовный кодекс Республики Узбекистан, принятый 22 сентября 1994 года на шестнадцатой сессии Верховного Совета Республики Узбекистан двенадцатого созыва и вступивший в силу с 1 апреля 1995 г. [2], основное функциональное предназначение которого состоит в охране наиболее значимых общественных отношений, без которых невозможен поступательный процесс к поставленной цели, предупреждение посягательств на охраняемые уголовном законом общественные отношения и реагировании на допущенные преступления посредством применения государственного принуждения к лицам их совершившим.

Подготовка проекта кодекса потребовала от разработчиков определенной научной смелости, поскольку существовала необходимость переоценки и пересмотра многих теоретических положений, ранее казавшихся незыблемыми и аксиоматичными, что, несомненно, вызвало в процессе обсуждения на различных уровнях непринятие отдельных из предложенных научных прогностических решений. В особенности это затронуло нормы и институты Общей части УК, имеющих лишь на первый взгляд чисто теоретизированный характер, без какой-либо практической значимости и необходимости. Вместе с тем, Общая часть содержит нормы, которые регламентируют два больших социально-правовых явления – **преступление и наказание**. Общая часть содержит положения, выступающие своеобразным «ключом», без которого единообразное применение норм Особенной части будет значительно затруднено и как результат приведёт к неоднозначному толкованию и субъективизму, расширению либо сужению практического усмотрения, что, в свою очередь, повлечет неминуемое нарушение прав и свобод личности, закрепленных в Конституции Узбекистана и других законах. Более того, практически все нормы и институты Общей части уголовного права являются основополагающими для всех других отраслей права, имеющих антикриминальную направленность, таких как уголовно-процессуальное право, уголовно-исполнительное право, оперативно-розыскное право, криминология, виктимология, профилактика преступлений. Существенна роль Общей части и в отграничении преступного поведения от непреступного, последнее из которых регулируется административным, гражданским, трудовым, семейным, экологическим и другими отраслями права. Поэтому правильное понимание и применение норм

Shuningdek, 1151-sonli qonun qabul qilinganidan so‘ng, ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati va Bojxona qo‘mitasi tomonidan respublika bo‘ylab narkojinoyatchilikka qarshi *“Tozalash”, “Qoradori”* kabi keng ko‘lamli tezkor-profilaktik tadbirlar keskin jadallashtirildi. Ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy idoralarning axborot xizmatlari tomonidan yoritilayotgan so‘nggi holatlar mazkur turdagi jinoyatlarning fenomenologik qiyofasi qanchalik o‘zgarganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Giyohvandlik jinoyatlari endilikda faqatgina marginal qatlamlar yoki og‘ir ijtimoiy ahvoldagi

shaxslar tomonidan emas, balki axborot texnologiyalaridan yaxshi xabardor bo‘lgan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda.

Masalan, oxirgi yillarda Toshkent viloyatida *“Qoradori-2025/2026”* tezkor tadbirlari doirasida giyohvandlikka qarshi kurash o‘ta tizimli va manzilli tarzda amalga oshirilmoqda [8]. Ushbu tadbirlar davomida xufiyona laboratoriyalar va yirik narkokuryerlar faoliyatiga chek qo‘yilmoqda. 2026-yilning yanvar oyida Namangan viloyatida o‘tkazilgan muvaffaqiyatli tezkor tadbir natijasida qariyb 21 kg *“gashish”* moddasi muomaladan olindi [9]. Bunday yirik miqdordagi giyohvandlik vositalarining viloyatlar kesimida harakatlanishi ularning ortida kuchli moliyalashtirilgan va puxta rejalashtirilgan transmilliy tarmoqlar turganini tasdiqlaydi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Jizzax shahar sudi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning birinchi choragida giyohvandlikka oid 7 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqilib, 7 nafar shaxsga nisbatan turli og‘irlikdagi jazo choralari tayinlangan [10]. Eng achinarli jihati, sudlanuvchilarning aksariyati yoshlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu raqamlar ortida quruq statistika emas, balki *izdan chiqqan hayot*, *yo‘qotilgan imkoniyat* va *og‘ir taqdirlar* yotibdi. Yoshlarning ushbu jinoyatlarga jalb qilinishi asosan telegram kanallari orqali mo‘may va tez daromad topish va’da qilinishi (asosan “kuryer” va “zakladchik” vazifalari uchun) bilan bevosita bog‘liqdir [3].

Ushbu holatlarni kriminologiya va viktimologiya nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Xususan, huquqshunos olimlar M.H. Rustambayev va S.S. Niyozova ilmiy tadqiqotlarida voyaga yetmaganlar va yoshlarning o‘ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatlari ularning jinoyatga qo‘l urishi yoki qurbonga aylanishidagi asosiy faktorlardan biri ekanligini tahlil qilganlar [11]. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, yoshlar o‘zlarining qiziquvchanliklari, ishonuvchanliklari va o‘zgalar ta’siriga tez tushishlari sababli yuqori viktimlikka ega. Oilaviy muhitda nosog‘lomlik, ota-onalarning e’tiborsizligi *(neglect)* va virtual olamdagi nazoratsizlik shaxsda deviant *(huquqqa xilof)* xulq-atvorga moyillikni keltirib chiqaruvchi birlamchi determinantlar hisoblanadi.

Zamonaviy narko-sindikatlar aynan yoshlarning ushbu psixologik zaifligidan, ularning moliyaviy mustaqillikka bo‘lgan intilishidan hamda raqamli texnologiyalardagi savodxonligidan unumli foydalanib, ularni bir martalik jinoyat quroliga aylantirmoqda. Sud-tergov amaliyotining ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tezkor tadbirlar davomida qo‘lga tushgan shaxslarning qariyb 60–70 % sintetik giyohvandlik moddalarini Internet orqali qabul qilib oluvchi va yashiruvchi 18–30 yoshdagi yigit-qizlardir. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga nafaqat jazo muqarrarligini ta’minlash, balki virtual makondagi operativ-qidiruv faoliyatini *(kiber-intellektni)* keskin kuchaytirish, maktab va oliy ta’lim muassasalarida raqamli gigiyena va huquqiy tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish vazifasini qo‘yadi [12].

Shu o‘rinda, giyohvandlik va unga aloqador transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish siyosatini shakllantirishda jahon kriminologiyasi va jinoyat huquqi fanida qator ilmiy-nazariy maktablar shakllanganligiga to‘xtalib o‘tsak. Xususan, AQSHning Stenford universiteti professori, taniqli huquqshunos olim Herbert L. Packer 1964 va 1968-yillarda e’lon qilgan o‘zining fundamental asarlarida jinoiy odil sudlov jarayonining ikkita qarama-qarshi, biroq o‘zaro muvozanatni talab qiluvchi modelini yaratgan: bular *Jinoyat nazorati modeli (Crime Control Model)* va *Tegishli jarayon modeli (Due Process Model)*dir [13].

Herbert L. Packer *“Jinoyat nazorati”* modeliga ko‘ra, jinoyat-protsessual tizimining eng oliy va mutlaq vazifasi jinoiy xulq-atvorni repressiya qilish va jamiyatda tartib hamda xavfsizlikni saqlashdir. Bu model doirasida tizim *“konveyer” (assembly line)* usulida ishlashi lozim: tergov va sud organlari jinoyatchilarni maksimal tezkorlik bilan aniqlab, qog‘ozbozliklarsiz aybini isbotlashi va muqarrar hamda qattiq jazoga tortishi talab etiladi [14]. Ushbu model doirasida narkojinoyatlarga nisbatan nol toqatsizlik *(zero tolerance)* siyosati qo‘llaniladi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlari, jumladan, tintuv o‘tkazish, ushlab turish, aloqa kanallarini nazorat qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytiriladi [15]. Olimning ta’kidlashicha, agar davlat jinoyatchilikni nazorat qila olmasa, qonunga itoatkor fuqarolarning erkinliklari xavf ostida qoladi. Biroq, buning aksi o‘laroq, *“Tegishli jarayon”* modeli ko‘proq inson huquqlarini himoya qilishga, tizimni *“to‘siqlar yo‘lagi” (obstacle course)* sifatida shakllantirib, tergov xatolarining oldini olishga qaratiladi.

Kriminolog Kent Roach esa Herbert L. Packer tomonidan olib borilgan ilmiy nazariy qarashlarni tanqidiy tahlil qilib, ular faqatgina ayblanuvchi va davlat o‘rtasidagi munosabatlarga qurilganini, biroq jabrlanuvchilarning manfaatlari chetda qolib ketganini ta’kidlaydi [16]. Kent Roach jinoyat protsessining yangi modellarini, xususan, jabrlanuvchilar *(shu jumladan, zaif qatlamlar va yoshlar)* huquqlarini himoya qilishda jazolovchi (punitive) yondashuv zarurligini ilgari surdi. Giyohvandlik moddalari savdosida individual jabrlanuvchi *(masalan, qotillik yoki o‘g‘rilikdagi kabi)* bevosita ko‘zga tashlanmasa-da, butun jamiyat, genofond va oila instituti jabrdiyda hisoblanadi. Shu sababli, narkofurushlarga nisbatan eng og‘ir jazo choralarini qo‘llash davlatning jamiyat oldidagi axloqiy va huquqiy burchi ekanligi ilmiy asoslanadi.

Shuningdek, kriminolog Ronald V. Clarke tomonidan ishlab chiqilgan *“Vaziyatli jinoyatlar profilaktikasi” (Situational Crime Prevention)* nazariyasi bugungi kunda giyohvandlikka qarshi kurashda beqiyos ahamiyatga ega. Ronald V. Clarke fikricha, jinoyatchining shaxsiyati yoki tarbiyasi bilan kurashgandan ko‘ra, jinoyat sodir etish imkoniyatlarini *(makon, vosita va sharoitni)* cheklash orqali jinoyatchilikni keskin pasaytirish mumkin [17]. Ushbu nazariyani bugungi kiber-narkojinoyatlarga tatbiq etadigan bo‘lsak, elektron to‘lov tizimlari *(ayniqsa kriptovalyutalar tranzaksiyalari)* va darknet ustidan qat’iy davlat nazoratini o‘rnatish, shuningdek, narkolaboratoriyalar uchun zarur bo‘lgan prekursorlarning erkin savdosini bloklash aynan vaziyatli profilaktikaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Shu o‘rinda, rivojlangan davlatlarning javobgarlikni og‘irlashtiruvchi siyosatini ilmiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatlarning giyohvandlikka qarshi kurash siyosati asosan ikkita qutbga bo‘linadi. Bular: liberal *(dekriminalizatsiya va zararni kamaytirish)* va konservativ *(qat’iy jazolovchi va yo‘q qilish)* [18]. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, liberal yondashuvni tanlagan qator G‘arb davlatlarida giyohvandlik epidemiyasi nazoratdan chiqib ketmoqda. Biroq, rivojlangan, ayniqsa, Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasidagi davlatlar H.L. Packerning *“Jinoyat nazorati”* modeli [19] hamda K.Roachning jazolovchi konsepsiyasiga asoslangan qattiqqo‘l siyosatni qo‘llab, jamiyat xavfsizligini ta’minlashda misli ko‘rilmagan natijalarga erishmoqda [20].

Xususan, ***Saudiya Arabistonida*** giyohvandlik va psixotrop moddalar jinoyatlariga qarshi davlat siyosati Islom shariati tamoyillari va Podshohlikning 1426 hijriy yil (2005-yil milodiy) qabul qilingan *“Narkotik va psixotrop moddalarga qarshi kurashish to‘g‘risida”*gi Qirollik Dekretiga *(Anti-Narcotics Law)* asoslanadi [21]. Mazkur Dekretga muvofiq, giyohvandlik moddalarni kontrabanda qilish *(chegaradan olib o‘tish),* ularni ishlab chiqarish va qasddan takroran sotish eng og‘ir jinoyatlar qatoriga kiritiladi. Saudiya Arabistonning jinoyat-protsessual tizimida ushbu qilmishlarga nisbatan o‘lim jazosi qo‘llaniladi. Bu jazo shariatdagi *“Ta’zir” (qozining yoki davlat rahbarining ixtiyoriga ko‘ra jamiyat manfaatini ko‘zlab beriladigan jazo)* doirasida hamda *“Yerda buzg‘unchilik qilish” (Fasad fil ard)* og‘ir jinoyati sifatida talqin qilinadi [22]. Qonunchilik iste’molchilar uchun tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiyani ko‘zda tutuvchi insonparvar shartlarni taqdim etsa-da, narkokuryerlar va tarqatuvchilarga nisbatan hech qanday shafqat qilinmaydi [21]. Xalqaro tashkilotlar, xususan, *Amnesty International* ma’lumotlariga ko‘ra, Saudiya Arabistonida 2026-yilning dastlabki olti oyida giyohvandlik bilan bog‘liq og‘ir jinoyatlar uchun 61 nafar shaxs qatl etilgan bo‘lib, bu raqamlar davlatning mazkur transmilliy illatga nisbatan temir intizom va qat’iy jazo muqarrarligi siyosatini namoyon etadi [23].

Singapur davlati bo‘lsa, bugungi kunda jahonda giyohvandlik moddalari aylanmasi eng past bo‘lgan va aholisi eng xavfsiz hisoblangan sanoqli davlatlardan biridir. Bu barqarorlikning huquqiy poydevori 1973-yilda qabul qilingan *“Giyohvandlik moddalarini suiiste’mol qilish to‘g‘risida”*gi aktga (Misuse of Drugs Act – MDA 1973) borib taqaladi [24]. Singapur jinoyat qonunchiligining eng diqqatga sazovor va boshqa davlatlar o‘rganishi kerak bo‘lgan jihati – *“Tarqatish prezumpsiyasi” (Presumption of trafficking)* institutining mavjudligi. Mazkur aktning 17-moddasiga binoan, agar shaxsning yonidan, uyidan yoki boshqaruvidagi transport vositasidan

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

qonunda belgilangan hajmdan ortiq giyohvandlik moddasi topilsa (*masalan, 15 gramm geroin, 30 gramm kokain, 250 gramm metamfetamin yoki 500 gramm kannabis),* u avtomatik ravishda *“sotish maqsadini ko‘zlagan tarqatuvchi” (trafficker)* sifatida prezumpsiya qilinadi [25]. Bunda isbotlash majburiyati (burden of proof) tergovchidan ayblanuvchining zimmasiga o‘tadi, ya’ni shaxs ushbu yirik miqdordagi moddani sotish uchun emas, balki faqat o‘zi iste’mol qilish uchun saqlaganligini rad etib bo‘lmas dalillar bilan isbotlab berishi shart. Belgilangan ushbu “o‘lim jazosi chegarasidan” (Mandatory Death Penalty amounts) ortiq modda bilan qo‘lga tushganlar uchun sudning ixtiyorisiz majburiy o‘lim jazosi tayinlanadi *(ba’zi istisnolardan tashqari, masalan, tergov bilan faol hamkorlik qilgan kuryerlarga nisbatan umrbod qamoq va darralash jazosi berilishi mumkin, Section 33B).* Shu bilan birga, Singapur markaziy narkotiklar byurosi (CNB) tomonidan faqat iste’molchi bo‘lgan *(jinoiy motivi yo‘q)* shaxslarni sud jarayonisiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiy davolashga va reabilitatsiya markazlariga *(Drug Rehabilitation Centre)* yuborish amaliyoti mavjud [24]. Bu Pakerning *“Jinoyat nazorati”* va sog‘liqni saqlash tizimlarini o‘zida mukammal uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos milliy tizimdir.

Shuningdek, ***Yaponiya*** qonunchiligi ko‘ra mamlakatda *“Stimulyatorlarni nazorat qilish to‘g‘risida”*gi qonuni (Stimulants Control Act) giyohvandlikka nisbatan murosasiz va *“nol toqatsizlik” (zero tolerance)* pozitsiyasida turadi [26]. G‘arbning aksariyat davlatlaridan farqli o‘laroq, Yaponiyada nafaqat giyohvandlik moddalarini sotish, balki birinchi marta oz miqdorda bo‘lsa-da iste’mol qilish ham og‘ir jinoyat sifatida baholanadi va real ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Yaponiya hukumati global minbarlarda, jumladan BMT sessiyalarida ham narkotiklar bo‘yicha *“zararni kamaytirish”* siyosatini qat’iyan rad etib keladi va asosiy maqsad faqat *“giyohvandliksiz jamiyat”* qurish ekanligini ta’kidlaydi. Yaponiyada jamoatchilikning kuchli qoralashi *(ijtimoiy stigma)* qonunning jazolovchi kuchi bilan birlashib, yuqori tiyib turuvchi *(deterrence)* effektni yaratadi va butun mamlakat bo‘ylab jinoyatchilik darajasining minimal ko‘rsatkichda saqlanishini ta’minlaydi.

Olimlarning nazariy tahlillari va mazkur davlatlarning amaliy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik moddalari savdosi kabi transmilliy va o‘ta yuqori daromadli jinoyatlarni faqatgina *H.L. Packerning* “The Limits of the Criminal Sanction” va *K.Roachning* “Four Models of the Criminal Process” nomli modellarini milliy qonunchilikka qat’iy tatbiq etish orqaligina jilovlash mumkin [27].

Yuqorida keltirilgan xorijiy davlatlar *(ayniqsa Singapur)ning* ilg‘or huquqiy siyosati va kriminolog olimlarning nazariy qarashlarini O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan giyohvandlikka oid ishlarni ko‘rishda Oliy sud Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli *“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”*gi qarori asosiy rahbariy ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilmoqda [28]. Biroq, 1151-sonli qonunning yaqindagina qabul qilinishi va kiber-narkojinoyatlarning urchishi mazkur Plenum qarorini konseptual jihatdan modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Shu maqsadda quyidagi ilmiy-amaliy va huquqiy takliflarimizni ilgari suramiz:

Birinchidan, ***Singapur modeli asosida giyohvandlik moddalarni “tarqatish maqsadi prezumpsiyasi”ni joriy etish.*** Amaldagi jinoyat qonunchiligimizda va Plenum qarorida shaxsning yonidan juda ko‘p miqdorda giyohvandlik moddasi topilsa-da, agar uning ushbu moddalarni sotish niyati (qasdi) tergov organlari tomonidan aniq faktlar (nazorat xaridi, telefon so‘zlashuvlari, guvohlar ko‘rsatmasi) bilan isbotlanmasa, u JKning 276-moddasi *(o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay saqlash)* bilan javobgarlikka tortiladi. Bu esa aybsizlik prezumpsiyasini suiiste’mol qilib, asl yirik narkofurushlarning sudda yengil jazo bilan qutulib qolishiga olib kelmoqda.

Implementatsiya mexanizmi. Oliy sud Plenumining 12-sonli qaroriga Singapurning “MDA 1973” qonunchiligi (17-moddasi) [29] tajribasi asosida quyidagi mazmundagi tushuntirish xati (yangi band) kiritilishi taklif etiladi: “*Tergov va sud organlarining e’tibori qaratilsinki, agar shaxs tomonidan qonunga xilof ravishda olingan, saqlangan, tashilayotgan yoki jo‘natilayotgan giyohvandlik vositasi, uning analogi yoki psixotrop moddaning miqdori qonunchilikda belgilangan “ko‘p miqdor” (yoki yangidan joriy etilishi taklif qilinayotgan “juda ko‘p miqdorda”) mezonidan oshib ketsa, ushbu holat o‘z-o‘zidan mazkur moddalarni o‘tkazish maqsadida qilingan harakat sifatida (JKning 273-moddasi) baholanishi lozim. Shaxsning ushbu moddalarni faqat shaxsiy iste’mol uchun saqlaganligi haqidagi vajlari uning o‘zi tomonidan inkor etib bo‘lmas obyektiv dalillar bilan tasdiqlanmagunga qadar, qilmish o‘tkazish qasdi bilan sodir etilgan deb hisoblanadi”.* Ushbu normaning joriy etilishi isbotlash majburiyatining bir qismini *(burden of proof)* ayblanuvchiga yuklaydi. Garchi bu klassik aybsizlik prezumpsiyasiga biroz ziddek tuyulsa-da, narkojinoyatlarning yuqori ijtimoiy xavfliligi inobatga olinsa, bu *H.L. Packer* tomonidan ishlab chiqilgan “Jinoyat nazorati” konsepsiyasiga hamda milliy xavfsizlik manfaatlariga to‘la mos tushadi [30].

Ikkinchidan, ***Iber-makondagi “narkosavdo” tushunchasini kengaytirish va virtual aktivlarni ashyoviy dalil sifatida mustahkamlash.*** Amaldagi Plenum qarorining 21-bandida giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda o‘tkazish deganda *“ularni turlicha usulda haq evaziga yoki tekinga (sotish, hadya etish, almashtirish, qarzi evaziga yoki qarz sifatida va h.k.) boshqa shaxsga berish tushunilishi lozim”* deb ko‘rsatilgan [28]. Ammo zamonaviy *“kontaktsiz” (darknet, zakladka)* sotuv jarayonida diler va xaridor o‘rtasida jismoniy berish jarayoni umuman mavjud emas. Ular faqatgina raqamli ma’lumot almashadilar. *Implementatsiya mexanizmi:* 12-sonli Plenum qarorining 21-bandi quyidagi zamonaviy mazmun bilan to‘ldirilishi va kengaytirilishi lozim: “*Giyohvandlik vositalarini xufiyona joylarga yashirish (zakladka) va ularning geolokatsiya koordinatalarini yoki fotosuratlarini Internet jahon axborot tarmog‘i (shu jumladan, darknet va shifrlangan messenjerlar) orqali boshqa shaxsga yuborish, shuningdek, buning evaziga elektron to‘lov tizimlari, bank kartalari yoki virtual aktivlar (kriptovalyutalar) orqali moliyaviy mablag‘ qabul qilib olish – modda fizik jihatdan xaridor qo‘liga tegishidan qat’i nazar, jinoyatni o‘tkazish sifatida tugallangan (JKning 273-moddasi) deb topilishiga asos bo‘ladi”.* Bunday talqin Oliy sud Plenumining 2020-yil 3-iyuldagi 12-sonli o‘zgartirishlaridagi virtual mulk *(FK 169-moddasi)* konsepsiyasini narkojinoyatlar amaliyoti bilan integratsiya qiladi [31].

Uchinchidan, ***“G‘ayriqonuniy narkolaboratoriya” va “Bangixona”ning raqamli va vaziyatli talqinini yaratish.*** 1151-sonli qonun bilan kiritilgan yangi *276[1]-modda (G‘ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish)* [5] va mavjud *276[2]-modda (Bangixona tashkil qilish yoki saqlash)* [5] tushunchalarini sud amaliyotida bir xil qo‘llash uchun Plenum qarorida ularning aniq huquqiy chegaralarini ochib berish zarur. *Ronald Clarke tomonidan yozilgan “*Situational Crime Prevention” nazariyasiga suyangan holda [32], Plenum qarorida laboratoriya faqat tayyor narkotik mahsulot ishlab chiqarayotgan joy emas, balki sintez jarayoni uchun zarur prekursorlar, kolbalar va kimyoviy uskunalar jamlangan har qanday makon sifatida *(Yaponiya qonunchiligidagi kabi qat’iy)* [26] tavsiflanishi lozim. Shuningdek, zamonaviy “bangixona” tushunchasi nafaqat fizik makon (uy yoki yer-to‘la), balki yoshlarni giyohvandlik moddalarini iste’mol qilishga undovchi, ularning ta’sirini muhokama qiluvchi virtual chatlar va forumlar yaratuvchilarini ham qamrab oluvchi targ‘ibot makoni sifatida baholash mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak.

Yuqorida batafsil bayon etilgan nazariy yondashuvlar va xorijiy davlatlarning ilg‘or jinoyatga oid huquqiy siyosatini milliy qonunchiligimizga, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga implementatsiya qilish orqali qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda quyidagi ulkan ijobiy natijalarga erishish kafolatlanadi:

Birinchidan, *huquqni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuv va jazo muqarrarligining (Deterrence effect) ta’minlanishi.* Ya’ni, Singapur davlatining *“modda hajmiga qarab sotishni prezumpsiya qilish”* amaliyoti sudlarimiz faoliyatiga joriy etilsa, tergov va sud organlari o‘rtasidagi sun’iy to‘siqlar hamda korrupsion xavf-xatarlar butunlay olib tashlanadi. Yirik miqdordagi narkotik bilan ushlangan shaxsning o‘zini *“iste’molchi”* qilib ko‘rsatib, aybini sun’iy ravishda yengillashtirib javobgarlikdan (og‘ir jazodan) qutulib qolish ehtimoli nolga tenglashadi. Zero, qat’iy va muqarrar jazo jinoyatchilikning oldini olishning eng samarali psixologik faktoridir.

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

Ikkinchidan, *sintetik narkotiklarning ichki ishlab chiqarish tarmog‘ini yo‘q qilish va demografik xavfsizlikni saqlash.*1151-sonli qonun doirasida g‘ayriqonuniy narkolaboratoriyalar uchun 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishdek qat’iy jazoning belgilanishi, shuningdek, Oliy sud Plenumi tomonidan ushbu tushunchaning keng qamrovli talqin qilinishi mamlakat ichkarisida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning *(kustar laboratoriyalarning)* moliyaviy va logistik faoliyatini butunlay falaj qiladi. Bu esa bozordagi taklifni keskin kamaytirib, sintetik giyohvandlikning epidemik tarqalishiga chek qo‘yadi.

Uchinchidan, *kiber-narkojinoyatchilik tarmoqlarini parchalash va raqamli dalillarning huquqiy maqomini oshirish.* Ya’ni, Virtual aktivlar *(kriptovalyuta),* darknet va geolokatsiya almashinuvini bevosita *“o‘tkazish”* jinoyatining obyektiv tomoni sifatida rasman tan olinishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning raqamli dalillar bilan ishlash salohiyatini legitimlashtiradi. Bu orqali *H.L. Packer* tomonidan yozilgan “Jinoyat nazorati” nazariyasi zamonaviy kiberxavfsizlik talablari bilan uyg‘unlashadi va davlatning virtual makondagi ustunligi ta’minlanadi.

To‘rtinchidan, *Millat genofondini va yoshlar viktimologiyasini himoya qilish.* Yoshlarning kriminal transnatsional guruhlarga kuryer yoki zakladchik sifatida aldanib jalb qilinishining oldi olinadi. Yaponiya va Saudiya Arabistoni kabi davlatlarning qat’iy jazolash va jamiyatda murosasiz muhit yaratish siyosatini qisman o‘zlashtirish orqali jamiyatimizda giyohvandlik bilan bog‘liq har qanday qilmish og‘ir davlat jinoyati darajasida qoralanishi *(kuchli ijtimoiy stigma)* ta’minlanadi. Bu esa sog‘lom, barkamol va jismonan yetuk avlod yashaydigan xavfsiz Yangi O‘zbekiston jamiyatini barpo etishning eng muhim poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan kompleks tadqiqot va ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida giyohvandlikka qarshi kurash sohasida olib borilayotgan keskin islohotlar, xususan, 1151-sonli qonunning qabul qilinishi davlatning inson huquqlarini va millat sog‘lig‘ini himoya qilishdagi yuksak siyosiy irodasining amaliy ifodasidir. Jahon hamjamiyatida, xususan, BMT hisobotlarida takror va takror bong urilayotgan sintetik narkotiklarning global xurujiga qarshi faqatgina eskicha usullar va yumshoq qonunchilik bilan kurashib bo‘lmaydi. Yuqorida tahlil qilingan G‘arb va Sharqning ilg‘or ilmiy nazariyalari hamda qat’iy jazolovchi huquqiy amaliyotlarini milliy qonunchiligimizga singdirish orqali biz nafaqat bugungi kun jinoyatchiligini jilovlaymiz, balki kelajak avlodlarni ushbu asr vabosidan asrab qolish uchun mustahkam qalqon yaratamiz.

Foydalanilgan manbalar

1. BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC). UNODC World Drug Report 2026: Global drug markets transforming rapidly as technology, novel drug types and instability present traffickers with new opportunities // https://www.unodc.org/unodc-/en/press/releases/2026/June/unodc-world-drug-report-2026_-global-drug-markets-transforming-rapidly-as-technology--novel-drug-types-and-instability-present-traffickers-with-new-opportunities.html
2. BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC). UNODC World Drug Report 2026 by region: Asia // https://www.unodc.org/unodc/en/wdr/2026/asia.html
3. Гиёҳвандликка қарши кураш - доимий назоратда // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (ЎзА) расмий сайти. 04.05.2026. // https://uza.uz/uz/posts/giyoh-vandlikka-qarshi-kurash-doimiy-nazoratda-video_853225
4. Эрназаров О. Гиёҳвандликка қарши биргаликда курашайлик // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (ЎзА) расмий сайти // https://uza.uz/en/posts/giyohvandlikka-garshi-birgalikda-kurashaylik_852819
5. Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 11 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ёки уларнинг аналогларининг ва кучли таъсир қилувчи моддаларнинг қонунга хилоф муомаласи учун жавобгарликни такомиллаштиришга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-1151-сон қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: https://lex.uz/docs/8263876
6. Гиёҳвандликка қарши курашиш ва йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш чоралари кўриб чиқилди - president.uz, https://president.uz/uz/lists/view/9300
7. Мирзаев Ш., Дониёров Д. Гиёҳвандликка қарши курашиш янги босқичга олиб чиқилмоқда // https://yuz.uz/oz/news/gievandlikka-qarsi-kurasis-iangi-bosqicga-olib-ciqilmoqda

8. “Қорадори-2025” тезкор тадбирлари доирасида Тошкент вилояти ИИББ томонидан амалга оширилган ишлар юзасидан // https://gov.uz/uz/iiv/news/view/69325
9. Матназаров О. Гиёҳвандлик воситалари устидан давлат назорати кучайтирилади // https://kun.uz/kr/news/2026/07/13/giyohvandlik-vositalari-ustidan-davlat-nazorati-kuchaytiri-ladi-41e62e
10.Эрназаров О. Гиёҳвандликка қарши биргаликда курашайлик // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (ЎзА) расмий сайти. URL: https://uza.uz/en/posts/giyohvandlikka-qarshi-birgalikda-kurashaylik_852819
11. Rustambayev M.X.,Niyozova S.S. Viktimologiya Umumiy qism. Darslik// Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 239 b.
12. Мирзаев Ш., Дониёров Д. Гиёҳвандликка қарши курашиш янги босқичга олиб чиқилмоқда // https://yuz.uz/oz/news/gievandlikka-qarsi-kurasis-iangi-bosqicga-olib-ciqilmoqda
13. Packer H.L. The Limits of the Criminal Sanction // Google Books тизими. URL: https://books.google.com/books/about/The_Limits_of_the_Criminal_Sanction.html?id=gncxJvRGyR0C
14. The Crime Control Model: Due Process Values // StudyCorgi (Free Essay Examples). URL: https://studycorgi.com/the-crime-control-model-due-process-values/
15. Packer, H. (1964). Two models of the criminal process, 113 U. PA. L. Rev. 1; Yerkes, M. (1969). The limits of the criminal sanction, by Herbert L. Packer (1968). Loyola of Los Angeles Law Review 176, 2(1).
16. Roach K. Four Models of the Criminal Process // Journal of Criminal Law and Criminology. – 1999. – Vol. 89, Issue 2. – P. 676-681.
17. Sutton M. Stolen Goods Markets (Problem-Specific Guides Series No. 57) // U.S. Department of Justice, Office of Community Oriented Policing Services. URL: https://portal.-cops.usdoj.gov/resourcecenter/content.ashx/cops-p177-pub.pdf
18. Nadelmann E.A. Drug Prohibition in the United States: Costs, Consequences, and Alternatives // Science. – 1989. – Vol. 245, Issue 4921. – P. 939–947.
19. Packer H.L. The Limits of the Criminal Sanction. – Stanford: Stanford University Press, 1968. – P. 158.
20. Roach K. Four Models of the Criminal Process // Journal of Criminal Law and Criminology. – 1999. – Vol. 89, Issue 2. – P. 671-716.
21. Anti-Narcotics Law // https://malnassarlawyer.com/en/anti-narcotics-law
22. Human Rights Committee, General Comment No. 36, article 6: right to life, CCPR/C/GC/36, para. 32ss. Being mindful that Saudi Arabia is not a party to the International Covenant on Civil and Political Rights and therefore not bound by the findings of the Human Rights Committee, we submit nonetheless that it should be taken into consideration in the present analysis on a consultative manner and applied mutatis mutandis to countries bound by the right to life under the UDHR. The mandates of the Special Rapporteur on extrajudicial, summary or arbitrary executions and the Special Rapporteur on torture and other cruel, inhuman or degrading treatment or punishment, considered that the death penalty for drug-related crimes against 29 Egyptians in Saudi Arabia does not reach the threshold of “most serious” crimes, see, UN Special Procedures mandate holders, UA SAU 5/2024, 3 December 2024, p. 4.
23. Saudi Arabia: Almost 100 People Executed so Far This Year as Dozens More Remain on Death Row for Drug-Related Offenses, https://www.amnestyusa.org/press-releases/saudi-arabia-almost-100-people-executed-so-far-this-year-as-dozens-more-remain-on-death-row-for-drug-related-offenses/
24. MDA, https://isomer-user-content.by.gov.sg/266/00c6631d-a2ba-4db2-9076-abce45ed-733f/topic-2-overview-of-mda.pdf
25. “Misuse of Drugs Act 1973”. Government of Singapore. Archived from the original on 17 April 2021. Retrieved 3 December 2020.
26. Japanese statement on drug demand reduction - CND Blog // https://cndblog.org/-2009/03/japanese-statement-on-drug-demand-reduction/
27. Packer H.L. The Limits of the Criminal Sanction. – Stanford: Stanford University Press, 1968. – P. 158.; Roach K. Four Models of the Criminal Process // Journal of Criminal Law and Criminology. – 1999. – Vol. 89, Issue 2. – P. 699.
28. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 28.04.2017 й. 12-сон “Гиёҳвандлик воситалари, уларнинг аналоглари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга оид жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарори | NRM.uz, https://nrm.uz/contentf?doc=520849_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi-_oliy_sudi_plenumining_28_04_2017_y_12-son_giehvandlik_vositalari_ularning_analoglari_-va_psihotrop_moddalar_bilan_qonunga_hilof_ravishda_muomala_qilishga_oid_jinoyat_ishlari_bo%E2%80%98yicha_sud_amalieti_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_qarori&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana
29. Misuse of Drugs Act (Singapore)–Wikipedia, https://en.wikipedia.org/wiki/Misuse_-of_Drugs_Act_(Singapore)
30. Packer H.L. Two Models of the Criminal Process // University of Pennsylvania Law Review. – 1964. – Vol. 113, No. 1. – P. 1-68.
31. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2020 йил 3 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми ва Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди Пленумининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 12-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. URL: https://lex.uz/docs/4904177
32. Stolen Goods Markets - Agency Portal, https://portal.cops.usdoj.gov/resourcecenter/-content.ashx/cops-p177-pub.pdf

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ ПРЕСТУПНОСТИ КАК МЕХАНИЗМА РАННЕГО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРАВОНАРУШЕНИЙ
опыт Республики Узбекистан



ТАЗЕТДИНОВ
Руслан Рабинович
Исследовательский институт криминологии
Республики Узбекистан,
доктор философии по психологическим наукам, доцент

Аннотация. *В статье с позиций юридической психологии и криминологии анализируется институциональная модель социальной профилактики преступности, сложившаяся в Республике Узбекистан на базе института махалли и механизма «махаллинской семёрки». Показано, что эффективность профилактического воздействия определяется не столько нормативно-организационными, сколько психологическими факторами: механизмами формирования девиантной мотивации, состоянием психологической защищённости личности в семье и территориальном сообществе, качеством межличностного доверия между населением и субъектами профилактики. Прослежена связь узбекской модели с классическими психолого-криминологическими концепциями – теорией аномии Э. Дюркгейма и Р. Мертона, теорией «разбитых окон» Дж. Уилсона и Дж. Келлинга, концепцией «криминогепного удара» П. Вудса. Сформулированы научно-практические предложения по усилению психологической составляющей системы социальной профилактики.*
Ключевые слова: *юридическая психология, социальная профилактика, криминогенная ситуация, девиантное поведение, махалля, психологическая безопасность личности, ранняя профилактика, аномия, фрустрация.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalla instituti va "mahalla yetti" mexanizmiga asoslangan ijtimoiy jinoyatlarning oldini olishning institutsional modeli huquqiy psixologiya va kriminologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Profilaktik choralarning samaradorligi nafaqat normativ va tashkiliy omillar, balki psixologik omillar bilan ham belgilanadi: deviant motivatsiyani shakllantirish mexanizmlari, oila va hududiy hamjamiyat ichida shaxsning psixologik xavfsizligi holati va aholi va profilaktika sub'ektlari o'rtasidagi shaxslararo ishonch sifati. O'zbek modeli va klassik psixologik va kriminologik tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlik kuzatiladi: E. Dyurkgeym va R. Mertonning anomiya nazariyasi, J. Uilson va J. Kellingning "singan derazalar" nazariyasi va P. Vudsning "kriminogen zarba" tushunchasi. Ijtimoiy profilaktika tizimining psixologik tarkibiy qismini mustahkamlash bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar shakllantirilgan.*
Kalit so'zlar: *huquqiy psixologiya, ijtimoiy profilaktika, kriminogen vaziyat, deviant xulq-atvor, mahalla, shaxsning psixologik xavfsizligi, erta profilaktika, anomiya, umidsizlik.*

Abstract. *From the perspective of legal psychology and criminology, this article analyzes the institutional model of social crime prevention established in the Republic of Uzbekistan based on the institution of the mahalla and the "mahalla seven" mechanism. It is demonstrated that the effectiveness of preventive impact is determined not so much by normative and organizational factors, but rather by psychological ones: the mechanisms behind the formation of deviant motivation, the state of an individual's psychological security within the family and the territorial community, and the quality of interpersonal trust between the population and prevention subjects. The connection between the Uzbek model and classical psychological-criminological concepts is traced, including É. Durkheim and R. Merton's theory of anomie, J. Wilson and G. Kelling's "broken windows" theory, and P. Woods' concept of "criminogenic impact." Scientific and practical proposals are formulated to strengthen the psychological component of the social prevention system.*
Keywords: *legal psychology, social prevention, criminogenic situation, deviant behavior, mahalla, psychological security of the individual, early prevention, anomie, frustration*

Проблема предупреждения преступности традиционно рассматривается в рамках уголовно-правовой и криминологической парадигмы, однако углублённый анализ природы противоправного поведения невозможен без обращения к его психологическим основаниям. Всякое преступление есть, прежде всего, акт индивидуального сознания и воли, формирующийся под воздействием внутриличностных процессов – мотивации, эмоциональной регуляции, ценностных установок, механизмов психологической защиты и адаптации к среде. Поэтому социальная профилактика преступности, понимаемая как воздействие на первопричины, а не на последствия противоправного поведения, по своей сущности является в значительной мере психолого-педагогической деятельностью, реализуемой правовыми и организационными средствами.

За период 2023–2025 годов в Республике Узбекистан формировалась и получила нормативное закрепление комплексная модель социальной профилактики, опирающаяся на институт местного самоуправления – махаллю и механизм «махаллинской семёрки» [10, 11]. Несмотря на очевидную организационно-правовую проработанность данной модели, её психологическое измерение – то есть то, каким образом система воздействует на внутренние, личностные детерминанты девиантного и криминального поведения, – остаётся недостаточно изученным. Между тем именно психологический компонент – доверие к субъектам профилактики, снижение тревожности и фрустрации у лиц группы риска, восстановление внутрисемейных эмоциональных связей – определяет устойчивость достигаемых результатов.

Целью данной статьи является анализ психологических механизмов, лежащих в основе узбекской модели социальной профилактики, а также формулирование предложений по усилению психологической составляющей профилактической деятельности с учётом мирового научного опыта.

Криминогенная ситуация, вопреки распространённому упрощённому пониманию, не сводится к совокупности внешних социально-экономических обстоятельств. Она представляет собой психологически насыщенное состояние среды, в котором у личности формируется субъективная готовность к противоправному деянию. Классическая теория аномии Дюркгейма объясняет рост преступности через разрушение нормативно-ценностной регуляции поведения: при ослаблении общественных норм личность утрачивает психологические ориентиры и переживает состояние морально-психологической дезориентации [1, 2].

Р. Мертон, развивая идею аномии, показал, что психологическим источником девиации служит рассогласование между социально одобряемыми целями (материальный успех, статус) и реально доступными личности легитимными средствами их достижения. Возникающее при этом состояние фрустрации – переживание блокированной потребности – толкает часть индивидов к избранию противоправных способов удовлетворения актуальных мотивов [3, 4]. С этой точки зрения профилактика преступности должна включать не только расширение легальных социальных лифтов, но и работу с самим переживанием фрустрации – обучение конструктивным копинг-стратегиям, снижение уровня агрессии и тревожности у лиц, находящихся в ситуации социальной депривации.

Теория «разбитых окон» Дж. Уилсона и Келлинга дополняет психологическую картину криминогенной ситуации указанием на роль средового восприятия: визуально неблагополучная, запущенная территория формирует у жителей ощущение отсутствия социального контроля и безнаказанности, что снижает порог психологического сдерживания противоправных импульсов [6]. Именно поэтому в узбекской модели профилактики особое значение придаётся выявлению инспекторами по профилактике заброшенных, неосвещённых и неконтролируемых пространств махалли – данная мера имеет не только организационный, но и выраженный психолого-средовой смысл, поскольку упорядоченная и «видимая» среда снижает субъективное ощущение вседозволенности.

Особый интерес с психологической точки зрения представляет концепция «криминогенного удара» П. Вудса, согласно которой клю-

чевым триггером девиантного поведения личности выступает резкое негативное событие – неудача в учёбе, потеря работы, развод родителей, семейное насилие, переживание несправедливости [8]. Такие события порождают острое психотравмирующее состояние, при отсутствии своевременной психологической поддержки трансформирующееся в устойчивую антисоциальную установку. Данная концепция методологически обосновывает необходимость раннего психологического сопровождения именно в кризисные, переходные моменты жизни личности – что, как показано ниже, составляет содержательное ядро индивидуальной профилактики в узбекской модели.

Индивидуальная профилактика, реализуемая инспектором по профилактике и иными членами «махаллинской семёрки», по своей психологической структуре представляет собой процесс адресной работы с личностью, включающий как минимум три взаимосвязанных компонента: диагностический (оценка психического состояния, семейной атмосферы, уровня тревожности и склонности к девиации), поддерживающий (снятие психологического напряжения, восстановление доверия к социальному окружению) и коррекционный (формирование законопослушных установок, обучение конструктивным моделям поведения).

Семья при этом рассматривается как первичное психологическое пространство социализации личности, в котором закладываются базовые механизмы саморегуляции, эмпатии и уважения к границам другого человека. Насильственная, эмоционально нестабильная или безнадзорная семейная среда формирует у ребёнка искажённые модели совладения с конфликтом, при которых агрессия воспринимается как приемлемый способ разрешения противоречий. Это подтверждает необходимость включения в состав субъектов профилактики психологов и социальных работников, способных проводить квалифицированную диагностику детско-родительских отношений, а не только фиксировать факт неблагополучия.

Показательно, что нормативная модель Узбекистана прямо предусматривает психологическую составляющую деятельности инспектора по профилактике: изучение психического состояния лиц, состоящих на профилактическом учёте, оценка их эмоциональной устойчивости и мотивации, проведение индивидуальных профилактических бесед [13, 14]. Вместе с тем анализ практики показывает, что данная функция зачастую выполняется должностными лицами без соответствующей психологической подготовки, что снижает точность диагностики и эффективность коррекционного воздействия.

Работа с лицами, вернувшимися из мест лишения свободы, ранее судимыми и состоящими на профилактическом учёте, также требует психологического осмысления. Постпенитенциарная адаптация сопряжена с переживанием стигматизации, социальной изоляции и утраты идентичности; без целенаправленной психологической реабилитации формальное трудоустройство и материальная поддержка не устраняют внутриличностного конфликта, повышающего риск рецидива. Снижение показателей рецидивной преступности, зафиксированное в республике за 2024–2025 годы [10], целесообразно связывать не только с мерами социально-экономической реинтеграции, но и с элементами психологического сопровождения, реализуемыми через институт наставничества и духовно-просветительскую работу.

С позиций юридической психологии институт махалли может быть интерпретирован как механизм воссоздания «психологически безопасной среды» – территориального сообщества, в котором личность ощущает себя узнаваемой, включённой и социально значимой. Утрата подобной включённости – характерная черта урбанизированных, анонимных сообществ – признаётся в социологической криминологии одним из ключевых факторов роста преступности, поскольку анонимность ослабляет неформальный социальный контроль и связанное с ним чувство ответственности перед конкретными людьми [5, 7].

Механизм «махаллинской семёрки», объединяющий инспектора по профилактике, председателя махалли, помощника хокима, активиста по делам женщин, лидера молодёжи, социального работника и налогового инспектора, психологически значим тем, что обеспечивает многоканальность доверительного контакта: для человека, испытывающего затруднение в обращении к представителю правоохранительных органов, более доступным может оказаться диалог с активистом по делам женщин, социальным работником или духовным наставником. Такая структура снижает психологический барьер стигматизации, связанный с обращением «в органы», и повышает вероятность добровольного раскрытия проблемы на ранней стадии.

Отдельного внимания заслуживает деятельность активисток женского движения, чья работа с женщинами, находящимися в конфликтных семьях, переживающими насилие или психоэмоциональную нагрузку, требует специфических навыков эмпатийного слушания и кризисного консультирования. Наблюдаемое сокращение доли женской преступности в ряде регионов республики можно рассматривать как косвенное свидетельство эффективности данного психолого-профилактического канала, хотя причинно-следственная связь нуждается в дальнейшей эмпирической верификации.

Опыт Японии, где профилактика преступности опирается на систему местных полицейских пунктов кобан, также подтверждает психологическую закономерность: регулярный, неформальный и доброжелательный контакт представителя правопорядка с населением формирует устойчивое чувство доверия и снижает уровень социальной тревожности, что само по себе выступает мощным профилактическим фактором, не сводимым к репрессивному сдерживанию.

С учётом изложенного представляется целесообразным внести следующие научно-практические предложения, направленные на усиление психологической составляющей системы социальной профилактики:

1. Включить в состав «махаллинской семёрки» либо в перечень лиц, содействующих осуществлению мероприятий по социальной профилактике, штатную должность практического психолога, закреплённого за группой из нескольких махаллей, для проведения психодиагностики лиц группы риска и супервизии деятельности иных субъектов профилактики.

2. Разработать и внедрить обязательный модуль базовой психологической подготовки (основы психодиагностики, кризисного консультирования, распознавания признаков психотравмы и суицидального риска) для инспекторов по профилактике, помощников хокима, активистов по делам женщин и лидеров молодёжи.

3. Дополнить информационную систему «Е-социальная профилактика» стандартизированным блоком психологической оценки объекта профилактики (уровень тревожности, наличие психотравмирующих событий, качество семейных отношений), заполняемым по результатам структурированной беседы с участием психолога.

4. Разработать дифференцированные программы психологического сопровождения для ключевых кризисных периодов личности («криминогенного удара»): развод и постразводная адаптация, освобождение из мест лишения свободы, потеря работы, утрата близкого человека, – с приоритетным вниманием к несовершеннолетним и молодёжи.

5. Организовать регулярный мониторинг субъективного благополучия и уровня социальной тревожности населения махаллей (в дополнение к статистике зарегистрированных преступлений) как самостоятельного индикатора эффективности профилактической работы, поскольку снижение тревожности и рост доверия к субъектам профилактики являются опережающими признаками стабилизации криминогенной обстановки.

6. Предусмотреть в программах повышения квалификации сотрудников органов внутренних дел и работников махаллей курс юридической психологии, включающий изучение теорий аномии, фрустрации-агрессии, «разбитых окон» и «криминогенного удара» с их адаптацией к национальной практике.

7. При обмене опытом в рамках Совета министров внутренних дел государств-участников СНГ инициировать формирование межгосударственной рабочей группы по

психологическому сопровождению территориальной профилактики преступности в целях выработки унифицированных методических рекомендаций с учётом культурных особенностей стран-участниц.

Реализация предложенных мер способна укрепить психологическую устойчивость и научную обоснованность узбекской модели социальной профилактики, обеспечить её воспроизводимость в иных национальных условиях и повысить долгосрочную эффективность раннего предупреждения преступности как в Республике Узбекистан, так и в государствах, заинтересованных в изучении данного опыта.

Использованные источники

1. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / пер. с фр.; под ред. В.А. Базарова. – М.: Мысль, 1994. – 399 с.
2. Durkheim E. The Division of Labour in Society. – London: Macmillan, 1993.
3. Мертон Р. Социальная структура и аномия // Социология преступности (Современные буржуазные теории) / пер. с фр. Е.А. Самарской; ред. пер. М.Н. Грецкий. – М.: Прогресс, 1966. – С. 299–313.
4. Merton R.K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – 175 p.
5. Криминология: учебник / К.Р. Абдурасулова, А.Г. Закирова, И. Исмаилов [и др.]. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2023. – 318 с.
6. Wilson J.Q., Kelling G.L. Broken Windows: The Police and Neighborhood Safety // The Atlantic Monthly. – 1982. – Vol. 249, № 3. – P. 29–38.
7. Иншаков С.М. Зарубежная криминология. – М.: ИНФРА·М–НОРМА, 1997. – 47 с.
8. Woods P. The Myth of the 'Culture of Deprivation' // British Journal of Sociology of Education. – 1991. – Vol. 12, № 2. – P. 139–150.
9. Violence prevention: the evidence [Электронный ресурс]. – Geneva: World Health Organization, 2010. – URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789241597821 (дата обращения: 30.07.2026).
10. О мерах по повышению эффективности системы социальной профилактики в махаллях на основе принципа «Благоустроенная и безопасная махалля»: постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 30.11.2024 № 801 [Электронный ресурс]. – URL: https://lex.uz/docs/7243832 (дата обращения: 30.07.2026).
11. О систематизации постановлений Правительства в сфере охраны общественного порядка, обеспечения общественной безопасности и профилактики правонарушений: постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 01.12.2025 № 754 [Электронный ресурс]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/7872510#7873326 (дата обращения: 30.07.2026).
12. Мирзиёев Ш.М. Наш народ ждет от нас обеспечения верховенства закона и справедливости на деле // Решительно продолжая наш путь национального развития, поднимем его на новый уровень. – Ташкент: Узбекистан, 2017. – С. 206.
13. Зиёдуллаев М.З., Исаев С.А. На пути к совершенствованию правовых основ профилактики правонарушений // Qalqon (Щит). – 2015. – № 1. – С. 7.
14. Исмаилов И., Мухамедов У.Х., Зиёдуллаев М.З. [и др.]. Коренные реформы в системе органов внутренних дел – гарантия служения интересам народа: учеб. пособие / под общ. ред. Б.А. Матлюбова. – Ташкент, 2017. – С. 89.
15. Об утверждении Концепции общественной безопасности Республики Узбекистан и мерах по ее реализации: указ Президента Республики Узбекистан от 29.11.2021 № УП-27 [Электронный ресурс]. – URL: https://lex.uz (дата обращения: 30.07.2026).



EKSTREMISTIK FAOLIYAT NATIJASIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING SABABLARI VA ULARGA IMKON BERAYOTGAN SHART-SHAROITLAR

TO‘XTAYEV
Firdavs Mustafoqul o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ekstremistik faoliyat natijasida sodir etiladigan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlar bo‘yicha olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilingan. Ekstremizmning sabab va shart-sharoitlari o‘zaro bog‘liqligi va ushbu hodisalarning xorijiy davlatlardagi talqini hamda Internet makonida ekstremistik g‘oyalarning targ‘iboti bilan bog‘liq vaziyat o‘rganilgan. Ekstremistik faoliyatga doir sud hukmlari tahlil qilinib, qilmishning sabablari tizimlashtirilgan hamda qayd etilgan holatlar bo‘yicha mualliflik yondashuvlari ilgari surilgan.*
Kalit so‘zlar: *jinoyat, ekstremizm, ekstremistik faoliyat, qilmish, sabab, shart-sharoit, ekstremistik tashkilot, mafkura, ekstremist shaxsi, internet, din, e’tiqod.*

21. Argentina. Ley 26.791 de 2012; Código Penal de la Nación, artículo 80, inciso 11. URL: https://servicios.infoleg.gob.ar/infolegInternet/verNorma.do?id=206018 (дата обращения: 29.07.2026).
22. România. Legea nr. 53/2026 pentru prevenirea și combaterea femicidului și a violențelor care îl precedă, precum și pentru modificarea și completarea unor acte normative. URL: https://www.cdep.ro/ords/pls/proiecte/upl_pck2015.proiect?an=2026&nr=42 (дата обращения: 29.07.2026).
23. Republica Moldova. Legea nr. 252 din 10 iulie 2025; Codul penal, articolul 134[27] «Femicid». URL: https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=150197&lang=ro (дата обращения: 29.07.2026).
24. Georgia. Criminal Code of Georgia, Article 53(3[1]) (discriminatory motive as an aggravating circumstance). URL: https://www.matsne.gov.ge/en/document/download/16426/173/en/pdf (дата обращения: 29.07.2026).



VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING MOHIYATI, IJTIMOIY TABIATI VA ILMIY TADQIQ ETISH ZARURATI



BARATOVA
Dilnoza Odiljon qizi
Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori



ABDUHAMIDOV
G‘ayrat Zaynishevich
Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya*. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-huquqiy mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va determinantlari kriminologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Xorijiy va milliy olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy o‘rganilgan holda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tushunishda integrativ kriminologik yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida profilaktika tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, kriminologik nazariyalar, ijtimoiy determinantlar, profilaktika, integrativ yondashuv.*

Аннотация*. В данной статье с криминологической точки зрения проанализирована социально-правовая природа преступности несовершеннолетних, причины и детерминанты её возникновения. На основе сравнительного изучения теоретических взглядов зарубежных и отечественных учёных обоснована значимость интегративного криминологического подхода к пониманию преступности несовершеннолетних. По итогам исследования разработаны практические предложения по совершенствованию системы профилактики.*
Ключевые слова: *преступность несовершеннолетних, криминологические теории, социальные детерминанты, профилактика, интегративный подход.*

Abstract. *This article analyzes, from a criminological perspective, the socio-legal nature of juvenile delinquency and the causes and determinants underlying its emergence. Through a comparative study of the theoretical views of foreign and national scholars, the significance of an integrative criminological approach to understanding juvenile delinquency is substantiated. Based on the research findings, practical proposals for improving the prevention system are developed.*
Keywords: *juvenile delinquency, criminological theories, social determinants, prevention, integrative approach.*

Huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, ularga ta’sir etuvchi omillarni batafsil o‘rganish kriminologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, jinoyatchilik determinantlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish nafaqat nazariy, balki huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, uning rivojlanish qonuniyatlari va ijtimoiy omillarini aniqlash kriminologiya fanining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish hamda jinoyatchilikning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “jinoyatchilikka qarshi kurashishda uning oqibatlari bilan emas, balki unga sabab bo‘luvchi omillarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratish zarur” [1]. Mazkur konseptual yondashuv jinoyatchilikning determinantlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, ayniqsa, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va ularni vujudga keltiruvchi omillarni kompleks o‘rganish, profilaktika chora-tadbirlarini ilmiy asosda tashkil etish zaruratini yanada dolzarblashtiradi.

Kriminologiya nazariyasida jinoyatchilikning sabablari va unga ta’sir etuvchi omillarning mazmuni hamda o‘zaro nisbati yuzasidan yagona ilmiy yondashuv hozirga qadar shakllanmagan. Ilmiy adabiyotlarda mazkur masalaga nisbatan turli xil konseptual yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular jinoyatchilikning paydo bo‘lishini ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, biologik hamda madaniy omillar bilan izohlaydilar. Bu holat, ayniqsa, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki ushbu toifadagi shaxslar xulq-atvoriga nafaqat tashqi ijtimoiy muhit, balki yosh xususiyati, ruhiy rivojlanish darajasi, tarbiya muhiti va shaxsiy psixologik omillar ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi zamonaviy kriminologiyaning eng dolzarb va murakkab tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ijtimoiy-huquqiy hodisa faqatgina muayyan shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar yig‘indisi emas, balki o‘smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va psixologik ziddiyatlarning kompleks natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o‘rganish faqat huquqiy tahlil bilan cheklanmasdan, kriminologiya, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va viktimologiya kabi sohalarning integratsiyalashgan yondashuvini talab etadi.

Tahlillar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning aksariyati oldindan shakllangan jinoiy maqsad emas, balki nosog‘lom ijtimoiy muhit, tengdoshlar ta’siri, oilaviy muammolar, tarbiyadagi kamchiliklar, shaxsiy barqarorlikning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda tashqi salbiy ta’sirlar natijasida sodir etilishini ko‘rsatadi. Shuning uchun mazkur turdagi jinoyatchilikni o‘rganishda, jinoyatning huquqiy kvalifikatsiyasi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ham chuqur tahlil qilinishi lozim.

Uzoq yillar davomida mahalliy va xorijiy kriminolog olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari va determinantlarini turli yondashuvlar asosida izohlab kelmoqdalar. Ayrim tadqiqotchilar ushbu turdagi jinoyatchilikning asosiy sabablari sifatida o‘smirning yashash, ta’lim olish va mehnat faoliyati davomida uchraydigan salbiy ijtimoiy ta’sirlarni, ta’lim muassasasini tark etish holatlarini, ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo‘lmaslikni, kattalar tomonidan sodir etiladigan huquqqa xilof xatti-harakatlarning namuna sifatida qabul qilinishini hamda ommaviy axborot vositalari va raqamli muhit orqali tarqatiladigan zo‘ravonlik, odob-axloq qoidalariga zid, huquqqa nisbatan hurmatsizlik g‘oyalarining ta’sirini ko‘rsatadilar. Shu bilan birga, bolaning nazoratsiz qolishi, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligining pastligi, madaniy dam olish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda profilaktika subyektlari faoliyatidagi tashkiliy kamchiliklar ham muhim kriminogen omillar sifatida baholanadi.

Jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarini ilmiy jihatdan izohlashga qaratilgan yuqoridagi yondashuvlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko‘p omilli hamda murakkab ijtimoiy-huquqiy

hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu omillarning mazmuni, o‘zaro ta’siri va jinoiy xulqning shakllanish mexanizmini chuqurroq anglash uchun kriminologiya fanida ishlab chiqilgan nazariy konsepsiyalarga murojaat qilish zarur. Chunki har bir kriminologik nazariya voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining muayyan jihatini yoritib, uning kelib chiqish sabablari, rivojlanish qonuniyatlari hamda profilaktika mexanizmlarini turlicha talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur nazariyalarni tahlil qilish voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning determinantlarini to‘laqonli baholash, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda samarali profilaktika chora-tadbirini ilmiy asoslashda muhim nazariy manba hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-huquqiy mohiyati, kelib chiqish sabablari va determinantlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, shuningdek ushbu sohada shakllangan xorijiy va milliy kriminologik nazariyalarni qiyosiy o‘rganish orqali voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Maqolada mazkur masalaning nazariy asoslari yoritilib, xorijiy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi hamda tadqiqot natijalari asosida profilaktika tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Shu o‘rinda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining shakllanishiga doir nazariy yondashuvlarga to‘xtalamiz. Zero, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari va uning ijtimoiy tabiatini tushuntirishga qaratilgan ilmiy qarashlar kriminologiya fani rivojlanishining turli bosqichlarida shakllangan. Mazkur nazariyalar jinoyatchilikni turlicha omillar bilan izohlasada, ularning barchasi voyaga yetmagan shaxs xulqining shakllanishida tashqi ijtimoiy muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini e’tirof etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur nazariyalarni tahlil qilish voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablarini har tomonlama baholash hamda profilaktika choralarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym jinoyatchilikni jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida baholaydi. Uning fikricha, jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlar zaiflashgan yoki qadriyatlar tizimi izdan chiqqan sharoitda anomiya holati yuzaga keladi. Ana shunday muhitda shaxslar, ayniqsa, ruhiy va ijtimoiy jihatdan to‘liq shakllanmagan o‘smirlarning deviant xulq-atvorga moyilligi kuchayadi [6]. Dyurkgeym nazariyasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini faqat shaxsiy nuqsonlar bilan emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlik va qadriyatlar inqirozi bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarurligini asoslab beradi.

Amerikalik olim Robert Merton esa jinoyatchilikni “strukturaviy zo‘riqish” (strain theory) orqali tushuntiradi. Uning ta’kidlashicha, jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlarga qonuniy yo‘llar orqali erishish imkoniyatlari o‘rtasida nomunosiblik yuzaga kelganda shaxsda ichki ziddiyat paydo bo‘ladi [7]. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘smirlarda mazkur ziddiyat noqonuniy xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi. Bu esa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik va imkoniyatlar cheklanganligi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Albert Koen o‘zining submadaniyat nazariyasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining asosiy sabablaridan biri sifatida tengdoshlar guruhi ta’sirini ko‘rsatadi. Olimning fikricha, ijtimoiy e’tirofga erisha olmagan yoki o‘zini jamiyatda namoyon qilish imkoniyati cheklangan o‘smirlar noformal guruhlarga birlashadi va ushbu guruhlarda qabul qilingan qoidalarni o‘zlashtiradi. Natijada guruh manfaatlari qonun talablaridan ustun qo‘yilib, jinoiy xulq shakllanishi uchun qulay muhit yuzaga keladi [8].

Bu nazariya zamonaviy sharoitda yoshlar guruhlari, Internet hamjamiyatlari hamda yopiq ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan salbiy submadaniyatlarning ta’sirini baholashda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nemis sotsiologi Ulrix Bek tomonidan ilgari surilgan “tavakkalchilik jamiyati” konsepsiyasi ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tushunishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji, axborot oqimining keskin ortishi hamda an’anaviy ijtimoiy institutlarning ta’siri susayishi natijasida yangi turdagi ijtimoiy xavflar paydo bo‘lmoqda [14]. Bunday sharoitda o‘smirlar kibermakon orqali jinoiy g‘oyalar, zo‘ravonlik madaniyati va destruktiv

axborot ta’siriga tezroq tushib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shu jihatdan mazkur nazariya raqamli muhitda voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirishning nazariy asoslaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan nazariyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning har biri voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining muayyan jihatlarini izohlab beradi. Biroq zamonaviy sharoitda ushbu ijtimoiy-huquqiy hodisani bitta nazariya doirasida to‘liq tushuntirish imkoni mavjud emas. Shu bois voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabab va shart-sharoitlarini baholashda ijtimoiy, psixologik, pedagogik va huquqiy omillarni kompleks tarzda tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini ilmiy jihatdan tushuntirishda XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ishlab chiqilgan kriminologik nazariyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyalar jinoyatchilikning kelib chiqishini shaxsning biologik xususiyatlari bilan emas, balki uning ijtimoiy muhiti, tarbiyasi, muloqot doirasi hamda ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro munosabatlari orqali izohlaydi. Shu jihatdan ular zamonaviy profilaktika tizimining nazariy asosini tashkil etadi.

Amerikalik kriminolog Edvin Sazerlend tomonidan ishlab chiqilgan differensial assotsiatsiyalar nazariyasiga ko‘ra, jinoiy xulq tug‘ma emas, balki u muloqot jarayonida shakllanadi. Olimning ta’kidlashicha, shaxs qonunga itoat qilish yoki huquqbuzarlik sodir etishga oid qarashlarni va ko‘nikmalarni o‘zi muloqot qilayotgan ijtimoiy muhitdan o‘zlashtiradi [9]. Shu nuqtayi nazaridan, nosog‘lom tengdoshlar muhiti, jinoyat sodir etgan shaxslar bilan doimiy muloqot ustunligi voyaga yetmaganlarda huquqqa zid xulq shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur nazariyaning ahamiyati shundaki, u voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda faqat huquqiy ta’sir choralari yetarli emasligini, balki o‘smirning muloqot muhitini sog‘lomlashtirish, uni ijtimoiy foydali jamoalarga jalb etish va oila hamda ta’lim muassasalarining tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish zarurligini asoslab beradi.

Trevis Xirshi tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy nazorat nazariyasiga ko‘ra, insonning jinoyat sodir etmasligiga asosiy sabab tashqi jazodan qo‘rqishi emas, balki uning jamiyat bilan mavjud ijtimoiy bog‘liqliklaridir. Olim oila, maktab, mahalla, mehnat jamoasi va boshqa ijtimoiy institutlar bilan mustahkam aloqalarga ega bo‘lgan o‘smirlarda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli ancha past bo‘lishini ta’kidlaydi [10].

Bu nazariya voyaga yetmaganlar profilaktikasi nuqtayi nazaridan muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki profilaktika choralari o‘smirni jazolashga emas, balki uning oila, ta’lim muassasasi, mahalla va jamoatchilik bilan ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashga qaratilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Ronald Eykers Sazerlend nazariyasini rivojlantirib, ijtimoiy o‘rganish nazariyasini shakllantirgan. Uning fikricha, jinoiy xulq nafaqat kuzatish va muloqot orqali, balki rag‘batlantirish, taqlid qilish va mukofotlash mexanizmlari orqali ham shakllanadi. Agar huquqqa zid xatti-harakat ijobiy baholansa yoki ma’lum manfaat keltirsa, o‘smir uni takrorlashga moyil bo‘ladi [11].

Zamonaviy raqamli makonda mazkur nazariyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar, destruktiv Internet guruhlari hamda kiberjinoyatchilikka oid ma’lumotlar o‘smirlarda huquqqa zid xulqni o‘rganish mexanizmini tezlashtirishi mumkin. Shu bois profilaktika jarayonida raqamli muhit xavflarini inobatga olish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik olim Uriye Bronfenbrenner inson rivojlanishining ekologik tizimlar nazariyasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, bolaning shaxsiy rivojlanishi bir vaqtning o‘zida oila, ta’lim muassasasi, mahalla, ommaviy axborot vositalari, davlat siyosati hamda keng ijtimoiy muhit ta’siri ostida kechadi. Shu sababli o‘smirning jinoiy xulqi birgina omil ta’sirida emas, balki turli ijtimoiy tizimlardagi muammolarning yig‘indisi sifatida shakllanadi [12].

Ushbu yondashuv profilaktika faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifasi emasligini, balki davlat organlari, ta’lim muassasalari, mahalla, ota-onalar va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshirilishi lozimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Avstraliyalik olim Jon Breytueytning reintegrativ uyaltirish nazariyasi ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasida muhim ahamiyatga ega. Olimning fikricha, huquqbuzarlik sodir etgan o‘smirni jamiyatdan chetlatish emas, balki qilmishini qoralagan holda uni jamoaga qayta moslashtirish maqsadga muvofiq [13]. Bu yondashuv o‘smir shaxsini emas, uning xatti-harakatini qoralashga asoslanadi.

Mazkur nazariya adliya, mediatsiya va probatsiya institutlarining rivojlanishi uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, birinchi marta jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qayta ijtimoiylashtirish choralarini qo‘llash retsidiv jinoyatchilikning oldini olishda samarali mexanizm sifatida baholanadi.

Yuqorida tahlil qilingan nazariyalar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko‘p omilli ijtimoiy-huquqiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Uni faqat huquqiy ta’sir choralari orqali bartaraf etish mumkin emas. Samarali profilaktika ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, oila institutini mustahkamlash, ta’lim tizimi imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli muhit xavflarini kamaytirish hamda o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbir tizimiga asoslanishi lozim.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o‘rganishga bag‘ishlangan qator fundamental va amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqotlarda o‘smirlar jinoyatchiligining sabablari, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, profilaktika mexanizmlari hamda davlat va jamiyat institutlarining o‘zaro hamkorligi masalalari atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy munosabatlar, raqamli texnologiyalar rivoji hamda globallashuv jarayonlari ushbu sohadagi ilmiy qarashlarni yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Professor Z.S. Zaripov o‘z tadqiqotlarida jinoyatchilik profilaktikasini huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklab bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, huquqbuzarliklarning oldini olish avvalo ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga bog‘liq [3].

Mazkur yondashuv voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘smirning shaxsi bir vaqtning o‘zida oila, ta’lim muassasasi, mahalla va tengdoshlar muhiti ta’sirida shakllanadi. Demak, profilaktika choralari ham kompleks xususiyat kasb etishi lozim.

Professor M.X. Rustambayev jinoyatchilikning huquqiy tabiatini tahlil qilar ekan, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan jinoiy-huquqiy choralarning asosiy maqsadi jazolash emas, balki ularni qayta tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish ekanligini ta’kidlaydi [2]. Olimning ushbu qarashi xalqaro huquqning bola manfaatlari ustuvorligi tamoyiliga ham to‘liq mos keladi.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘smirga nisbatan qo‘llaniladigan har qanday huquqiy ta’sir chorasi uning kelajakda ijtimoiy hayotga qaytishiga xizmat qilishi lozim. Aks holda jazo profilaktika vazifasini emas, balki, aksincha, retsidiv xavfini kuchaytiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Amaliyotchi olim Sh.T. Ikramov profilaktika subyektlarining o‘zaro hamkorligiga alohida e’tibor qaratib, huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat organlari bilan bir qatorda ta’lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari, oila va keng jamoatchilik ishtirokining ahamiyatini ta’kidlaydi [5].

Ushbu fikr bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki tahlillar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning aksariyati profilaktika subyektlari o‘rtasidagi axborot almashinuvi va hamkorlikning yetarli darajada tashkil etilmaganligi bilan ham bog‘liq.

Yuridik fanlar doktori S.Abdullayeva o‘z tadqiqotlarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida gender omillarining ahamiyatini alohida o‘rgangan. Olimaning ta’kidlashicha, o‘g‘il bolalar va qizlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar nafaqat miqdor jihatdan, balki ularning motivlari, ijtimoiy omillari va psixologik xususiyatlari bilan ham farq qiladi [4]. Shu sababli profilaktika choralarini ishlab chiqishda gender yondashuvini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur ilmiy yondashuv zamonaviy kriminologiyada tobora keng qo‘llanilmoqda. Chunki o‘g‘il bolalarda agressiv va zo‘ravonlikka moyil xatti-harakatlar ko‘proq uchrasa, qizlarda oilaviy muhit, psixologik bosim, ijtimoiy himoyaning yetishmasligi kabi omillar huquqbuzarlik sodir etish

TAHLIL, TADQIQOT VA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

ehtimoliga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Demak, profilaktika tadbirlari ham ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda differensial tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan xorijiy va milliy olimlarning qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kelib chiqishini yagona omil bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Anomiya, strukturaviy zo‘riqish, submadaniyat, differensial assotsiatsiyalar, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy o‘rganish, ekologik tizimlar va reintegrativ uyaltirish kabi xorijiy nazariyalar, shuningdek, milliy olimlarning tadqiqotlari ushbu hodisaning alohida jihatlarini ochib bersada, ularning har biri muayyan masalani yoritish bilan cheklanadi va zamonaviy raqamli muhit ta’sirini kompleks tarzda qamrab ola olmaydi. Shu bois voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, huquqiy va raqamli muhit omillarining o‘zaro bog‘liq ta’siri natijasida yuzaga keladigan ko‘p omilli ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida baholanishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, fikrimizcha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o‘rganishda integrativ kriminologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv jinoyatchilikni faqat huquqiy nuqtayi nazardan emas, balki kriminologiya, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, viktimologiya va raqamli xavfsizlik sohalari bilan o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda Internet tarmog‘i, ijtimoiy tarmoqlar, virtual guruhlar va sun’iy intellekt texnologiyalari o‘smirlar hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganini inobatga olib, profilaktika tizimi an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, raqamli muhitdagi kriminogen xavflarni aniqlash va o‘smirlarda axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishni ham qamrab olishi, bunda huquqiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy va axborot xavfsizligi mexanizmlari o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi lozim.

Shuningdek, profilaktika samaradorligini oshirishning asosiy sharti huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin ta’sir choralarini qo‘llash emas, balki jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy omillarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish hisoblanadi. Demak, profilaktikaning asosiy vazifasi o‘smirni javobgarlikka tortish emas, balki uning jinoiy xulqi shakllanishiga sabab bo‘ladigan ijtimoiy muhitini o‘z vaqtida sog‘lomlashtirishdan iborat bo‘lib, bu esa zamonaviy kriminologiyaning profilaktikaga yo‘naltirilgan konsepsiyasiga to‘liq mos keladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan milliy kriminologik monitoring tizimini takomillashtirish.

2. Oila, ta’lim muassasasi, mahalla, probatsiya xizmati va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida elektron axborot almashinuvi mexanizmlarini yanada rivojlantirish.

3. Raqamli muhitdagi kriminogen xavflarni baholash hamda Internet orqali tarqatiladigan destruktiv axborotlarning o‘smirlar ongiga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish.

4. Gender xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘g‘il bolalar va qizlar uchun differensial profilaktika dasturlarini joriy etish.

5. Ilk bor huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan restorativ adliya, mediatsiya va ijtimoiy reabilitatsiya mexanizmlarini keng qo‘llash.

6. Voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi profilaktika subyektlari uchun kriminologiya, bolalar psixologiyasi, mediatsiya va kiberxavfsizlik sohalari bo‘yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish.



Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning korrupsiyaviy va iqtisodiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, komplaens nazoratini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi ma’ruzasidan // Prezidentning rasmiy veb-sayti. – 2025-yil 12-dekabr.
2. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – 560 b.
3. Zarifov Z. S. Kriminologiya. Darslik. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2020. – 340 b.
4. Abdullayeva S. O‘smirlar jinoyatchiligida gender omillarining kriminologik xususiyatlari. – Toshkent, 2021. – 180 b.
5. Ikramov Sh.T. Huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: TDYUU, 2020. – 220 b.
6. Durkheim E. The Division of Labor in Society. – New York: Free Press, 1997. – 392 p.
7. Merton R.K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – 702 p.
8. Cohen A.K. Delinquent Boys: The Culture of the Gang. – New York: Free Press, 1955. – 202 p.
9. Sutherland E.H., Cressey D.R. Principles of Criminology. – Philadelphia: Lippincott, 1978. – 654 p.
10. Hirschi T. Causes of Delinquency. – Berkeley: University of California Press, 1969. – 309 p.
11. Akers R.L. Social Learning and Social Structure: A General Theory of Crime and Deviance. – Boston: Northeastern University Press, 1998. – 420 p.
12. Braithwaite J. Crime, Shame and Reintegration. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 236 p.
13. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 352 p.
14. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. — London: SAGE Publications, 1992. – P. 91–110.



ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING QONUNIY HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



TURAYEV
Murodxon Ayubxonovich
Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti, dotsent

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari kompleks ravishda tadqiq etiladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy maqomi tushunchasi, uning tarkibiy elementlari, mehnat va ijtimoiy huquqlari, xizmat xavfsizligi, psixologik himoya, intizomiy javobgarlik, xizmat tekshiruvi, noqonuniy topshiriqlardan himoyalanish hamda buzilgan huquqlarni tiklash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xizmat faoliyatining o'ziga xosligi, yuqori mas'uliyat, jismoniy va psixologik zo'riqish, xizmat intizomining qat'iyligi hamda ayrim hollarda hayot va sog'liq uchun xavf mavjudligi xodimlarning huquqiy himoyasiga alohida yondashuvni talab qilishi asoslanadi. Xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlar asosida mualliflik pozitsiyasi shakllantirilib, amaldagi tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ichki ishlar organlari, xodim, huquqiy maqom, huquqiy himoya, ijtimoiy himoya, xizmat intizomi, xizmat tekshiruvi, mehnat huquqlari, xizmat xavfsizligi, davlat xizmati, qonuniy manfaat.*

Аннотация. *В статье всесторонне изучены правовые механизмы защиты законных прав и интересов работников органов внутренних дел Республики Узбекистан. Проанализированы концепция правового статуса работников органов внутренних дел, ее структурные элементы, трудовые и социальные права, безопасность труда, психологическая защита, дисциплинарная ответственность, служебный надзор, защита от незаконных назначений и механизмы восстановления нарушенных прав. Одновременно утверждается, что специфика служебной деятельности, высокая ответственность, физический и психологический стресс, строгость служебной дисциплины, а в некоторых случаях наличие угрозы жизни и здоровью требуют особого подхода к правовой защите работников. На основе зарубежных и отечественных научных взглядов сформулирована позиция автора и разработаны научно-практические предложения по совершенствованию существующей системы.*
Ключевые слова: *органы внутренних дел, работник, правовой статус, правовая защита, социальная защита, служебная дисциплина, служебный надзор, трудовые права, безопасность труда, государственная служба, законный интерес.*

Abstract. *The article comprehensively studies the legal mechanisms for protecting the legitimate rights and interests of employees of the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan. The concept of the legal status of employees of the internal affairs bodies, its structural elements, labor and social rights, service safety, psychological protection, disciplinary liability, service inspection, protection from illegal assignments and mechanisms for restoring violated rights are analyzed. At the same time, it is argued that the specificity of service activities, high responsibility, physical and psychological stress, strictness of service discipline, and in some cases the presence of a threat to life and health require a special approach to the legal protection of employees. Based on foreign and domestic scientific views, the author's position is formulated and scientific and practical proposals are developed to improve the current system.*
Keywords: *internal affairs bodies, employee, legal status, legal protection, social protection, service discipline, service inspection, labor rights, service safety, public service, legitimate interest.*

Huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri inson huquq va erkinliklarining nafaqat e’tirof etilishi, balki ularning amalda samarali himoya qilinishidir. Bunday himoyani ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari alohida o‘rin egallaydi. Xususan, ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi [1].

Ichki ishlar organlari xodimining xizmat faoliyati boshqa ko‘plab kasblardan o‘zining yuqori mas’uliyati va xavfliligi bilan ajralib turadi. Xodim jinoyat sodir etilgan joyga birinchi bo‘lib yetib borishi, huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxsni ushlashi, jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishi, jamoat tartibini saqlashi kerak, qolaversa, qurollangan yoki tajovuzkor shaxslar bilan to‘qnashishi mumkin [2].

Demak, davlat xodimdan fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni talab qilar ekan, xodimning ham huquq va qonuniy manfaatlari samarali kafolatlanishi lozim [3].

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy himoyasi faqat xodim manfaatlarini ta’minlash masalasi emas. U bevosita huquqni muhofaza qiluvchi tizimning samaradorligi, xodimlarning xizmatga munosabati, qonuniylikka rioya qilishi va fuqarolar bilan munosabatlarning sifatiga ham ta’sir ko‘rsatadi [4]. Shu sababli “xodimning huquqlarini himoya qilish” va “xodimning xizmat intizomini ta’minlash” masalalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni yagona tizim sifatida ko‘rish zarur.

Ichki ishlar organlari xodimining huquqiy maqomi uning davlat xizmati doirasidagi huquq va majburiyatlari, qonuniy cheklovlari, xizmat kafolatlari hamda javobgarligi majmuini anglatadi.

Huquqshunoslikda “huquqiy maqom” tushunchasi shaxsning jamiyat va davlat bilan huquqiy munosabatlaridagi o‘rnini belgilovchi asosiy yuridik kategoriyalardan biri sifatida qaraladi.

Mazkur masala ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga ega. Chunki xodim bir vaqtning o‘zida: fuqaro; davlat xizmatchisi; huquqni muhofaza qiluvchi organ vakili; maxsus vakolatlarga ega mansabdor shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

S.P. Matveyevning ilmiy tadqiqotlarida ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy maqomi alohida huquqiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqilib, “huquqiy maqom” va “huquqiy holat” tushunchalarining o‘zaro nisbati hamda xodimning huquqiy maqomini normativ tartibga solish masalalariga e’tibor qaratiladi [6].

A.V. Olshevskaya esa ichki ishlar organlari xodimining ma’muriy-huquqiy maqomini huquq va majburiyatlar, xizmatdagi cheklov va taqiqlar, xizmat kafolatlari hamda yuridik javobgarlik bilan bog‘liq kompleks tizim sifatida tahlil qiladi [7].

Mazkur ilmiy qarashlardan kelib chiqib, bizningcha, ichki ishlar organlari xodimining huquqiy maqomini faqat huquq va majburiyatlar bilan cheklab qo‘yish noto‘g‘ri. Fikrimizcha, ichki ishlar organlari xodimining huquqiy maqomi kamida besh elementdan iborat bo‘lishi kerak:

- huquq va majburiyatlar;
- xizmatdagi huquqiy cheklovlar;
- ijtimoiy va huquqiy kafolatlar;
- huquqlarni amalga oshirish mexanizmlari;
- huquq buzilganda himoyalanish va tiklanish mexanizmlari.

Ayniqsa, oxirgi ikki element ko‘pincha nazariy jihatdan yetarli darajada ajratib ko‘rsatilmaydi. Chunki shaxsga huquq berishning o‘zi yetarli emas. Ushbu huquqni amalga oshirish va buzilgan taqdirda uni tiklash mexanizmi mavjud bo‘lmasa, huquq faqat deklarativ xarakterda qolishi mumkin. Ichki ishlar organlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyati xodim zimmasiga katta miqdorda majburiyat yuklanishidir.

Xodimning asosiy vazifasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini va xavfsizligini himoya qilishdan iborat. Biroq xizmat majburiyatlarining kengligi, mas’uliyati xodimning huquqlarini ikkinchi darajali masalaga aylantirmasligi kerak. Aksincha, huquq va majburiyatlar o‘rtasida mutanosiblik mavjud bo‘lishi lozim.

Xodim zimmasiga yuklatilgan har bir qo‘shimcha majburiyat tegishli tashkiliy, moddiy, texnik va ijtimoiy kafolatlar bilan ta’minlanishi zarur. Masalan, xodimdan tun-u kun xizmat qilish talab etilsa, bu uning dam olish huquqiga ta’sir qiladi.

Bunday holatda qo‘shimcha xizmat yuklamasining kompensatsiyasi va dam olish mexanizmlari aniq belgilanishi kerak.

Xuddi shuningdek, xodimdan yuqori xavfli vaziyatlarda xizmat qilish talab qilinsa, davlat uning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish uchun zarur vositalar bilan ta’minlashi lozim. Demak, *“majburiyat – vakolat – kafolat” uchligi* ichki ishlar organlaridagi xizmatning asosiy huquqiy formulasiga aylanishi maqsadga muvofiq.

Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy himoyasi ijtimoiy himoya bilan bevosita bog‘liq. Ijtimoiy himoya xodimning mehnatiga haq to‘lash, sog‘lig‘ini saqlash, sug‘urta, pensiya, dam olish, uy-joy, xizmat vaqtida yetkazilgan zararni qoplash va boshqa kafolatlarni o‘z ichiga oladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi O‘zbekistonda ham ilmiy tadqiqotlar predmetiga aylangan. Xususan, L. Radjapovaning maqolasida ichki ishlar organlari xodimlari, ayniqsa, ayol xodimalarning ijtimoiy himoyasiga oid huquqiy asoslar, muammolar va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tahlil qilingan [8].

Mazkur tadqiqotning ahamiyatli jihati shundaki, unda xodimlarning ijtimoiy himoyasi umumiy kategoriya sifatida emas, balki xodimlarning turli guruhlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘rganilishi lozimligi ko‘rsatiladi.

Bizningcha, xodimlarning ijtimoiy himoyasini uch darajada ko‘rish mumkin:

Birinchi daraja – umumiy ijtimoiy kafolatlar. Bular barcha xodimlarga tegishli bo‘lgan mehnat va ijtimoiy huquqlar.

Ikkinchi daraja – maxsus xizmat kafolatlari. Bular ichki ishlar organlari xizmatining xavfli va alohida xususiyatidan kelib chiqadigan kafolatlar.

Uchinchi daraja – kompensatsion (tovon) kafolatlar. Ular xizmat faoliyati sababli xodim yoki uning oila a’zolariga yetkazilgan zarar yoki yuzaga kelgan alohida ijtimoiy oqibatlarni qoplashga qaratiladi. Shu jihatdan ijtimoiy himoya faqat “imtiyoz” sifatida emas, balki davlat xizmatining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan *huquqiy kafolat* sifatida tushunilishi lozim.

Ichki ishlar organlarida xodimlarning xizmat yuklamasi masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Xodim xizmat vaqtida sodir bo‘layotgan hodisalarga tezkor munosabat bildirishi kerak. Ayrim hollarda xizmat vaqtining oldindan aniq chegaralanishi ham qiyin. Biroq xizmatning o‘ziga xosligi dam olish huquqining amalda cheklanishiga olib kelmasligi kerak [9].

Haddan tashqari xizmat yuklamasi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- xodimning jismoniy charchashi;
- psixologik zo‘riqish;
- xizmat samaradorligining pasayishi;
- qaror qabul qilish sifatining yomonlashuvi;
- oilaviy muammolarning ko‘payishi;
- kasbiy kuyish sindromining kuchayishi [10].

Shu sababli xizmat yuklamasini baholashning obyektiv mezonlarini ishlab chiqish zarur. Bizningcha, xodimning xizmat yuklamasini baholashda faqat xizmatda bo‘lgan soatlar emas, balki: navbatchiliklar soni; tungi xizmat; chaqiruvlar soni; xizmat hududining kriminogen holati; xavfli operatsiyalarda ishtirok; ommaviy tadbirlarda xizmat; xizmatdan tashqari vaqtda chaqirilish holatlari ham hisobga olinishi lozim.

• Ichki ishlar organlari xodimining huquqiy himoyasi faqat yuridik vositalar bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy yondashuvda xodimning psixologik xavfsizligi ham xizmat huquqlarining tarkibiy elementi sifatida ko‘rilishi lozim. Ichki ishlar organlari xodimi muntazam ravishda zo‘ravonlik, jinoyat, o‘lim, oilaviy nizolar va boshqa stressli vaziyatlar bilan to‘qnashadi. Shu sababli psixologik xizmat:

- profilaktik maslahat;
- individual psixologik monitoring;
- stressni boshqarish;
- og‘ir hodisalardan keyingi reabilitatsiya;
- kasbiy kuyishning oldini olish;
- oilaviy muammolar bo‘yicha maslahat yo‘nalishlarini qamrab olishi kerak [11].

Bunda eng muhim masala – *maxfiylik.* Xodim psixologga murojaat qilgani uning xizmat faoliyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin degan xavotirda bo‘lsa, bunday xizmatdan foydalanish samaradorligi pasayadi. Shuning uchun psixologik xizmatga murojaat qilgan xodimni asossiz ravishda “muammoli xodim” sifatida baholashga yo‘l qo‘ymaslik huquqiy kafolat sifatida mustahkamlanishi maqsadga muvofiq [12].

Ichki ishlar organlarida xizmat intizomi tizim faoliyatining asosiy shartlaridan biridir. Ammo “intizom” tushunchasini faqat xodimning rahbarga bo‘ysunishi bilan bog‘lash noto‘g‘ri.

Huquqiy davlat sharoitida xizmat intizomi, avvalo, *qonuniylikka asoslangan intizom* bo‘lishi kerak. Bu quyidagilarni anglatadi:

- xodim qonun talablariga rioya qiladi;
- rahbar qonun doirasida topshiriq beradi;
- topshiriq qonuniy va tushunarli bo‘lishi kerak;
- intizomiy jazo asoslangan bo‘lishi lozim;
- xodim o‘zini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ayniqsa, intizomiy javobgarlik masalasida *mutanosiblik prinsipi* katta ahamiyatga ega. Har qanday qoidabuzarlik uchun og‘ir jazo choralaridan foydalanish xodim huquqlarini buzishi mumkin.

Shuning uchun intizomiy jazo tayinlashda qoidabuzarlikning xususiyati, xodimning aybi, oqibatlarning og‘irligi, avvalgi xizmat faoliyati va boshqa holatlar kompleks baholanishi lozim.

Xizmat tekshiruvi xodim huquqlarini himoya qilish tizimining eng muhim elementlaridan biridir. Bizningcha, xizmat tekshiruvining mohiyatini faqat “xodimning aybini aniqlash” bilan izohlash ilmiy jihatdan bir tomonlama yondashuvdir. Xizmat tekshiruvi ikki nuqtayi nazardan o‘tkazilishi kerak:

birinchidan, xodimning huquqbuzarligi yoki xizmat intizomini buzganligini aniqlash;

ikkinchidan, xodimning aybi yo‘qligini yoki unga qo‘yilgan da’volarning asossizligini aniqlash.

Shu sababli xizmat tekshiruvining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: xolislik; qonuniylik; to‘liqlik; aybsizlik prezumpsiyasiga hurmat; mutanosiblik; manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

Agar xizmat tekshiruvini o‘tkazuvchi shaxs tekshirilayotgan xodim bilan oldindan xizmat yoki boshqa nizoli munosabatda bo‘lsa, xolislikka shubha paydo bo‘lishi mumkin.

Shu bois manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va bunday holatda boshqa mansabdor shaxsni tayinlash maqsadga muvofiq.

Huquqiy himoya mexanizmining samaradorligi faqat qonunchilikka bog‘liq emas. Xodim o‘z huquqlarini bilmasa, mavjud kafolatlardan foydalanishi qiyinlashadi. Shu sababli xodimlar uchun muntazam ravishda:

- huquqiy seminarlar;
- xizmat huquqi bo‘yicha treninglar;
- intizomiy javobgarlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar;
- xizmat tekshiruvlarida xodimning huquqlari bo‘yicha tushuntirishlar;
- mehnat va ijtimoiy huquqlar bo‘yicha maslahatlar o‘tkazilib turishi maqsadga muvofiq.

Bu borada huquqiy targ‘ibot va xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish masalasi ilmiy adabiyotlarda ham muhim yo‘nalish sifatida qayd etiladi.

Xodimlarning huquqlarini himoya qilishning amaldagi ***muammolari.*** Yuqoridagi tahlillar asosida ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy himoyasi sohasida quyidagi muammolarni ajratish mumkin:

birinchisi, xizmat yuklamasini obyektiv o‘lchashning yagona mezonlariga ehtiyojning mavjudligi;

ikkinchisi, ayrim xizmat jarayonlarida ortiqcha hujjatbozlik va hisobotlar xodimning asosiy vazifalarini bajarishiga salbiy ta’sir qilishi;

uchinchisi, psixologik himoyaning profilaktik mexanizmlarini kuchaytirish zarurati;

to‘rtinchisi, xizmat tekshiruvlarining xolisligi va shaffofligini kuchaytirish masalasi;

beshinchisi, xodimlarning ijtimoiy himoyasi bo‘yicha mavjud kafolatlarning amalda to‘liq va o‘z vaqtida bajarilmasligi;

oltinchisi, xodimning o‘z rahbari yoki boshqa mansabdor shaxsning noqonuniy harakatlari ustidan murojaat qilishi uchun mustaqil va ishonchli mexanizmlarning zaifligi.

Mazkur maqola doirasida xodimlarining huquqiy himoyasini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ***takliflar*** ilgari suriladi.

1. “Xodim huquqiy himoyasining samaradorlik indeksi”ni joriy qilish. Ichki ishlar organlarida xodimlarning huquqiy himoyasi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida muntazam baholanadigan tizim joriy etilishi taklif etiladi: xizmat yuklamasi; dam olish huquqining ta’minlanishi; ijtimoiy kafolatlardan foydalanish; xizmat tekshiruvlarining natijalari; intizomiy jazolarning bekor qilinishi; xodimlarning murojaatlari; psixologik yordamdan foydalanish; xizmat xavfsizligi.

2. Xizmat tekshiruvlarida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish. Tekshiruvni o‘tkazuvchi mansabdor shaxs tekshirilayotgan xodimning bevosita rahbari yoki shaxsiy manfaatdorligi mavjud bo‘lgan shaxs bo‘lsa, tekshiruvni boshqa man-

TAHLIL, TADQIQOT VA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

sabdor shaxsga o‘tkazish mexanizmini kuchaytirish taklif etiladi.

3. Noqonuniy topshiriqdan xabar berishning maxsus mexanizmini yaratish. Xodim noqonuniy topshiriq haqida maxsus elektron platforma yoki ishonch kanali orqali xabar berish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunda murojaat qilgan xodimning shaxsi va murojaat mazmunini himoya qilish kafolatlari ta’minlanishi zarur.

4. Psixologik yordamning maxfiyligini kuchaytirish. Psixologik yordamga murojaat qilganlik faktining o‘zi xodimning xizmat faoliyatiga salbiy baho berish uchun asos bo‘lmasligi kerak.

5. Xodimning huquqlari bo‘yicha “Huquqiy navigator” tizimini yaratish. Har bir xodim elektron shaklda quyidagi savollarga javob topa olishi kerak:

- Mening qanday huquqlarim bor?
- Menga qanday intizomiy jazo berilishi mumkin?
- Xizmat tekshiruvida qanday huquqlarim bor?
- Noqonuniy topshiriq bo‘lsa nima qilishim kerak?
- Xizmatda sog‘lig‘imga zarar yetganda qanday kafolatlar mavjud?
- Qayerga murojaat qilishim mumkin?

Bunday tizim huquqiy savodxonlikni oshirish bilan birga, xodim va rahbariyat o‘rtasida huquqiy munosabatni ham ta’minlaydi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy himoyasi masalasida asosiy ilmiy muammo huquq va xizmat intizomi o‘rtasidagi muvozanatni aniqlashdan iborat.

Bir tomondan, ichki ishlar organlari qat’iy intizom va bo‘ysunuvga asoslangan tizim bo‘lib, uning samarali faoliyati tezkor boshqaruvni talab qiladi. Ikkinchi tomondan, qat’iy bo‘ysunuv xodimning fundamental huquqlarini cheklashning universal vositasiga aylanmasligi kerak.

Shu sababli, bizningcha, zamonaviy ichki ishlar organlari tizimida *“qattiq intizom” emas, “qonuniy intizom”*ga ustuvor ahamiyat berish zarur.

Qonuniy intizom quyidagilarni anglatadi: ***qonun → vakolat → topshiriq → javobgarlik → huquqiy himoya.*** Bunda rahbar ham, xodim ham qonun doirasida harakat qiladi.

Ichki ishlar organlari xodimining huquqlarini himoya qilish tizimi qanchalik kuchli bo‘lsa, xodimning qonuniy faoliyat yuritish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish zamonaviy huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir.

Ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish kabi mas’uliyatli vazifalarni bajaradi. Shu sababli davlat xodimning o‘z huquqlarini ham samarali himoya qilish uchun zarur huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy kafolatlarni yaratishi kerak.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlardan tashqari, xizmatdagi cheklovlar, kafolatlar va javobgarlikni ham qamrab oluvchi murakkab huquqiy institut hisoblanadi.

Mazkur maqolada asoslanganidek, xodimning huquqiy himoyasini faqat mavjud huquqlarni sanab o‘tish orqali emas, balki ularni amalga oshirish va buzilgan huquqlarni tiklash mexanizmlari bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarur.

Tadqiqot natijasida quyidagi ***xulosalarga*** kelindi:

1. Ichki ishlar organlari xodimining huquqiy maqomi huquq va majburiyatlar, cheklovlar, kafolatlar, javobgarlik va huquqni himoya qilish mexanizmlarining yaxlit tizimidan iborat.
2. Xodimning xizmat majburiyatlari kengaygan sari unga mos ravishda huquqiy va ijtimoiy kafolatlar ham kuchaytirilishi kerak.
3. Xizmat yuklamasi va dam olish huquqi masalalarini obyektiv mezonlar asosida baholash zarur.
4. Xodimlarning psixologik himoyasini kuchaytirish zamonaviy huquqiy himoya tizimining ajralmas qismiga aylanishi kerak.
5. Xizmat tekshiruvlarida xolislik, obyektivlik va mutanosiblik prinsiplarini kuchaytirish zarur.
6. Xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus doimiy o‘quv tizimi joriy qilinishi maqsadga muvofiq.
7. Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy himoyasini baholovchi alohida samaradorlik indikatorlarini joriy qilish tizimdagi mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi.

Umuman olganda, *xodim huquqlarining himoyasi ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligining zarur shartidir.* Huquqlari kafolatlangan, ijtimoiy jihatdan himoyalangan va qonuniy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega xodim fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada samarali himoya qiladi.

Shu sababli xodimlarining huquqiy himoyasi masalasiga “xodimga berilgan imtiyoz” sifatida emas, balki qonuniylikni, xizmat samaradorligini va inson huquqlarini ta’minlashning institutsional kafolati sifatida yondashish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, yangi tahrirda. – T., 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son qonuni. – T., 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T., 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son qonuni. – T., 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga oid farmon va qarorlari.
6. Матвеев С.П. Ички ишлар органлари ходимларининг ҳуқуқий мақомига оид илмий тадқиқотлар.
7. Ольшевская А.В. К вопросу об административно-правовом статусе сотрудника органов внутренних дел // Вестник экономической безопасности. 2022. №5. Б.155–158. DOI: 10.24412/2414-3995-2022-5-155-158.
8. Раджапова Л.Н. Ички ишлар органлари аёл ходималарининг ижтимоий ҳимоясига оид айрим фикрлар // Янги Ўзбекистон илмий тадқиқотлар журнали, 2024.
9. Ненароков С.В. Развитие правового статуса сотрудника полиции: история и современность // Вестник Казанского юридического института МВД России. – 2017. – №2(28). – С.42–46.
Shunday qilib, 2021–2025-yillardagi islohotlarni shartli ravishda quyidagi zanjirda ifodalash mumkin: “jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” → “mahallaning birinchi bo‘g‘in sifatidagi roli” → “har bir mahallada barvaqt profilaktika” → “ijtimoiy profilaktikaning yagona hamkorlik mexanizmi”. 2026-yilda ushbu jarayonning mantiqiy davomi sifatida profilaktik faoliyatni yanada manzilli, raqamli va natijaga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish masalasi kun tartibiga chiqmoqda [5; 7].

Mahalla profilaktikaning eng quyi emas, eng muhim strategik bo‘g‘ini. Mahalla jinoyatchiligini kriminologik tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bir xil turdagi jinoyat turli mahallalarda turlicha sabab va shart-sharoitlarda sodir bo‘lishi mumkin. Shuning uchun “mahallada jinoyat sodir bo‘ldi” degan umumiy fakt profilaktik qaror uchun yetarli emas. Qaror qabul qiluvchi subyekt jinoyat qayerda, qachon, kim tomonidan, kimga nisbatan, qanday muhitda va qanday imkoniyatlardan foydalangan holda sodir etilganini bilishi lozim.

Masalan, «Katta Chilonzor-3» mahallasida 2024-yilda 48 ta jinoyat qayd etilgan bo‘lib, shundan 42 tasi oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar sifatida baholangan. Ushbu 42 jinoyatni

sodir etgan 44 nafar shaxsning faqat 4 nafari mazkur mahalla aholisi, qolganlari esa boshqa mahallalar, Toshkent shahrining boshqa tumanlari va respublikaning boshqa hududlaridan kelgan shaxslar bo‘lgan [4]. Bu ma’lumot profilaktikada “mahalla aholisi” va “mahalla hududi” tushunchalarini farqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, mahalla kriminologik tahlilda bir vaqtning o‘zida uch xil obyekt sifatida qaralishi kerak: *birinchidan,* doimiy aholi yashaydigan ijtimoiy muhit; *ikkinchidan,* tashqi migratsiya va tranzit harakatlar ta’siridagi hudud; *uchinchidan,* jinoyat sodir etish imkoniyatlari shakllanadigan fizik muhit. Bunday yondashuv profilaktik choralarning haqiqiy manzilini belgilash imkonini beradi.

Tadqiqotlarimizda mahalla kriminogen muhitiga ta’sir qiluvchi omillar demografik-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, ma’naviy-ruhiy va viktimologik guruhlarga ajratilgan [4]. Bu tasnif yangi modelning amaliy diagnostika qismi uchun muhim metodik asosdir. Chunki bugungi kunda har bir guruhga mos profilaktik subyekt va ta’sir vositalari shakllangan: ishsizlik va kambag‘allikka – iqtisodiy-ijtimoiy, yoshlar muammosiga – yoshlarni foydali va mazmunli faoliyatga jalb etish, oilaviy nizolarga – ijtimoiy va xotin-qizlar himoyasini ta’minlash, muhit xavflariga – texnik profilaktika va obodonlashtirish, jabrlanish xavfiga – viktimologik profilaktika choralari yo‘naltiriladi.

Manzilli ishlash – yangi modelning asosiy texnologiyasi. Manzilli profilaktika umumiy profilaktik tadbirlarni muayyan shaxs, oila, xonadon, ko‘cha, obyekt yoki ijtimoiy guruhning aniq muammosiga moslashtirishni anglatadi. Bizning avvalgi tadqiqotlarimizda ham har bir shaxs ijtimoiy profilaktika obyekti sifatida qaralib, unga nisbatan manzilli va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi asoslangan [4].

Manzilli ishlashning mohiyatini “hammaga bir xil ta’sir”dan “muammoga mos ta’sir”ga o‘tish sifatida ifodalash mumkin. Masalan, ishsiz yoshga umumiy huquqiy targ‘ibot o‘tkazishning o‘zi yetarli emas; uning ishsizlik sababi, kasbiy qobiliyati, oilaviy sharoiti va bo‘sh vaqti o‘rganilib, kasbga yo‘naltirish bandlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari bilan bog‘lanishi kerak. Xuddi shunday, velosiped o‘g‘irligi ko‘paygan ko‘p qavatli uyda faqat aholini ogohlantirish emas, kirish yo‘laklarini yoritish, eshiklarning ishlash holatini tekshirish, kamera o‘rnatish, saqlash joyini tashkil etish va aholiga xavfsizlik qoidalarini tushuntirish talab etiladi.

Avvalgi tadqiqotlarda aniqlangan amaliy holat buni yaqqol ko‘rsatadi: bir marta sodir etilgan velosiped o‘g‘irligi keyinchalik mahalla va qo‘shni mahallalarda shunga o‘xshash 12 ta o‘g‘irlikka aylangan. Bu holatda dastlabki jinoyat profilaktik axborotga aylantirilmagani, sabab va sharoitlar muhokama qilinmagani va muhitdagi imkoniyatlar bartaraf etilmagani takroriy jinoyatlar uchun sharoit yaratgan [4].

Shuning uchun manzilli ishlash algoritmi quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi maqsadga muvofiq: 1) xavfni aniqlash; 2) xavf obyektlarini toifalash; 3) sabab va shart-sharoitlarni diagnostika qilish; 4) mas’ul subyektni belgilash; 5) aniq choralarni belgilash; 6) ijroni muddatlash; 7) natijani qayta baholash. Bu jarayonda har bir choraning “kim – nima – qachon – qayerda – qaysi ko‘rsatkich bilan” degan savollarga javobi bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy profilaktika va idoraviy hamkorlikning yagona profilaktik zanjiri. Ijtimoiy profilaktikaning afzalligi shundaki, u huquqbuzarlikning ko‘plab sabablari huquqiy ta’sir vositalaridan tashqarida joylashganini tan oladi. Ishsizlik, oiladagi moddiy yetishmovchilik, ta’limdan uzilish, yoshlarning bo‘sh vaqti, alkogolizm, ijtimoiy yolg‘izlik, muhitning nazoratsizligi kabi omillar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ularni bitta organning imkoniyatlari doirasida bartaraf etish qiyin [4].

Shu nuqtayi nazardan “mahalla yettiligi” a’zolarining har biri profilaktik zanjirning alohida zvenosi sifatida qaralishi kerak. Profilaktika inspektori huquqiy va kriminologik xavfni baholaydi; hokim yordamchisi iqtisodiy muammo va bandlik masalalarini hal etishga ko‘maklashadi; yoshlar yetakchisi yoshlar bilan manzilli ishlaydi; xotin-qizlar faoli oilaviy va genderga oid xavflar bilan ishlaydi; ijtimoiy xodim og‘ir ijtimoiy holatdagi shaxslarga xizmat ko‘rsatadi; soliq inspektori iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq masalalarda ishtirok etadi; mahalla raisi esa mazkur resurslarni muvofiqlashtiruvchi lokal boshqaruv subyekti vazifasini bajaradi [6].

Bunda idoraviy hamkorlikning mohiyati yig‘ilish o‘tkazish yoki ma’lumot almashish bilan

cheklanmasligi kerak. Hamkorlikning haqiqiy natijasi bitta aniq muammoning birgalikda hal etilishi bilan o‘lchanishi lozim. Masalan, “nizoli oila” bo‘yicha profilaktika inspektori huquqiy xavfni baholaydi, ijtimoiy xodim oilaning ijtimoiy ehtiyojini aniqlaydi, xotin-qizlar faoli jabrlanish xavfini baholaydi, mahalla raisi va boshqa subyektlar esa zarur xizmat va resurslarni biriktiradi. Shunda hamkorlik “axborot almashish”dan “yagona profilaktik harakat”ga aylanadi.

Tadqiqotlarda aniqlangan tashkiliy-boshqaruv muammolari – profilaktika inspektorlarining boshqa vazifalarga jalb etilishi, “mahalla yettiligi”ning ayrim a’zolari hududdan tashqarida yashashi, profilaktik hisobdagi shaxslar bilan ishlashning yetarli emasligi – hamkorlikning institutsional mavjudligi uning amaliy samaradorligini avtomatik ravishda ta’minlamasligini ko‘rsatadi [4]. Shu bois yangi modelda vakolatdan tashqari “shaxsiy mas’uliyat”, “hududiy biriktirilganlik” va “natija uchun javobgarlik” tamoyillari kuchaytirilishi zarur.

Kriminologik diagnostika va boshqaruv qarorining ilmiy asosi. Adabiyotlarda ta’kidlanganidek, profilaktika samaradorligining muhim sharti – ishonchli va doimiy yangilanadigan axborot. “Mahalla yettiligi” o‘z vakolatlarini samarali amalga oshirishi uchun hududning demografik tarkibi, transport harakati, dam olish va ko‘ngilochar obyektlar, profilaktik hisobdagi shaxslar, aholini qiynayotgan muammolar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, ularning texnik himoyasi va boshqa ma’lumotlar haqida doimiy axborotga ega bo‘lishi hamda ularni kriminologik nuqtayi nazardan tahlil qilishi kerak.

Bunda jinoyat statistikasini mexanik ravishda sanashdan ko‘ra, uning tuzilishi va sodir etilish jarayonini tahlil qilish talab etiladi. Masalan, jinoyatning oldini olish mumkin yoki mumkin emasligi, sodir etilgan joyi, vaqti, jabrlanuvchining o‘ziga xos tomonlari, jinoyatchi shaxsining hududga aloqadorligi, jinoyatga imkon bergan muhit va takrorlanish ehtimoli kabi ko‘rsatkichlar profilaktik qaror uchun muhimdir [4].

Bu yondashuvni “kriminologik diagnostika” tushunchasi bilan ifodalash mumkin. Kriminologik diagnostika – muayyan hududdagi jinoyatchilikning holati, dinamikasi, tuzilishi, sabablari, sharoitlari, xavf obyektlari va profilaktik resurslarni tizimli o‘rganish orqali boshqaruv qarori uchun zarur axborotni shakllantirish jarayoni.

Shu nuqtayi nazardan profilaktik qarorning ilmiy modeli quyidagicha ifodalanadi: “ma’lumot → tahlil → xavf prognozi → qaror → ijro → monitoring → korreksiya”. Agar tahlil bosqichi zaif bo‘lsa, keyingi bosqichlardagi qarorlar ham umumiy xarakterda qoladi. Shuning uchun 2024-yilda jamoat xavfsizligi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasini ilmiy tadqiq qilishni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilgani ushbu modelning ilmiy institutsional bazasini mustahkamlaydi.

Videokuzatuv: texnik vosita emas, profilaktik boshqaruv texnologiyasi. Tadqiqotlar natijasida asoslangan yondashuvga ko‘ra, videokuzatuv tizimi mahallada xavfsiz muhitni yaratishning mustaqil maqsadi emas. U kriminogen tahlil, vaziyatli profilaktika, tezkor javob va jinoyatlarni hujjatlashtirish imkoniyatlarini birlashtiruvchi texnologiyadir [5]. R. Klarkning vaziyatli jinoyat profilaktikasi konsepsiyasida ham jinoyat sodir etish imkoniyatlarini kamaytirish va xavfini oshirish, jinoiy harakatning amalga oshishini qiyinlashtirish muhim profilaktik vositalar sifatida qaraladi [8].

Shu bois kameralarni “ko‘proq o‘rnatish”ning o‘zi emas, “to‘g‘ri joyga o‘rnatish” prinsipi ustuvor bo‘lishi kerak. Kameralarni o‘rnatishdan oldin kamida 3–5 yillik jinoyatlar, ularni sodir etgan shaxslar, sabab va sharoitlar, odamlar gavjum joylar, migratsion oqim faol hududlar va nazoratsiz joylarni o‘rganish zarur. Bu talab videokuzatuvni kriminologik diagnostika bilan bevosita bog‘laydi.

Shuningdek, kameralarni mahallaga kirish-chiqish nuqtalari, ko‘p qavatli uylar hovlilari va kirish yo‘laklari, maktab va bog‘chalar, bozor va savdo nuqtalari, avtoturargohlar hamda ovloq joylarga joylashtirish, ularni situatsion markazlar va mahalla huquq-tartibot maskanlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiq [5]. Bu yerda texnologiya profilaktika qarorining “ko‘zi” vazifasini bajaradi.

Xorijiy tadqiqotlarda CCTV tizimlarining jinoyatchilikka ta’siri turlicha baholansa-da, videokuzatuv ayrim jamoat joylarida, ayniqsa, avtoturargohlar va mulkka qarshi jinoyatlar yuqori bo‘lgan hududlarda samara berishi ko‘rsatilgan [9–11]. Biroq xorijiy tajribadan chiqariladigan asosiy xulosa kameralar soni emas, ularning kriminologik asosda joylashtirilishi, markazlashgan monitoringga integratsiya qilinishi, texnik xizmat va axborot xavfsizligining ta’minlanishidir [5].

O‘zbekiston sharoitida ham videokuzatuv tizimlarining tarqoq o‘rnatilishi, yagona tizimga integratsiya qilinmagani, texnik xizmat mas’uliyatining noaniqligi kabi muammolar mavjudligi tadqiqotda qayd etilgan [5]. Demak, yangi modelda videokuzatuvning uch bosqichi – “kriminologik asoslash → texnik integratsiya → profilaktik foydalanish” – yagona boshqaruv sikliga birlashtirilishi kerak.

Geolokatsion xarita va “xavf nuqtalari” bilan ishlash. Kriminologik tahlil va videokuzatuv texnologiyalarini birlashtirishning eng istiqbolli shakli – mahalla ijtimoiy-kriminogen vaziyatining geolokatsion xaritasini ishlab chiqish. Tadqiqotlarda bunday xarita infratuzilmaviy, texnik va kuch-vositalar taqsimoti haqidagi ma’lumotlarni birlashtirib, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslangan chora-tadbirlarga aylantirishga xizmat qilishi asoslangan [5].

Geolokatsion xarita faqat jinoyat sodir bo‘lgan nuqtalarni emas, balki “xavf nuqtalari”ni ham aks ettirishi kerak. Masalan, qorong‘i yo‘lak, nazoratsiz avtoturargoh, kamerasiz kirish yo‘lagi, yoshlar to‘planadigan nazoratsiz joy, alkogolizm tarqalgan muhit, takroriy nizolar kuzatiladigan xonadon yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxs yashaydigan hudud profilaktik kartada alohida belgilab borilishi mumkin.

Bu yondashuv “jinoyat xaritasi”dan “xavf xaritasi”ga o‘tishni anglatadi. Agar jinoyat xaritasi o‘tmishdagi holatni aks ettirsa, xavf xaritasi kelajakda jinoyat sodir bo‘lishi ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli uning asosiy funksiyasi hisobot emas, profilaktik resurslarni qayerga va qanday taqsimlash bo‘yicha qaror qabul qilishdir.

“Obod va xavfsiz mahalla” – ijtimoiy va situatsion profilaktikaning uyg‘un modeli. “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilini faqat obodonlashtirish konsepsiyasi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Obod muhit – xavfsiz muhitning fizik asoslaridan biri. Yoritilmagan ko‘cha, tashlandiq bino, nazoratsiz yerto‘la, tartibga solinmagan savdo nuqtalari, ochiq kirish yo‘laklari va qarovsiz hududlar jinoyat sodir etish imkoniyatlarini oshirishi mumkin [5].

Shu bilan birga, obodlik ijtimoiy mazmunga ham ega. Ishsizlik, kambag‘allik, yoshlarning nazoratsizligi, oilaviy nizolar, ijtimoiy yolg‘izlik va boshqa muammolar bartaraf etilmasa, faqat fizik infratuzilmani yaxshilash barqaror xavfsizlikni ta’minlamaydi. Demak, “obod” va “xavfsiz” tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi ikki profilaktik blok sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrdagi 754-son qarori bilan tasdiqlangan “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini mahalla raisi va “mahalla yettiligi” a’zolari, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshirish tartibi belgilangani ushbu integrativ yondashuvni normativ jihatdan mustahkamlaydi [6].

2025–2026-yillar natijalari: profilaktikadan natijadorlikka o‘tish. Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish tizimi joriy etilishi natijasida mamlakatdagi mahallalar kriminogen vaziyatdan kelib chiqib “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratildi. Tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 9 008 ta mahallaning 4 034 tasi (44,8 foizi) “yashil”, 4 311 tasi (47,9 foizi) “sariq” va 663 tasi (7,4 foizi) “qizil” toifaga kiritilgan [5]. Bu tizim profilaktik resurslarni hududlar kesimida differensiatsiya qilish imkonini beradi.

Biroq, toifalashning o‘zi natija emas. “Qizil” mahallaning “sariq” yoki “yashil” toifaga o‘tishi, takroriy jinoyatlar kamayishi, xavfli muhitlarning bartaraf etilishi va aholining xavfsizlik hissining oshishi natijaviy mezonlar bo‘lishi kerak. Shu ma’noda profilaktika samaradorligini “qancha tadbir o‘tkazildi?” degan savoldan “qancha xavf bartaraf etildi?” degan savolga ko‘chirish maqsadga muvofiq.

2026-yilda profilaktika tizimini yanada manzilli va ilmiy asosda tashkil etish, mahallalarda og‘ir kriminogen vaziyatni bartaraf etish, raqamlashtirish va geolokatsion yondashuvlarni kuchaytirishga

JINOYATCHILIK PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

qaratilgan choralar ushbu tendensiyaning davomidir [7]. Shu bilan birga, 2026-yilda Toshkent shahri misolida og‘ir kriminogen mahallalar sonining qisqarishi va jinoyat sodir etilmagan yoki jinoyatchilik keskin kamaygan mahallalar ulushining oshishi kabi natijalar qayd etilgani profilaktik modelni natija nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo‘nalishlari. Tadqiqotlar natijalari tahlili profilaktika tizimida normativ asoslar va institutsional tuzilmalar shakllangan bo‘lsa-da, ularni amaliy natijaga aylantirishda bir qator muammolar saqlanayotganini ko‘rsatadi. Birinchisi – “mahalla yettiligi” a’zolarining vazifalarini bilishi va ularni kriminologik nuqtayi nazardan qo‘llash darajasi. Ikkinchisi – profilaktika inspektorlarining asosiy profilaktik vazifalaridan boshqa ishlarga jalb qilinishi. Uchinchisi – ayrim xodimlarning hudud bilan yetarlicha bog‘lanmaganligi. To‘rtinchisi – profilaktik hisobdagi va ilgari sudlangan shaxslar bilan ishning tizimli emasligi. Beshinchisi – videokuzatuv va boshqa texnik vositalarning tarqoqligi va integratsiya muammolari [4; 5].

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, *birinchidan,* “mahalla yettiligi” faoliyatida “hududiy biriktirilganlik” prinsipini kuchaytirish lozim. Xodimning mahallada doimiy ishlashi uning aholi bilan ishonchli munosabatini, xavflarni tez aniqlashini va shaxslar hamda oilalar haqida kontekstual bilimga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, profilaktika inspektori ish vaqtining asosiy qismi profilaktikaga yo‘naltirilishi kerak. Ma’muriy va boshqa protsessual ishlar profilaktik vazifani siqib chiqarmasligi lozim.

Uchinchidan, “mahalla” yettiligi uchun kriminologik diagnostika, ijtimoiy profilaktika, viktimologik profilaktika, raqamli ma’lumotlardan foydalanish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo‘yicha amaliy o‘quvlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, videokuzatuv tizimlarini moliyalashtirish, texnik xizmat ko‘rsatish va ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha aniq mas’uliyatni belgilash zarur.

Beshinchidan, har bir “qizil” va “sariq” mahalla uchun ijtimoiy-kriminogen geolokatsion xarita va choraklik “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi, unda har bir xavf nuqtasi bo‘yicha mas’ul subyekt, chora, muddat va natija ko‘rsatkichi belgilanishi kerak.

Yangi modelning taklif etilayotgan yaxlit algoritmi. Yuqoridagi tahlillar asosida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning Yangi O‘zbekiston modeli quyidagi o‘zaro bog‘liq bosqichlardan iborat bo‘lishi taklif etiladi:

1. Kriminologik diagnostika – mahallaning jinoyatchilik holati, dinamikasi, tuzilishi, demografiyasi, infrastrukturasi va ijtimoiy muammolarini tizimli o‘rganish.

2. Xavfni baholash – jinoyat sodir bo‘lgan nuqtalar bilan birga, jinoyat sodir bo‘lishiga sharoit yaratayotgan shaxslar, oilalar, obyektlar va joylarni aniqlash.

3. Manzilli profilaktik pasport – har bir xavf obyekti bo‘yicha muammo, sabab, mas’ul subyekt, chora va muddatni belgilash.

4. Ijtimoiy va situatsion profilaktikani birlashtirish – ijtimoiy muammoni bartaraf etish bilan bir vaqtda jinoyat sodir etish imkoniyatini cheklash.

5. Idoraviy hamkorlik – “mahalla yettiligi” va boshqa davlat organlarining bitta muammoni hal etishga qaratilgan yagona profilaktik harakatini tashkil etish.

6. Raqamli monitoring – videokuzatuv, elektron statistika va geolokatsion ma’lumotlarni profilaktik qarorlarga integratsiya qilish.

7. Natijadorlikni baholash – o‘tkazilgan tadbirlar sonini emas, bartaraf etilgan xavflar, kamaygan takroriy huquqbuzarliklar va yaxshilangan xavfsiz muhitni o‘lchash.

8. Qayta diagnostika – choralar natijasini baholab, profilaktik rejani yangilash.

Huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning Yangi O‘zbekiston modeli normativ-huquqiy hujjatlarning alohida-alohida ijrosi emas, balki jamoat xavfsizligi, mahalla instituti, ijtimoiy profilaktika, kriminologik tahlil, manzilli ishlash va raqamli texnologiyalarning yagona tizimga birlashish jarayonidir. 2021-yilda qabul qilingan Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi ushbu tizimning strategik poydevorini belgilagan bo‘lsa, keyingi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar: mahallaning birinchi bo‘g‘in sifatidagi institutsional rolini kuchaytirdi; har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni aniq boshqaruv vazifasiga aylantirdi; ijtimoiy profilaktikada “mahalla yettiligi” va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikning amaliy tartibini belgilab berdi.

Tadqiqot natijalarini uyg‘unlashtirishdan kelib chiqadigan asosiy ilmiy xulosa shundan iboratki, kriminologik tahlilsiz manzilli profilaktika, manzilli profilaktikasiz esa idoraviy hamkorlikning natijador modeli shakllanmaydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning yangi modelini “Xavfni aniqlash → sababni bartaraf etish → manzilli hamkorlik → xavfsiz muhit yaratish → natijani o‘lchash” formulasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda mahalla huquqbuzarlik profilaktikasining eng quyi bo‘g‘ini emas, inson, oila, ijtimoiy muhit va davlat resurslarini bir nuqtada birlashtiruvchi strategik lokal markaz sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi modelning yakuniy mezoni “qancha tadbir o‘tkazildi?” emas, balki “qancha xavf barvaqt aniqlandi va bartaraf etildi?”, “qancha jinoyatning oldi olindi?”, “qaysi mahalla xavfsiz muhitga aylandi?” va “aholining xavfsizlik hissi qanchalik oshdi?” degan savollarga beriladigan javob bo‘lishi lozim. Ana shunda profilaktika faoliyati hisobotdan natijaga, umumiy choradan manzilli ta’sirga, idoraviy parallellikdan yagona profilaktik zanjirga aylanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–27-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–209-son farmoni. https://lex.uz/docs/6705763
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son qarori. https://lex.uz/docs/7330260
4. Ismailov I., Ziyodullayev M.Z. Mahallalar jinoyatchiligining kriminologik tahlili va barvaqt oldini olish choralari. – T., 2025. – 18 b. (Mualliflar taqdim etgan maqola).
5. Ismailov I. Yangi O‘zbekiston mahallalarida videokuzatuv tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish. – T., 2026. – 8 b. (Muallif taqdim etgan maqola).
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrdagi 754-son qarori // “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom. https://lex.uz/Pages/GetPdf.aspx?file=LexUz_8090356.pdf
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–21-son farmoni. https://lex.uz/docs/8050769
8. Clarke R.V. Situational Crime Prevention. – New York, 2012.
9. Welsh B., Farrington D. Effects of CCTV on Crime. – Cambridge University Press, 2009.
10. Welsh B., Farrington D. CCTV and Crime Prevention. – Cambridge University Press.
11. Piza E. CCTV Surveillance and Crime Prevention Research. – New York, 2019.
12. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–407-son qonuni. https://lex.uz/docs/3027843
13. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–647-son qonuni. https://lex.uz/uz/docs/5128310
14. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–371-son qonuni. https://www.lex.uz/acts/2387357
15. Ismailov I. Kriminologiya va jinoyatchilik: Yangi O‘zbekiston huquqbuzarliklar profilaktika milliy tizimi // Jahon kriminologiyasining ilg‘or tajribalari: I xalqaro forum materiallari to‘plami. – T., 2024 yil 29–30-oktyabr. – B. 66–75.
16. Ziyodullayev M.Z. Militsiya tayanch punktlari negizida ichki ishlar idoralarining jamoatchilik bilan hamkorligi: tahlil, yutuq va muammolar. // O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari axborotnomasi. – 2011. – №3. – B. 57–61.
17. Ziyodullayev M.Z. Militsiya tayanch punktlari negizidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va boshqarish: takomillashtirish yo‘nalishlari. // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2013. – №2. – B. 48–52.
18. Profilaktika inspektorining ma’muriy hududda jamoat xavfsizligini ta minlashdagi hamkorligi: O‘quv-metodik qo‘llanma / R.A. Xatamov, M.Z. Ziyodullayev va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 72 b.
19. Ichki ishlar organlaridagi islohotlar – tinchlik va osoyishtalik garovi: Monografiya / I.Ismailov, M.Z.Ziyodullayev va boshq. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B.20.

JINOYATCHILIK PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

ОТ ЭЛЕКТРОННОГО К ЦИФРОВОМУ ПРАВИТЕЛЬСТВУ: ЭВОЛЮЦИЯ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ И ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ



РАСУЛЕВ
Абдулазиз Каримович
Институт законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Аннотация. *В статье исследуются основные этапы становления и развития электронного правительства в Республике Узбекистан и современный переход к модели цифрового правительства. На основе анализа законодательства и институциональных преобразований предложена авторская периодизация развития данной сферы, включающая четыре этапа: формирование правовых и инфраструктурных основ информатизации; развитие электронного взаимодействия и интерактивных государственных услуг; институциональное становление электронного правительства; переход к цифровому и платформенному государственному управлению. Раскрываются концептуальные различия между электронным и цифровым правительством. Обосновывается, что современный этап цифровой трансформации характеризуется переходом от оцифровки отдельных государственных услуг к изменению архитектуры публичного управления, основанному на интеграции государственных данных, межведомственном взаимодействии, проактивных услугах и автоматизации административных процедур. Особое внимание уделяется формированию Единой интегрированной цифровой платформы, правовым последствиям применения алгоритмических систем и искусственного интеллекта в государственном управлении. Сформулированы предложения по модернизации законодательства о цифровом правительстве, закреплению правовых гарантий при автоматизированном принятии административных решений и переходу от количественной к качественной оценке результатов цифровой трансформации.*
Ключевые слова: *электронное правительство, цифровое правительство, цифровое государство, государственное управление, цифровая трансформация, государственные услуги, государственные данные, цифровая платформа, автоматизированное административное решение, искусственный интеллект, алгоритмическая прозрачность.*

Abstract. *The article examines the principal stages in the formation and development of e-government in the Republic of Uzbekistan and the current transition towards a digital government model. Based on an analysis of legislation and institutional reforms, the article proposes an original four-stage periodization encompassing the establishment of the legal and infrastructural foundations of informatization; the development of electronic interaction and interactive public services; the institutional consolidation of e-government; and the transition to digital and platform-based public administration. The conceptual distinction between e-government and digital government is examined. It is argued that the current stage of digital transformation is characterized by a shift from the digitization of individual public services towards the redesign of the architecture of public administration based on government data integration, inter-agency interoperability, proactive services and automated administrative procedures. Particular attention is paid to the development of the Unified Integrated Digital Platform and to the legal implications of using algorithmic systems and artificial intelligence in public administration. The article formulates proposals for modernizing digital government legislation, establishing legal safeguards for automated administrative decision-making, and shifting from predominantly quantitative indicators towards qualitative assessment of digital transformation outcomes.*
Keywords: *e-government, digital government, digital state, public administration, digital transformation, public services, government data, digital platform, automated administrative decision-making, artificial intelligence, algorithmic transparency.*

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasida elektron hukumatning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari hamda raqamli hukumat modeliga zamonaviy o'tish jarayoni tadqiq etilgan. Qonunchilik va institutsional islohotlar tahlili asosida mazkur soha rivojlanishining to'rt bosqichdan iborat mualliflik davrlashtirilishi taklif etilgan: axborotlashtirishning huquqiy va infratuzilmaviy asoslarini shakllantirish; elektron hamkorlik va interaktiv davlat xizmatlarini rivojlantirish; elektron hukumatning institutsional shakllanishi; raqamli va platformaviy davlat boshqaruviga o'tish. Elektron va raqamli hukumat o'rtasidagi konseptual farqlar ochib berilgan. Raqamli transformatsiyaning zamonaviy bosqichi alohida davlat xizmatlarini raqamlashtirishdan davlat ma'lumotlari integratsiyasi, idoralararo hamkorlik, proaktiv xizmatlar va ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirishga asoslangan davlat boshqaruvi arxitekturasini o'zgartirishga o'tish bilan tavsiflanishi asoslab berilgan. Yagona integratsiyalashgan raqamli platformani shakllantirish, algoritmik tizimlar va sun'iy intellektni davlat boshqaruvida qo'llashning huquqiy oqibatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Raqamli hukumat to'g'risidagi qonunchilikni modernizatsiya qilish, avtomatlashtirilgan ma'muriy qarorlarni qabul qilishda huquqiy kafolatlarni mustahkamlash hamda raqamli transformatsiya natijalarini miqdoriy baholashdan sifat jihatidan baholashga o'tish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *elektron hukumat, raqamli hukumat, raqamli davlat, davlat boshqaruvi, raqamli transformatsiya, davlat xizmatlari, davlat ma'lumotlari, raqamli platforma, avtomatlashtirilgan ma'muriy qaror, sun'iy intellekt, algoritmik shaffoflik.*

В условиях современного правового государства эффективность государственного управления определяется не только объемом предоставленных государственным органам полномочий, но прежде всего качеством их реализации. Существенное значение приобретает характер взаимодействия государства с гражданами: насколько оно является доступным, удобным, прозрачным, надежным и ориентированным на реализацию прав и законных интересов человека.

Одним из важнейших инструментов изменения данной модели взаимодействия стало электронное правительство. За сравнительно короткий исторический период оно трансформировалось из преимущественно технологического механизма информатизации государственного аппарата в институциональную систему взаимодействия государства, граждан и организаций.

На современном этапе происходит дальнейшая трансформация – переход от электронного к цифровому правительству. Различие между ними заключается не только в технологическом уровне используемых информационных систем. Электронное правительство главным образом обеспечивает возможность осуществления существующих административных процедур в электронной форме. Цифровое правительство предполагает изменение самой логики государственного управления: повторное использование имеющихся у государства данных, автоматизированный межведомственный обмен информацией, предоставление проактивных услуг, интеграцию государственных цифровых платформ и использование данных при принятии управленческих решений.

Международные подходы также демонстрируют переход от оценки простой доступности электронных услуг к анализу зрелости цифрового государства. Индекс развития электронного правительства ООН (United Nations E-Government Development Index – EGDI) оценивает развитие онлайн-услуг, телекоммуникационной инфраструктуры и человеческого капитала [1].

В свою очередь, разработанный ОЭСР Digital Government Index используется для оценки зрелости цифровой трансформации государственного сектора и таких ее характеристик, как digital by design, data-driven public sector и government as a platform [2].

Для Республики Узбекистан данный процесс имеет особое значение. Современная система электронных государственных услуг является результатом последовательного развития нормативно-правовой, институциональной и технологической основы государственного управления на протяжении всего периода независимости.

Цель настоящего исследования состоит в выявлении основных закономерностей правовой эволюции электронного правительства в Узбекистане и определении содержания современного перехода к цифровой модели государственного управления.

Методологическую основу исследования составили формально-юридический, историко-правовой, системно-структурный и сравнительно - аналитический методы. На основе анализа законодательства, стратегических документов и международных инструментов оценки цифрового правительства предлагается выделить четыре этапа развития соответствующей системы.

Научная новизна исследования заключается в рассмотрении развития электронного правительства не как линейного процесса увеличения числа информационных систем и электронных услуг, а как последовательной трансформации правовой модели публичного управления: от информатизации государственных органов – к юридически значимому электронному взаимодействию, далее – к институционализированному электронному правительству и, наконец, к платформенной и основанной на данных модели цифрового государства.

1. Формирование правовых и инфраструктурных основ информатизации. Первый этап охватывает **1991–2003** годы и характеризуется формированием базовых правовых и инфраструктурных предпосылок последующего развития электронного правительства.

После обретения государственной независимости перед Узбекистаном стояла задача формирования собственной системы законодательства, регулирующей информационные отношения, телекоммуникационную инфраструктуру и государственные информационные ресурсы. Понятие «электронное правительство» на данном этапе еще не использовалось в качестве самостоятельной правовой категории. Вместе с тем создавались правовые институты, без которых последующий переход к электронному государственному управлению был бы невозможен.

Конституция Республики Узбекистан 1992 г. закрепила ряд исходных принципов, впоследствии получивших существенное значение для электронной формы взаимодействия государства и граждан: осуществление государственной власти в интересах народа, свободу поиска, получения и распространения информации, а также обязанность государственных органов и должностных лиц обеспечивать возможность ознакомления граждан с документами и решениями, затрагивающими их права и интересы [3]. Тем самым еще до формирования специального законодательства об электронном правительстве были заложены конституционные предпосылки открытости государства и доступности публичной информации.

Одним из первых специальных нормативных актов в данной сфере стал Закон Республики Узбекистан «Об информатизации» от 7 мая 1993 года [4]. Его принятие означало признание информации, информационных ресурсов и информационных процессов самостоятельной сферой правового регулирования.

Следующим значимым этапом стало принятие Закона Республики Узбекистан «О телекоммуникациях» в 1999 году, определившего правовые основы функционирования телекоммуникационных сетей и оказания соответствующих услуг.

Существенный импульс дальнейшему развитию информационно-коммуникационной инфраструктуры придал Указ Президента Республики Узбекистан от 30 мая 2002 года № УП-3080 «О дальнейшем развитии компьютеризации и внедрении информационно-коммуникационных технологий» [5]. Документ предусматривал развитие телекоммуникационной инфраструктуры, совершенствование государственной политики в сфере информационных технологий, подготовку кадров и расширение применения компьютерных технологий государственными органами.

Важным результатом первого этапа стало принятие 11 декабря 2003 года новой редакции Закона Республики Узбекистан № 560-II «Об информатизации» и Закона № 562-II «Об электронной цифровой подписи» [6].

Правовое признание электронной цифровой подписи имело принципиальное значение для последующего развития электронного взаимодействия, поскольку создало юридическую основу для идентификации участников электронных отношений, подтверждения волеизъявления и обеспечения целостности электронных документов.

Таким образом, в течение первого этапа был сформирован своего рода правовой «язык» будущего электронного правительства: законодательство закрепило категории информации, информационных ресурсов, информационных систем, телекоммуникаций и электронной цифровой подписи.

Однако цифровизация в этот период носила преимущественно инфраструктурный характер. Информационные технологии рассматривались главным образом как инструмент технической модернизации деятельности государственных органов, а не как средство трансформации административных процедур.

Следовательно, к концу 2003 года была создана правовая возможность электронного взаимодействия, однако целостная модель электронного государственного управления еще не сформировалась.

2. Формирование электронного взаимодействия и интерактивных государственных услуг. Второй этап охватывает **2004–2012** годы и характеризуется переходом от общего законодательства об информатизации к регулированию конкретных юридически значимых действий в электронной среде, а затем – к созданию электронных государственных услуг.

Ключевое значение имело принятие Закона Республики Узбекистан от 29 апреля 2004 года № 611-II «Об электронном документообороте», закрепившего юридическую категорию электронного документа, а также Закона № 613-II «Об электронной коммерции». В 2005 году нормативное регулирование было дополнено Законом Республики Узбекистан от 16 декабря 2005 года № ЗРУ-13 «Об электронных платежах» [7].

Значение этих актов выходило за пределы предпринимательской деятельности. Для перевода государственной услуги в электронный формат было необходимо обеспечить юридическую значимость всех основных элементов административной процедуры – заявления, документа, подписи и, при необходимости, платежа.

Именно формирование такого правового режима создало основу дистанционного взаимодействия граждан и организаций с государством.

Начиная с 2007 года государственная политика постепенно смещалась от регулирования отдельных электронных операций к системному предоставлению интерактивных государственных услуг.

Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан №181 от 23 августа 2007 г. были определены организационные основы оказания интерактивных государственных услуг с применением информационно коммуникационных технологий [8].

В этот период формировались официальные веб-сайты государственных органов, электронные формы обращений, информационные сервисы и механизмы опубликования информации о деятельности государственных органов. Вместе с тем модель оставалась преимущественно ведомственной. Государственные органы создавали собственные информационные ресурсы, а электронные сервисы еще не составляли единого интегрированного пространства.

Системное значение поэтому приобрело постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 378 от 30 декабря 2012 г., предусматривающего создание Единого портала интерактивных государственных услуг [9].

Создание единой точки доступа означало постепенный отход от фрагментированной ведомственной модели электронного взаимодействия. Таким образом, второй этап можно определить как период функционального формирования электронного правительства. Государство уже создало инструменты юридически значимого электронного взаимодействия и цифровые каналы получения государственных услуг, однако электронное правительство еще не было закреплено в законодательстве как самостоятельная институциональная система публичного управления.

3. Институционализация электронного правительства. Третий этап охватывает **2013–2019** годы. Его основным содержанием стало превращение отдельных электронных сервисов в институционализированную систему электронного правительства.

Запуск Единого портала интерактивных государственных услуг – my.gov.uz – сфор-

мировал централизованный канал доступа граждан и организаций к государственным услугам. Юридическое значение этого процесса состояло не только в создании нового информационного ресурса. Постепенно менялась сама модель взаимодействия гражданина с гос.аппаратом. Пользователь уже не должен был самостоятельно определять, какое конкретное ведомство располагает требуемыми сведениями. Единый цифровой интерфейс начал выполнять роль посредника между заявителем и системой государственных органов.

Дальнейшее развитие Национальной информационно-коммуникационной системы осуществлялось, в частности, на основе постановления Президента Республики Узбекистан от 27 июня 2013 года № ПП-1989 [10].

В последующие годы формировались центральные базы данных, системы электронной идентификации и механизмы межведомственного информационного взаимодействия.

Ключевой нормативной точкой данного этапа стало принятие Закона Республики Узбекистан от 9 декабря 2015 года № ЗРУ-395 «Об электронном правительстве» [11].

Принципиальное значение Закона состояло в том, что электронное правительство впервые получило полноценное юридико-институциональное содержание.

Были объединены два направления: внешнее взаимодействие государства с гражданами и организациями посредством электронных государственных услуг и внутреннее электронное взаимодействие государственных органов.

Такой подход является принципиальным с точки зрения современной цифровизации. Электронная государственная услуга не может рассматриваться исключительно как удобный пользовательский интерфейс. Ее качество непосредственно зависит от организации внутренних административных процессов и способности государственных органов самостоятельно обмениваться необходимыми сведениями.

Особое значение получил принцип «единое окно», предполагающий, что документы и информация, уже находящиеся в распоряжении государственных органов, должны запрашиваться в рамках межведомственного взаимодействия, а не повторно истребоваться у заявителя.

Принятие специального закона означало переход от программного и фрагментарного регулирования электронных государственных услуг к закреплению единой правовой модели электронного правительства.

Существенное развитие получила также институциональная система предоставления государственных услуг. Указ Президента Республики Узбекистан от 12 декабря 2017 года № УП-5278 был направлен на коренное реформирование национальной системы оказания государственных услуг населению [12].

Создание сети центров государственных услуг позволило объединить цифровые и традиционные способы взаимодействия человека с государством. Данный подход имеет самостоятельное правовое значение. Цифровизация не должна автоматически означать исключение очного способа получения государственных услуг, поскольку различия в доступе к Интернету, цифровых навыках, состоянии здоровья и иных обстоятельствах могут приводить к фактическому цифровому неравенству.

В результате сформировалась многоканальная модель, в которой государственная услуга может быть доступна посредством единой административной системы как в цифровой, так и в непосредственной форме. Расширение электронного взаимодействия закономерно увеличивало объем персональных данных, обрабатываемых государственными информационными системами. В этой связи важным элементом развития третьего этапа стало принятие 2 июля 2019 года Закона Республики Узбекистан № ЗРУ-547 «О персональных данных» [13].

Таким образом, к концу 2019 года в Узбекистане была сформирована базовая нормативно-институциональная система электронного правительства, включающая специальное законодательство, Единый портал, центры государственных услуг, информационные системы, механизмы межведомственного обмена, электронную идентификацию и законодательные гарантии защиты персональных данных.

Вместе с тем данная модель во многом сохраняла логику переноса уже существующих административных процедур в электронную среду. Электронная услуга воспроизводила традиционную последовательность действий – заявление, проверку документов, межведомственное согласование и принятие решения.

Следовательно, следующий этап объективно потребовал перехода от электронной формы административной процедуры к ее содержательной цифровой трансформации.

4. Переход к цифровому и платформенному государственному управлению. Четвертый этап начинается с **2020** года и связан с постепенным переходом от модели электронного правительства к модели цифрового правительства.

Ключевым стратегическим документом стало утверждение Указом Президента Республики Узбекистан № УП-6079 от 5 октября 2020 года Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» [14], которая определила комплексные направления цифровой трансформации государственного управления, экономики и территорий.

Содержание данного этапа принципиально отличается от предшествующего. Так, электронное правительство преимущественно отвечает на вопрос, каким образом существующую государственную услугу предоставить человеку дистанционно.

Цифровое правительство ставит другой вопрос: необходима ли существующая процедура в ее традиционном виде и каким образом она должна быть перепроектирована, если государство уже обладает большей частью необходимых данных.

Именно поэтому цифровое правительство связано с переходом к повторному использованию данных, автоматическому межведомственному обмену, проактивному предоставлению услуг, интеграции государственных информационных систем и использованию данных при принятии управленческих решений.

Существенным направлением данного этапа стала централизация цифровой инфраструктуры. Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-357 от 22 августа 2022 г. «О мерах по поднятию на новый уровень сферы информационно-коммуникационных технологий в 2022–2023 годах» предусмотрено развитие единой инфраструктуры системы электронного правительства [15].

В 2022 году нормативная основа цифрового государственного управления была также дополнена Законом Республики Узбекистан № ЗРУ-764 от 15 апреля 2022 года «О кибербезопасности» и новой редакцией Закона № ЗРУ-793 от 12 октября 2022 года «Об электронной цифровой подписи» [16].

Цифровое развитие получило принципиально новое конституционное измерение после принятия новой редакции Конституции Республики Узбекистан на референдуме 30 апреля 2023 года.

Статья 31 Конституции закрепляет право каждого на защиту персональных данных, включая возможность требовать исправления недостоверных данных и уничтожения данных, собранных незаконным путем либо утративших правовые основания для обработки. Статья 33 устанавливает обязанность государства создавать условия для обеспечения доступа к всемирной информационной сети Интернет [17].

Эти нормы изменяют правовую оценку цифровизации. Государственная информационная система представляет собой не только технологический объект. Ее функционирование непосредственно связано с реализацией конституционных прав человека.

Дальнейшее развитие цифровой модели отражено в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-76 от 24 мая 2023 года «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере цифровых технологий в рамках административных реформ». В предусмотренных им мероприятиях закреплена оптимизация административных процессов цифровых услуг на основе принципа Digital by Default [18].

Юридическое содержание данного принципа заключается в том, что цифровая форма перестает рассматриваться в качестве дополнительного канала предоставления услуги и становится исходной моделью проектирования административного процесса.

При этом Digital by Default не должен означать механического переноса существующей бюрократической процедуры в информационную систему. Напротив, цифровому проектированию должна предшествовать оценка необходимости каждого административного действия, документа и межведомственного согласования.

14 сентября 2023 года постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-308 «О дополнительных мерах по улучшению рейтинга Республики Узбекистан в отчете Организации Объединенных Наций «Исследование электронного правительства» одной из основных задач было определено вхождение страны в топ-30 государств по Индексу развития электронного правительства ООН к 2030 году [19].

Динамика международных показателей свидетельствует о заметном прогрессе. Согласно данным UN E-Government Knowledgebase, в 2022 году Узбекистан занимал 69-е место в EGDI с показателем 0,7265. В 2024 году страна заняла 63-е место с показателем 0,7999 и вошла в группу государств с очень высоким уровнем EGDI. По сравнению с 2022 годом позиция улучшилась на шесть мест [20].

Вместе с тем международный индекс не должен рассматриваться как конечная цель цифровой трансформации. Он является инструментом сравнительной оценки отдельных характеристик электронного правительства. Реальным критерием зрелости цифрового государства должно оставаться фактическое качество взаимодействия человека с публичной администрацией.

Согласно методологии Всемирного банка, GovTech рассматривается как общегосударственный подход к модернизации публичного сектора, ориентированный, в частности, на гражданоцентричные услуги, универсальную доступность и цифровую трансформацию. GovTech Maturity Index оценивает зрелость соответствующей системы по четырем основным направлениям и распределяет государства по группам зрелости A–D, а не формирует классический рейтинг государств [21].

Это методологическое уточнение имеет значение и для оценки национального прогресса: развитие цифрового государства должно измеряться не столько условным местом, сколько зрелостью институтов, государственных информационных систем, цифровых услуг, механизмов взаимодействия с гражданами и нормативной среды.

5. Переход к платформенной модели цифрового государства. Современная правовая политика Республики Узбекистан все активнее использует категорию «цифровое правительство». Вместе с тем, базовый Закон № ЗРУ-395 продолжает регулировать систему под наименованием «электронное правительство» и в значительной степени отражает модель государственного управления середины 2010-х годов.

Одновременно фактическое содержание государственной цифровой политики существенно расширилось. Речь идет уже не только об электронных государственных услугах и межведомственном обмене, но и об общих цифровых компонентах, проактивных сервисах, государственных данных, искусственном интеллекте и платформенной организации информационной инфраструктуры.

Наиболее отчетливо соответствующий переход проявился в постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-257 от 8 июля 2026 года «О мерах по дальнейшему развитию системы «Цифровое правительство» [22].

Постановлением предусмотрено внедрение Единой интегрированной цифровой платформы. Согласно официальному паспорту документа, Платформа является технологическим элементом системы «Цифровое правительство» и предназначена для обеспечения единой архитектуры, стандартов, технологических и организационных подходов при создании и развитии государственных информационных систем, а также использования цифровых компонентов и сервисов многократного применения. Тем самым происходит переход от относительно автономной ведомственной цифровизации к единой платформенной архитектуре.

В научном отношении данную тенденцию можно охарактеризовать как формирование элементов «государства как платформы» – модели, при которой отдельные государственные органы не создают полный набор технологических решений самостоятельно, а используют общую инфраструктуру, единые стандарты, базовые цифровые компоненты и механизмы обмена данными.

Преимущество такой модели состоит не только в потенциальном сокращении расходов на разработку многочисленных аналогичных информационных систем. Ее основное управленческое значение заключается в возможности сформировать целостную цифровую среду, в которой административные процессы различных государственных органов могут взаимодействовать друг с другом на основе единых технологических и правовых принципов.

При этом переход к цифровой платформе не означает утраты значения принципов действующего законодательства об электронном правительстве.

Равный доступ к услугам, «единое окно», открытость, прозрачность, унификация и информационная безопасность сохраняют фундаментальный характер.

Однако развитие цифрового правительства требует дополнения существующей системы такими принципами, как однократное предоставление данных, цифровое проектирование административных процедур, управление качеством государственных данных, технологическая совместимость, алгоритмическая прозрачность и обеспечение доступного альтернативного канала получения государственных услуг.

6. Перспективы совершенствования законодательства о цифровом правительстве. Сформировавшиеся тенденции позволяют выделить несколько направлений дальнейшего совершенствования правового регулирования.

6.1. Формирование современной законодательной модели цифрового правительства. Представляется целесообразным рассмотреть вопрос о подготовке новой редакции Закона Республики Узбекистан «Об электронном правительстве» либо разработке самостоятельного Закона «О цифровом правительстве».

При этом такая реформа не должна сводиться к формальной замене слова «электронное» на «цифровое». Необходимо нормативно определить новую архитектуру государственного управления.

В законодательстве целесообразно закрепить понятия «цифровое правительство», «государственная цифровая платформа», «государственные данные», «базовый реестр», «эталонный реестр», «цифровая идентичность», «проактивная государственная услуга», «жизненная ситуация», «автоматизированное административное решение» и «алгоритмическая система».

Одновременно необходимо определить принципы управления государственными данными, правовые основания межведомственного обмена, ответственность за качество и достоверность данных, порядок исправления ошибок и юридические последствия автоматизированной обработки информации.

6.2. Правовые гарантии при автоматизированном принятии решений. По мере развития цифрового правительства изменяется природа административных рисков.

В традиционной системе ошибочное решение, как правило, связано с действием либо бездействием конкретного должностного лица. В цифровой системе юридически значимый неблагоприятный результат может возникнуть вследствие ошибки в государственном реестре, некорректного алгоритма, несовместимости информационных систем или автоматического применения неверных данных.

Например, ошибка в государственном информационном ресурсе способна повлечь автоматический отказ в получении услуги, социальной выплаты, лицензии или регистрации.

Особенность такой ситуации состоит в том, что гражданин может не понимать, какие данные использовались при принятии решения, из какого государственного ресурса они были получены и какой субъект отвечает за их достоверность. Эта проблема приобретает дополнительное значение в связи с внедрением технологий искусственного интеллекта.

В этой связи законодательство должно предусматривать специальные процессуаль-

ные гарантии. Лицо должно иметь право знать, использовалась ли при принятии юридически значимого решения автоматизированная или алгоритмическая система; получать понятную информацию об основных данных и факторах, повлиявших на решение; использовать эффективный механизм исправления недостоверных государственных данных; требовать проверки результата уполномоченным должностным лицом; сохранять право административного и судебного обжалования.

Особенно строгие гарантии необходимы в отношении решений, затрагивающих существенные права и законные интересы человека: социальное обеспечение, право собственности, лицензирование, регистрацию, юридическую ответственность и иные юридически значимые последствия.

Окончательные решения такого характера не должны основываться исключительно на непрозрачной автоматизированной обработке при отсутствии возможности человеческого контроля.

Следовательно, внедрение искусственного интеллекта в государственном управлении должно сопровождаться не сокращением, а развитием процессуальных гарантий личности.

6.3. Переход от количественной к качественной оценке цифровой трансформации. Еще одной задачей является изменение критериев оценки эффективности цифровизации.

Традиционно результативность цифровой трансформации может оцениваться посредством количества созданных информационных систем, запущенных порталов или государственных услуг, переведенных в электронную форму.

Однако сам по себе количественный рост цифровых ресурсов не свидетельствует об улучшении государственного управления. Электронная услуга может сохранять сложную административную процедуру, предусматривать многочисленные действия пользователя, требовать предоставления документов, уже имеющихся у государства, либо дублировать функции других информационных систем. Таким образом, предметом оценки должен становиться не факт цифровизации, а ее результат для человека и государственного управления.

В систему показателей целесообразно включить фактическое сокращение срока получения государственной услуги; снижение прямых и косвенных расходов заявителя; сокращение количества требуемых документов и административных действий; долю услуг, оказываемых проактивно; доступность сервисов для лиц с инвалидностью и других категорий населения; уровень удовлетворенности пользователей; качество и достоверность государственных данных; устойчивость государственных информационных систем; количество технических ошибок и сроки их устранения; уровень межведомственной интеграции; долю процедур, не требующих повторного предоставления гражданином уже имеющихся у государства сведений.

Подобная система показателей способна переориентировать государственные органы с достижения формальных показателей цифровизации на получение измеримого социального и управленческого результата.

Проведенный анализ позволяет сделать вывод о том, что развитие электронного правительства в Республике Узбекистан представляет собой последовательную трансформацию правовой модели государственного управления.

На первом этапе – в 1991–2003 годах – были сформированы правовые и инфраструктурные основы информатизации и юридические механизмы электронного взаимодействия.

Второй этап – 2004–2012 годы – характеризовался правовым признанием электронных документов и операций и переходом к интерактивным государственным услугам.

На третьем этапе – в 2013–2019 годах – электронное правительство получило самостоятельное институциональное и законодательное оформление, были сформированы Единый портал, механизмы межведомственного взаимодействия, система государственных услуг и правовые гарантии защиты персональных данных.

Начиная с 2020 года цифровая политика постепенно выходит за пределы классической модели электронного правительства. Предметом цифровизации становится не только государственная услуга, но и сама архитектура государственного управления.

Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», конституционное закрепление цифровых прав, внедрение принципа Digital by Default и создание Единой интегрированной цифровой платформы свидетельствуют о постепенном переходе к основанной на данных и платформенной модели цифрового государства.

В этой связи дальнейшее развитие законодательства должно быть направлено не столько на регулирование отдельных информационных технологий, сколько на создание целостной правовой архитектуры цифрового государственного управления.

В ее основе должны находиться качество государственных данных, совместимость информационных систем, принцип однократного предоставления информации, цифровое проектирование административных процедур, прозрачность алгоритмических решений и эффективные механизмы защиты прав граждан.

Международные рейтинги являются важным инструментом сравнительной оценки прогресса, однако не могут выступать конечной целью государственной политики.

Подлинная зрелость цифрового правительства определяется не количеством информационных систем и электронных государственных услуг, а тем, насколько технологии позволяют человеку быстрее, проще, безопаснее и с меньшими административными издержками реализовывать принадлежащие ему права и законные интересы.

Поэтому конечным ориентиром цифровой трансформации должно выступать не создание «более цифрового» государственного аппарата как такового, а формирование человекоцентричного, прозрачного, подотчетного и эффективного цифрового государства.



Использованные источники

1. United Nations Department of Economic and Social Affairs. United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. New York: United Nations, 2024.
2. OECD. 2023 OECD Digital Government Index: Results and Key Findings. Paris: OECD Publishing, 2024.
3. Конституция Республики Узбекистан от 8 декабря 1992 года (редакция, действовавшая в рассматриваемый период) // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
4. Закон Республики Узбекистан от 7 мая 1993 года «Об информатизации» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
5. Указ Президента Республики Узбекистан от 30 мая 2002 года № УП-3080 «О дальнейшем развитии компьютеризации и внедрении информационно-коммуникационных технологий» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
6. Закон Республики Узбекистан от 11 декабря 2003 года № 560-II «Об информатизации»; Закон Республики Узбекистан от 11 декабря 2003 года № 562-II «Об электронной цифровой подписи» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
7. Закон Республики Узбекистан от 29 апреля 2004 года № 611-II «Об электронном документообороте»; Закон Республики Узбекистан от 29 апреля 2004 года № 613-II «Об электронной коммерции»; Закон Республики Узбекистан от 16 декабря 2005 года № ЗРУ-13 «Об электронных платежах» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
8. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23 августа 2007 года № 181 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
9. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 30 декабря 2012 года № 378 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
10. Постановление Президента Республики Узбекистан от 27 июня 2013 года № ПП-1989 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
11. Закон Республики Узбекистан от 9 декабря 2015 года № ЗРУ-395 «Об электронном правительстве» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
12. Указ Президента Республики Узбекистан от 12 декабря 2017 года № УП-5278 «О мерах по коренному реформированию национальной системы оказания государственных услуг населению» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
13. Закон Республики Узбекистан от 2 июля 2019 года № ЗРУ-547 «О персональных данных» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
14. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года № УП-6079 «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан — 2030” и мерах по ее эффективной реализации» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
15. Постановление Президента Республики Узбекистан от 22 августа 2022 года № ПП-357 «О мерах по поднятию на новый уровень сферы информационно-коммуникационных технологий в 2022–2023 годах» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
16. Закон Республики Узбекистан от 15 апреля 2022 года № ЗРУ-764 «О кибербезопасности»; Закон Республики Узбекистан от 12 октября 2022 года № ЗРУ-793 «Об электронной цифровой подписи» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
17. Конституция Республики Узбекистан в новой редакции, принятая на референдуме Республики Узбекистан 30 апреля 2023 года, ст. 31, 33 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
18. Указ Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2023 года № УП-76 «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере цифровых технологий в рамках административных реформ» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
19. Постановление Президента Республики Узбекистан от 14 сентября 2023 года № ПП-308 «О дополнительных мерах по улучшению рейтинга Республики Узбекистан в отчете Организации Объединенных Наций “Исследование электронного правительства”» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.
20. United Nations E-Government Knowledgebase. Uzbekistan Country Data: 2022–2024; United Nations Department of Economic and Social Affairs. United Nations E-Government Survey 2024. New York: United Nations, 2024.
21. World Bank. GovTech Maturity Index 2025 Update. Washington, D.C.: World Bank, 2025.
22. Постановление Президента Республики Узбекистан от 8 июля 2026 года № ПП-257 «О мерах по дальнейшему развитию системы “Цифровое правительство”» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан – LexUZ.

KRIMINOGEN VAZIYATGA TA'SIR KO'RSATUVCHI INDIKATORLAR MASALASI VA ILMIY ASOSI



IKANOV
Azamat Agzamovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, professor



XOLIQOV
Shuhrat Abduhamidovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi,
t.f.f.d.(PhD), dotsent



JUMAYEV
A‘loqul Juraqulovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya*. Maqolada AL-11325078166 “Kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasining dasturiy ta'minotini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida hududlardagi kriminogen vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy indikatorlar tizimi va ularni belgilashning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, indikatorlar tahlili orqali kriminogen holatni oldindan prognoz qilish, xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*
Kalit so'zlar: *kriminogen vaziyat, jinoyat, mahalla, huquqbuzarlik, shaxs, muhit, indikator, monitoring.*

Аннотация. *В статье анализируется система основных показателей, влияющих на криминогенную ситуацию в регионах, и научно-теоретические основы их определения в рамках практического научно-исследовательского проекта АЛ-11325078166 «Создание программного обеспечения для геоинформационной карты города Ташкента для мониторинга криминогенной ситуации». Также выдвигаются научно обоснованные предложения и рекомендации по прогнозированию криминогенной ситуации, раннему выявлению рисков и совершенствованию механизмов предотвращения преступности посредством анализа показателей.*
Ключевые слова: *криминогенная ситуация, преступление, махалля, правонарушение, человек, окружающая среда, индикатор, мониторинг.*

Abstract. *This article analyzes the system of key indicators influencing the crime situation in the regions and the scientific and theoretical foundations for their determination within the framework of practical research project AL-11325078166, “Creating Software for a Geoinformation Map of Tashkent to Monitor the Crime Situation” It also offers scientifically sound proposals and recommendations for forecasting the crime situation, early risk detection, and improving crime prevention mechanisms through indicator analysis.*
Keywords: *criminogenic situation, crime, mahalla, offense, person, environment, indicator, monitoring.*

Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo‘yicha choralar kompleksi **“kriminogen vaziyat”**dan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur yo‘nalishda ishlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya tomonidan amaliyotda kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda hududlarni:

***yashil toifadagi* mahalla** – jinoyat sodir etilmagan mahalla;

***sariq toifadagi* mahalla** – jinoyatlar soni kamaygan yoki barqaror mahalla;

***qizil toifadagi* mahalla** – kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan va jinoyatlar soni oshgan mahalla toifalariga bo‘lish asosida amalga oshirilmoqda.

> ***Ma’lumot uchun:*** *2026-yilning* ***to‘rt oyi yakuniga ko‘ra****, Respublika bo‘yicha* ***yashil mahallalar*** *– 6 708ta,* ***sariq mahallalar*** *– 1 967ta,* ***qizil mahallalar*** *– 317 tani tashkil qiladi.*

Mazkur faoliyat ilgari amalda jinoyat sodir etilgandan keyin tashkil qilib (postfaktum), ya’ni jinoyatlar oqibatlari bilan kurashishga aylanib qolgan edi. Demak, hududlar “kriminogen vaziyat”ga qarab emas, balki “kriminal vaziyat”ga qarab baholangan.

Vaholanki, *kriminogen vaziyat* – muayyan vaqt ichida hududda jinoyatchilik, uning alohida toifasi va turlarining holati, ularning o‘sishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar (determinantlar), ya’ni ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, geografik sabablar va shart-sharoitlar majmui.

> ***Ma’lumot uchun:*** *“kriminogen” so‘zining lug‘aviy ma’nosi jinoyatchilik sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan sabab va hodisalarni anglatadi.*

Kriminal vaziyat – muayyan hududda aniq davr mobaynida sodir etilgan jinoyatlarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari majmui, ya’ni jinoyatlar soni, turlari, jinoyat sodir etganlar shaxsi, jinoyat sodir etishga ixtisoslashuv, jinoiy uyushganlik darajasi, residiv va takroriylik, jinoyatchilarning g‘ayriqonuniy va g‘ayriijtimoiy yo‘nalganligi va jinoyatchilikning o‘zi bilan bog‘liq xususiyatlar yig‘indisi [3; 240−270-b.].

Yuqorida keltirilganlar, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etishni baholash mezoni sifatida jinoyatchilik statistikasi qo‘llanilib, huquqbuzarliklar, jumladan jinoyatlar sodir etilishiga imkon berayotgan sabab va shart-sharoitlarning mavjudligi bilan baholanmasligiga olib kelgan.

Natijada, jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilikning barcha harakatlari jinoyatning oqibati bilan kurashishga mujassamlashishiga olib kelgan va qo‘llanilayotgan barcha sa’y-harakatlarning samaradorlik darajasi pasayishiga sabab bo‘lgan.

Bu esa, hududlardagi kriminogen vaziyatni baholashning amaldagi mezonlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni, kriminogen vaziyatni baholashda jinoyatchilikka sabab bo‘luvchi asosiy faktorlarning tizimi, ko‘lami va jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar aniqlanishiga doir yangi metodika shakllantirilishini va amaliyotga joriy etilishini taqozo etadi [4; 11−13-b.].

Kriminologiya fanida jinoyatni keltirib chiqaradigan sabablar xususida ko‘plab nazariy va ilmiy konsepsiyalar yaratilgan. Jinoyatchilik sabablari xususidagi turlicha qarashlarni ikki yo‘nalishga (maktabga yoki konsepsiyaga) bo‘lish mumkin. Bular: ijtimoiy yo‘nalish va biologik yo‘nalishlardir [3; 101−107-b.].


Jinoyatlarning sabablari ijtimoiy jihatlarga bog‘liq deb talqin qiladigan nazariya va qarashlarda (T. Mor, T. Kampanella, D. Veras, J. Mele, T. Sellin, U. Miller, E. Saterlend, R. Klauford, L. Oulin) jamiyatda umumqabul qilingan normalarning buzilishi, ideal tushunchalarning va madaniy qadriyatlarning yo‘qolishi, salbiy madaniy qadriyatlarning kuchayishi jinoyatlarning asosiy sababi sifatida ko‘riladi [1; 52−63-b.].

Jinoyatlarning sabablarini biologik jarayonlarga bog‘laydigan biologik nazariya va qarashlarda (Ch. Lombrozo, M.V. Duxovskaya, A.I. Dolgova va boshq.) inson genidagi xususiyatlar, tug‘ma anomaliya, insondagi ongosti va jinsiy mayllar jinoyatchi shaxsni yetishtirib chiqishi ta’kidlanadi.

Albatta, har ikki yo‘nalishga xos qarashlar, nazariyalar va konsepsiyalarning yutuqlarini e’tirof etish zarur. Biroq, “jinoyat – jinoyatchi” murakkab ijtimoiy biologik hodisa bo‘lganligi bois bir tomonlama yondashmaslik, jinoyatchilikning sabab va

shart-sharoitlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Jinoyatchilikning sabablari va uni jilovlash borasida bildirilgan fikrlar hamda hozirgi zamon sharoitidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, huquqbuzarlik uning mavjudligini ta’minlaydigan elementlar, ya’ni: *huquqbuzarlikka moyil shaxs, qulay obyekt* va *qo‘riqlov mavjud emasligi* vaqt va makonda birlashgan holatda jinoyat sodir etilishi mumkin. Ushbu elementlar birlashmasligiga to‘sqinlik qiladigan va muntazam ishlaydigan ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy sharoitlarning yaratilishi huquqbuzarlikning oldini olishning samarali strategiyasi hisoblanadi [5; 23−35-b.]



1-rasm. Kundalik faoliyat nazariyasi

Jinoyatchilikni oldini olishning mazkur modeli amerikalik kriminologlar Markus Felson va Lourens Koen tomonidan ishlab chiqilgan *“Kundalik faoliyat nazariyasi”* (Routine activity theory − Теория повседневной деятельности)ga asoslanadi [4; 65−74-b.].

Metodika tizimli tahlilning indikativ yondashuviga asosan tuzilgan bo‘lib, jinoyatlarning sodir etilishi sabablari, ularga imkon beradigan shart-sharoitlar va tezkor xizmatlarning jinoyat haqidagi xabarlar bo‘yicha harakatlarining tezkorligi, shuningdek, aholining ishonchi kabi yo‘nalishlarga ajratilib, tizimli tarzda ishlab chiqilgan.

> ***Indikativ yondashuv*** *tizimli tahlil usuli bo‘lib, unda murakkab ijtimoiy tizim (hodisa, vaziyat)ning muayyan formallashtirilgan ko‘rsatkichlarini belgilangan indikatorlar tizimi bilan solishtirish orqali monitoringini amalga oshirishdan iborat.*

Umume’tirof etilgan nazariyalarga ko‘ra, jinoyatchilikka qarshi kurashishda uning sabablari hamda jinoyatni sodir etishga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish eng maqbul tashkiliy tadbir (usul) hisoblanadi. Huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faqat jinoyatchilikka qarshi kurashish va odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning funksiyasi bo‘lmasdan, davlat va jamiyatning barcha institutlari hamda fuqarolarning mas’ulligidagi vazifadir. Bu vazifa huquqbuzarliklarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish, sodir etilishidagi ta’sirini kamaytirish orqali bajarilishi mumkin [5; 202−205-b.].

Jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etsa-da, ba’zan huquqbuzarlikdan kelib chiqadigan tanglik holatini bartaraf etishga qodir bo‘lavermaydi. Aksincha, keyingi ko‘ngilsiz holatlarga va davlat organlariga ishonchsizlikni keltirib chiqarishga sabab bo‘lishi mumkin.

Huquqbuzarliklarning sabablari va ularni sodir etishga imkon bergan shart-sharoitlar ta’sirini kamaytirish esa hali jinoyat sodir etilishiga olib kelmagan salbiy ijtimoiy holatni bartaraf etadi hamda jamiyatning huquqbuzarlikka qarshi immunitetini kuchaytiradi.

Metodikaning mohiyati. Huquqbuzarliklarning sabablari va ularni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish jinoyatni sodir etishning keng qo‘llaniladigan usullariga, jinoyatchi shaxsiga va jinoiy muhitga qarshi aniq choralar orqali ta’sir etish hamda jinoyat sodir etishga moyil shaxslarga jinoiy maqsadiga erishishga imkon qoldirmaslikni nazarda tutadi. Shu bois metodikaga alohida urg‘u beriladi.

Metodikaning ijobiy jihatlari:

✓ jinoyatchilikning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlab olishga imkon beradi;

✓ aniq sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar qo‘llanilishini ta’minlaydi, jinoyat sodir etilishida imkoniyatlarni cheklaydi;

✓ jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha mas’ul sohaviy va hududiy idoralar va xizmatlarning joylardagi faoliyati natijadorligini shaffoflik asosida monitoring qilish imkoniyati yaratiladi;

✓ jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini yaratish va amalga oshirish yo‘lga qo‘yiladi;

✓ jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha “mahallabay” va “fuqarobay” ishlash mexanizmi samaradorligi va manzilliligi oshadi.

Indikatorlarni hisoblash metodikasi. Monitoring natijalariga ko‘ra, mahalladagi tegishli holatning ko‘rsatkichi tegishli ustunga joylashtirilib, har bir ustundagi ko‘rsatkichga ball beriladi:

Bunda N1–9, N2–8, N3–7, IO1–6, IO2–5, IO3–4, I1–3, I2–2, I3–1.

Jami natijalar: barcha ustundagi ko‘rsatkichlar jamlanib integral natija jadvaliga quyish bilan hududning kriminogen vaziyati tegishli rang bilan baholanadi.

Mazkur indikatorlar bo‘yicha tadqiqotlar Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiya tomonidan tashkil etiladi.

Komissiya tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari bo‘yicha ma’lumotlar tegishli statistika qo‘mitasidan olinadi, huquqbuzarliklar sodir etilishining psixologik omillari ichki ishlar organlarining psixologlari tomonidan har yili bir marta tegishli hududdagi yosh, jins, kasb kesimida tanlangan shaxslar guruhi o‘rtasida o‘tkaziladigan psixologik so‘rovnoma natijalariga ko‘ra aniqlanadi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan (yaratayotgan) shart-sharoitlar esa tasdiqlanadigan shakldagi savolnomaning joylardagi profilaktika inspektorlari tomonidan to‘ldirish orqali amalga oshiriladi.

Tezkor xizmatlarning ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari esa noyabr oyi davomida belgilanadigan tartibda sinov tariqasidagi chaqiruvlarni tegishli xizmatlar navbatchilik-dispetcherlik xizmatlariga yuborish orqali amalga oshiriladi.

Hudud aholisining davlat va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga munosabati indikatorlari esa “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi tomonidan o‘tkaziladigan ijtimoiy so‘rovlar natijasida olinadigan ma’lumotlar asosida to‘ldiriladi.

Mahallalarning kriminogen vaziyat indikatorlari bo‘yicha baholashga qaratilgan tadqiqotlar respublika huquqbuzarliklar profilaktikasi yillik dasturi va byudjet parametrlari ishlab chiqilishidan oldin o‘tkaziladi.

Kriminogen vaziyatga ta’sir ko‘rsatuvchi indikatorlar xilma-xil bo‘lib, ularni ilmiy jihatdan quyidagi yirik guruhlarga ajratish mumkin

Ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar. Bu guruh jinoyatchilikning fundamental sabablarini o‘zida namoyon etadi.

Ishsizlik darajasi. Aholining, ayniqsa yoshlarning bandligi ta’minlanmaganligi mulkiy jinoyatlar (o‘g‘rilik, firibgarlik) o‘sishiga bevosita ta’sir qiladi.

Aholi daromadlarining keskin tabaqalanishi. Kambag‘allik va boylik o‘rtasidagi farqning kattalashishi jamiyatda ijtimoiy norozilik va marginallashuvni keltirib chiqaradi.

Inflyatsiya va yashash minimumi ko‘rsatkichlari. Iqtisodiy inqirozlar va narxlarning oshishi moddiy ehtiyojlarni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan qondirishga urinishlarni ko‘paytiradi.

Demografik va migratsion indikatorlar. Aholi tarkibidagi o‘zgarishlar ham kriminogen holatning o‘zgarishiga olib keladi.

Aholi zichligi va urbanizatsiya. Yirik shaharlarda aholi zichligining yuqoriligi ijtimoiy nazoratning susayishiga (anonimlik ta’siriga) va jinoyatchilikning ortishiga sabab bo‘ladi.

Ichki va tashqi migratsiya. Doimiy yashash joyi va daromad manbaiga ega bo‘lmagan migrantlar

ko‘pincha ham jinoyat subyektiga, ham uning qurboniga (viktimizatsiya) aylanishi ehtimoli yuqori.

Yosh tarkibi. Statistika shuni ko‘rsatadiki, jinoyatlarning aksariyat qismi 18-35 yoshlilar tomonidan sodir etiladi. Bu qatlam ulushining ortishi kriminogen xavfni oshirishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik va madaniy indikatorlar:

Oila instituti inqirozi. Ajrimlar sonining ortishi, to‘liqsiz oilalarda tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlikning kelib chiqishi.

Alkogolizm va giyohvandlik darajasi. Zo‘ravonlik va bezorilik jinoyatlarining katta qismi aynan mastlik yoki qaramlik holatida sodir etiladi.

Huquqiy nigilizm. Aholi o‘rtasida qonunlarga hurmatsizlik va ularni chetlab o‘tishga moyillikning mavjudligi.

Institutsional-huquqiy indikatorlar:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi va tezkorligi.

Jinoyat uchun jazo muqarrarligi prinsipining amalda ta’minlanishi.

Korrupsiya darajasi va aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchi.

Kriminogen indikatorlarni tahlil qilish o‘ziga xos ilmiy metodologiyaga tayanadi. Uning asosi quyidagi omillarni matematik, statistik va sotsiologik tahlil qilishdan iborat:

Kvantitativ (miqdoriy) tahlil. Jinoyatchilik koeffitsiyentini hisoblash (har 10 000 yoki 100 000 aholiga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni). Shuningdek, turli jinoyat turlarining umumiy jinoyatchilik tarkibidagi salmog‘ini (masalan, kiberjinoyatlarning ulushi ortishi) o‘lchash.

Spatio-temporal (hududiy-vaqt) tahlil. Geografik axborot tizimlari (GIS) yordamida jinoyat o‘choqlarini xaritaga tushirish va vaqt kesimida (mavsumiy, kunlik) tahlil qilish.

Korrelyatsion tahlil. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar (masalan, ishsizlik) va jinoyatchilik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik va ekonometrik modellar yordamida isbotlash.

Kriminogen vaziyatni nazorat qilishda geoinformatsion tizimlardan (GIT) foydalanish bo‘yicha olib borilgan mahalliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, GIT bugungi kunda jinoyatchilikni faqat qayd etish vositasi emas, balki uni tahlil qilish, prognoz qilish va boshqarish uchun muhim ilmiy-amaliy platformaga aylangan.

Xalqaro tajriba, xususan Arthur Getis va J. Keith Ord ishlab chiqqan Getis-Ord Gi* kabi metodlar, shuningdek, Michael F. Goodchild tomonidan rivojlantirilgan GISciyence yondashuvlari jinoyatchilikning fazoviy-vaqtinchalik tarqalishini aniqlashda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu yondashuvlar jinoyatlarning “hot spots” (jinoyat o‘choqlari) hududlarini aniqlash va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili esa GIS texnologiyalarining huquqni muhofaza qilish tizimida bosqichma-bosqich joriy etilayotganini, ammo fazoviy statistika va prognoz modellaridan foydalanish darajasi hali to‘liq rivojlanmaganini ko‘rsatadi. Ko‘plab tadqiqotlar asosan tavsifiy xaritalash darajasida qolib, ilg‘or tahliliy va prognozli (predictive) yondashuvlar yetarlicha qo‘llanilmayotgani ma’lum bo‘ladi.

Umuman olganda, GIT asosidagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish tizimlari quyidagi yo‘nalishlarda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega:

- jinoyatchilikning fazoviy qonuniyatlarini aniqlash;
- xavf yuqori hududlarni prognoz qilish;
- huquqni muhofaza qilish resurslarini samarali boshqarish;
- oldini olish (preventiv) choralarini kuchaytirish.

Shu bilan birga, kelajakda ilmiy tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar dolzarb bo‘lib qoladi: mashinaviy o‘rganish algoritmlarini GIT bilan integratsiya qilish, real vaqt ma’lumotlari asosida ishlaydigan tizimlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarni fazoviy modellashtirishga kengroq jalb etish.

Xulosa qilib aytganda, GIT texnologiyalari kriminologiyada tahliliy va prognoz yondashuvni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri bo‘lib, ularning ilmiy-metodik asoslarini rivojlantirish huquqni muhofaza qilish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kriminogen vaziyatni nazorat qilishda geoinformatsion tizimlardan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirishda geoinformatsion tizimlardan foyda-

lanish bo‘yicha ichki ishlar organlari xodimlari va Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodim)larini o‘qitish bo‘yicha maxsus o‘quv kursi dasturi loyihasini tayyorlash.

2. O‘quv kursi dasturiga asoslangan “Kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirishda geoinformatsion tizimlardan foydalanish” o‘quv qo‘llanma loyihasini ishlab chiqish.

3. Oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalariga kiritilgan “Kriminologiya” fani darsligiga kriminologiya fani predmeti sifatida “Fazoviy kriminologiya” (“Qaynoq nuqtalar nazariyasi”ga asosangan holda) yo‘nalishida alohida bob kiritish, shuningdek mazkur sohada falsafa doktori va fan doktori dissertatsiya tadqiqotlarini olib borish.

4. Jinoyatlarning lokalizatsiyasi (joyi), vaqti va ularni sodir etish ehtimoli mavjud bo‘lgan subyektlarni ma’lumotlar va algoritmlar asosida oldindan aniqlash imkonini beruvchi “Jinoyatlar prognozi” (Predictive Policing) konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

5. Ichki ishlar vazirligi tomonidan joylarda kriminogen vaziyatni baholash va shundan kelib chiqib kuch-vositalarni boshqarish amaliyotida geoinformasion tizimlardan foydalanish. Bunda:

– jamoat joylari va aholi turar joylarda jinoyatchilik holatini kriminologik geoaxborot tahlili (Crime map) uslubida o‘rganish;

– “jinoyat o‘choqlari”ni aniqlashda atrof-muhit auditini (CPTED) amalga oshirib borish.

Foydalanilgan manbalar

1. Ломброзо Ч. Преступный человек (L'Uomo Delinquente). — М.: Инфра-М, 2005;
2. Cohen L.E., Felson M. Social Change and Crime Rate Trends: A Routine Activity Approach // American Sociological Review. – 1979. – Vol. 44. – No. 4. – P. 588–608.
3. Долгова А.И. Криминология. — М.: Норма, 2010;, 1008 b.
4. Духовская М.В. Криминология и предупреждение преступности. — М.: Юристъ, 2008.
5. Perry W.L., McInnis B., Price C.C., Smith S.C., Hollywood J.S., Bashoratli politsiya faoliyati: Huquqni muhofaza qilish operatsiyalarida jinoyatlarni prognoz qilishning o'rni (Predictive Policing), Santa Monika, “RAND Corporation” nashriyoti, 2013, 174 b.
6. Felson M., Boba R., Jinoyatchilik va kundalik hayot (Crime and Everyday Life), Los Anjeles, “SAGE” nashriyoti, 2010, 296 b.
7. Chainey S., Ratcliffe J., GIS va jinoyatlar xaritasini tuzish (GIS and Crime Mapping), London, “John Wiley & Sons” nashriyoti, 2013, 442 b.
8. Chainey S., Tompson L., Uhlig S., Jinoyatlarning fazoviy qonuniyatlarini bashorat qilishda qaynoq nuqtalar (hot spots) xaritasining foydaliligi, “Security Journal” jurnali, 2008, 21-son, 4-28 b.
9. Goodchild M.F., Fuqarolar sensor sifatida: ixtiyoriy geografiya olami (Citizens as sensors: the world of volunteered geography), “GeoJournal” jurnali, 2007, 69-son, 211-221 b.
10. Mohler G.O., Short M.B., Brantingham P.J., Schoenberg F.C., Tita G.E., Bashoratli politsiya faoliyatining tasodifiy nazorat qilinadigan dala sinovlari (Randomized Controlled Field Trials of Predictive Policing), “Journal of the American Statistical Association” jurnali, 2015, 110-son, 1399-1411 b.
11. Anselin L., Rey S.J., Fazoviy tahlil va geoinformatsion tizimlar (Spatial Analysis and GIS), “Geographical Analysis” jurnali, 2010, 42-son, 276-292 b.



AYOLLAR VA BOLALARGA NISBATAN RAQAMLI ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISH MILLIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI: AQSH TAJRIBASI MISOLIDA



ASQAROV
Mirzoxid Mirjalol o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori



VALIJONOVA
Gulyuz Muzaffar qizi
Amerika Qo‘shma Shtatlari Kolorado shtati universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya*. Maqolada ayollar va bolalarga nisbatan raqamli zo‘ravonlikka qarshi kurashishda AQSHda qo‘llanilayotgan huquqiy, institutsional va profilaktik mexanizmlarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash masalalari tahlil qilingan. Tahlil natijasida xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uni milliy qonunchilik, mavjud institutlar va huquqni qo‘llash amaliyotiga funksional moslashtirish zarurati asoslantirilgan. O‘zbekistonda raqamli platformalar majburiyatlarini belgilash, raqamli dalillarni saqlash, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va yangi mexanizmlar natijadorligini mustaqil baholashga doir takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *raqamli zo‘ravonlik, roziliksiz intim tasvir, raqamli platforma, bolalarning onlayn jinsiy ekspluatatsiyasi, himoya orderi, elektron monitoring, idoralararo hamkorlik, faol guvoh aralashuvi.*

Аннотация*. В статье анализируются вопросы адаптации к условиям Узбекистана правовых, институциональных и профилактических механизмов противодействия цифровому насилию в отношении женщин и детей, применяемых в Соединённых Штатах Америки. Обоснована необходимость не прямого заимствования зарубежного опыта, а его функциональной адаптации к национальному законодательству, действующим институтам и правоприменительной практике. Разработаны предложения по определению обязанностей цифровых платформ, сохранению цифровых доказательств, усилению межведомственного взаимодействия и независимой оценке эффективности внедряемых механизмов.*
Ключевые слова: *цифровое насилие, интимные изображения без согласия, цифровая платформа, онлайн-сексуальная эксплуатация детей, защитный ордер, электронный мониторинг, межведомственное взаимодействие, вмешательство активных свидетелей.*

Abstract. *The article examines the adaptation to the legal and institutional system of Uzbekistan of selected legal, institutional and preventive mechanisms used in the United States to combat digital violence against women and children. The study argues that foreign mechanisms should not be directly transplanted but functionally adapted to national legislation, existing institutions and law-enforcement practice. Proposals are developed concerning the legal duties of digital platforms, preservation of digital evidence, stronger interagency coordination and independent evaluation of the effectiveness of newly introduced measures.*
Keywords: *digital violence, non-consensual intimate imagery, digital platform, online child sexual exploitation, protection order, electronic monitoring, interagency cooperation, active bystander intervention.*

Insonning sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy hayoti, jinsiy daxlsizligi hamda xavfsizligi raqamli muhitda ham to'liq huquqiy muhofaza qilinishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz deb e'tirof etadi, oila, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini davlat o'z muhofazasiga oladi [1]. Mazkur konstitutsiyaviy talablar zo'ravonlikka qarshi kurashishni faqat sodir etilgan qilmish uchun javobgarlik belgilash bilan cheklamasdan, jabrlanuvchini tezkor himoya qilish, takroriy xavfni barvaqt aniqlash va buzilgan huquqlarni tiklashni ham nazarda tutadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalarni tazyiq hamda zo'ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari sezilarli darajada takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunida ta'qib etish, himoya orderi, yakka tartibdagi profilaktika va jabrlanuvchiga yordam ko'rsatish mexanizmlari mustahkamlangan [2]. 2023-yilda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik kuchaytirildi [3]. "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun Internet va telekommunikatsiya tarmoqlari orqali sodir etiladigan zo'ravonlikni ham huquqiy muhofaza doirasiga kiritdi [4]. 2026–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyada esa bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini raqamli hisobga olish, monitoring qilish va idoralararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish vazifalari belgilandi [5].

Shu bilan birga, texnologiyalar vositasida sodir etiladigan zo'ravonlikning tez tarqalishi, materiallarning cheksiz nusxalanishi, huquqbuzarning masofadan turib nazorat va tahdid o'tkazish imkoniyati an'anaviy huquqiy choralarning tezkorligini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. BMTning tegishli tuzilmalari raqamli zo'ravonlikka qarshi kurashishda huquqiy javobgarlik, platformalar mas'uliyati, jabrlanuvchiga yo'naltirilgan xizmatlar va ishonchli ma'lumotlar tizimi birgalikda ishlashi lozimligini ta'kidlaydi [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ilmiy nuqtayi nazardan viktimologik profilaktika jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash, uning takroriy jabrlanish ehtimolini kamaytirish va buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan kompleks faoliyat sifatida o'rganilgan. S.S. Niyozova zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasini huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy choralar uyg'unligida takomillashtirish zaruratini asoslaydi [7]. M.X. Rustambayev va S.S. Niyozova viktimologik choralar jabrlanuvchining o'ziga xos xususiyatlari, xavf darajasi va individual ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi kerakligini qayd etadi [8]. A.A. Olimov esa kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda elektron dalillarning yaxlitligini ta'minlash, maxsus tuzilmalar va idoralararo hamkorlikni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko'rsatgan [9].

Mavzu bo'yicha xorijiy tajribaga murojaat qilinganda ayrim mexanizmlarning tashqi ko'rinishi emas, balki ularning ishlash sharti, huquqiy kafolatlari, ilmiy dalillar bazasi va milliy tizimga mosligi baholanishi kerak. Masalan, intim tasvirlarni 48 soat ichida kontentni olib tashlash tartibi faqat muddat emas, balki murojaatni qabul qilish, tasdiqlash, dalilni saqlash, nusxalarni aniqlash va shikoyat qilishdan iborat protsessual zanjirdir. Elektron monitoring xavfni baholash, sud nazorati va murojaatga tezkor javob tizimi bilan birgalikda samara beradi.

Tadqiqotning maqsadi. AQSHda raqamli va oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashda qo'llanilayotgan asosiy mexanizmlarning huquqiy mazmuni va ilmiy samaradorligini tahlil qilish, cheklovlarini aniqlash hamda O'zbekiston uchun huquqiy jihatdan mutanosib, institutsional jihatdan amalga oshiriladigan va natijasi o'lchanadigan milliy model yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot materiallarini 2019–2026-yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish, axborotlashtirish, shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlar; AQSHning TAKE IT DOWN Act, REPORT Act va VAWA doirasidagi rasmiy materiallari; NCMEC, Federal savdo komissiyasi va AQSH Adliya vazirligining ochiq ma'lumotlari; elektron monitoring va faol guvoh aralashuviga oid empirik tadqiqotlar tashkil etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda formal-yuridik usul orqali huquqiy normalarning mazmuni, qiyosiy-huquqiy usul orqali AQSH va

O'zbekiston mexanizmlarining funksional o'xshash va farqli jihatlari, tizimli tahlil orqali huquqiy, ijtimoiy va texnologik choralarning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Tanqidiy manba tahlili har bir empirik natijaning tadqiqot obyekti, hajmi va xulosa chiqarish imkoniyatini tekshirish uchun qo'llanildi.

Xorijiy mexanizmni milliy tizimga moslashtirish quyidagi besh mezon asosida baholandi:

birinchidan, amaldagi milliy qonunchilik bilan muvofiqligi;

ikkinchidan, jabrlanuvchining huquqlari va shaxsiy hayot daxlsizligiga rioya qilinishi;

uchinchidan, mas'ul subyekt va ijro tartibining aniqligi;

to'rtinchidan, texnik va moliyaviy amalga oshirish imkoniyati;

beshinchidan, natijani ishonchli ko'rsatkichlar orqali baholash mumkinligi.

Maqolaning "natijalar" qismida xorijiy mexanizmlarning aniq mazmuni va ilmiy dalillari, "muhokama" qismida esa ularni O'zbekiston huquqiy maktabi, milliy institutlar va huquqni qo'llash amaliyotiga moslashtirish yo'llari bayon etildi.

Bizningcha, *kiberfiribgarlik* — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli identifikatsiya, elektron to‘lov vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt va global kommunikatsiya infratuzilmalaridan foydalangan holda shaxsni aldash, uning ishonchini suiiste’mol qilish yoki uning qaror qabul qilish jarayonini manipulyatsiya qilish orqali mulk, pul mablag‘lari, mulkiy huquqlar, autentifikatsiya ma’lumotlari yoki iqtisodiy ahamiyatga ega boshqa raqamli aktivlarni qo‘lga kiritishga qaratilgan kommunikatsiyalashgan jinoiy faoliyat. Shu jihatdan, uning obyekti faqat mulkiy munosabatlar bilan cheklanmay, shaxsiy ma’lumotlar, raqamli identiklik, axborot xavfsizligi, moliyaviy barqarorlik va raqamli ishonch munosabatlarini ham qamrab oladi. Kiberfiribgarlikning kriminologik tabiati uning bir vaqtning o‘zida texnologik, psixologik, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni birlashtirishida namoyon bo‘ladi.

An’anaviy firibgarlikda jinoyatchi va jabrlanuvchi o‘rtasida ko‘pincha bevosita yoki jismoniy muloqot mavjud bo‘lsa, kiberfiribgarlikda ushbu aloqa virtual muhitga ko‘chadi. Natijada jinoyatchining anonimligi va masofaviyligi kuchayadi, jinoyatning transchegaraviy xususiyati ortadi, bir xil jinoiy ssenariyni qisqa vaqt ichida minglab jabrlanuvchilarga nisbatan qo‘llash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuningdek, raqamli muhitda jinoyat izlari an’anaviy moddiy izlardan farqli ravishda elektron shaklda shakllanadi, turli qurilmalar, serverlar, akkauntlar, elektron hamyonlar va tranzaksiyalar o‘rtasida tarqalishi mumkin. Bu holat jinoyatni tergov qilishda raqamli kriminalistika, ma’lumotlarni tezkor saqlab qolish, elektron dalillarni yig‘ish va transchegaraviy axborot almashinuvining ahamiyatini keskin oshiradi.

Kiberfiribgarlikning yana bir muhim kriminologik xususiyati — uning yuqori latentligi. Jabrlanuvchilarning ma’lum qismi voqeani huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qilmasligi, yetkazilgan zararni kichik deb baholashi, o‘zining aldanganidan uyalishi yoki jinoyatchini aniqlash imkoniyatiga ishonmasligi natijasida rasmiy statistikada aks etmagan holatlar yuzaga keladi. Bundan tashqari, bir qator holatlarda jinoyat natijasida yetkazilgan zarar shaxsning o‘ziga emas, balki tashkilot, bank, elektron savdo platformasi yoki boshqa vositachi subyektlarga tarqaladi. Shu sababli kiberfiribgarlik statistikasini baholashda faqat qayd etilgan jinoyatlar soni emas, balki latentlik koeffitsiyenti, jabrlanuvchilarning murojaat qilish darajasi, iqtisodiy zarar miqdori, tranzaksiyalarning qaytarilishi va jinoiy mablag‘larning harakat trayektoriyasi kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Kiberfiribgarlikni ilmiy tadqiq etishda uni bir nechta mezonlar asosida tasniflash mumkin. Jumladan:

jinoyat sodir etish mexanizmiga ko‘ra, u texnik vositalarga asoslangan firibgarlik, ijtimoiy muhandislikka asoslangan firibgarlik va aralash, ya’ni texnik-psixologik usullarning kombinatsiyasiga asoslangan firibgarlik shakllariga ajratilishi mumkin;

hujum obyektiga ko‘ra, shaxslarga qarshi, tashkilotlarga qarshi, moliyaviy institutlarga qarshi hamda davlat va muhim raqamli infratuzilmalarga bilvosita ta’sir qiluvchi firibgarlik turlarini farqlash mumkin;

transmilliylik darajasiga ko‘ra, milliy, transchegaraviy va transmilliy uyushgan shakllar ajratiladi. Mazkur tasnif kiberfiribgarlikni faqat axborot texnologiyalari nuqtayi nazaridan emas, balki kriminologiya, jinoyat huquqi, psixologiya, iqtisodiyot, kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika kesishmasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Kiberfiribgarlikning zamonaviy shakllari ichida *ijtimoiy muhandislik* alohida o‘rin egallaydi. Ijtimoiy muhandislik texnik tizimning zaifligidan ko‘ra insonning kognitiv va emotsional xususiyatlaridan foydalanishga asoslangan manipulyativ ta’sir usulidir. Bunda jinoyatchi kompyuter tizimini emas, avvalo, insonning qaror qabul qilish mexanizmini “buzish”ga harakat qiladi. Ishonch, qo‘rquv,

qiziqish, hamdardlik, avtoritetga bo‘ysunish, shoshilinchlik, mukofot kutish va ijtimoiy tasdiqqa ehtiyoj kabi psixologik omillar jinoyatchining asosiy ta’sir vositalariga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, kiberfiribgarlikni “texnologiyadan foydalanuvchi jinoyat”dan tashqari “qaror qabul qilish jarayonini manipulyatsiya qiluvchi jinoyat” sifatida ham baholash ilmiy jihatdan asoslidir. Shu o‘rinda, kiberjinoyatchilik sohasidagi ekspert, xaker Kevin Mitnikning “Eng mukammal xavfsizlik tizimi ham inson omili oldida ojiz qolishi mumkin” degan so‘zlari naqadar asosli ekanligi namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy muhandislikning samaradorligi ko‘pincha insonning xavfni tez baholash qobiliyati cheklangan vaziyatlarda yuqori bo‘ladi. Masalan, “hisobingizdan shubhali operatsiya amalga oshirilmoqda”, “kartangiz bloklanadi”, “hisobingizni tasdiqlashingiz zarur” yoki “zudlik bilan to‘lovni amalga oshiring” kabi xabarlar shaxsda shoshilinchlik va xavotir holatini yuzaga keltirib, mustaqil tekshirishga ajratiladigan vaqtni qisqartiradi. Shuningdek, jinoyatchi o‘zini bank xodimi, davlat organi vakili, rahbar, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi yoki texnik mutaxassis sifatida tanishtirib, *avtoritet effektidan* foydalanishi mumkin. Bunday holatlarda jabrlanuvchi mantiqiy tahlildan ko‘ra, vaziyatni tezda “bartaraf etish”ga intiladi va natijada maxfiy ma’lumot, tasdiqlash kodi yoki pul mablag‘larini jinoyatchiga ixtiyoriy ravishda taqdim qilib qo‘yadi.

Shundan kelib chiqib, “*avtoritet effekti”* tushunchasini “shaxsning o‘zidan yuqori ijtimoiy mavqega, rasmiy maqomga, kasbiy vakolatga yoki ijtimoiy nufuzga ega deb qabul qilingan shaxsning ko‘rsatma, talabi yoki axborotiga tanqidiy baholashni yetarlicha amalga oshirmasdan, yuqori darajada ishonish va unga muvofiq harakat qilishga moyilligini ifodalovchi psixologik-kriminologik holat”, deb ta’riflash mumkin.

- Ijtimoiy muhandislik hujumi, odatda, bir necha o‘zaro bog‘liq quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:
- potensial jabrlanuvchi haqida ochiq manbalardan ma’lumot to‘plash;
- ishonchli ssenariy va shaxsiyatni shakllantirish;
- psixologik ta’sirni boshlash;
- maxfiy ma’lumot yoki moliyaviy harakatni amalga oshirishga undash;
- jinoyat izlarini yashirish.

Bunda ijtimoiy tarmoqlar jinoyatchilar uchun muhim razvedka (qidiruv) manbasiga aylanadi. Shaxsning ish joyi, lavozimi, oilaviy munosabatlari, qiziqishlari, safarlari va ijtimoiy aloqalari haqida ochiq qoldirilgan ma’lumotlar keyinchalik individuallashtirilgan firibgarlik ssenariysini yaratish uchun qo‘llanishi mumkin. *Yevropol* (*YEI* politsiya xizmati) ma’lumotlarida ham o‘g‘irlangan va buzib kirilgan ma’lumotlar zamonaviy kiberjinoyat iqtisodiyotining muhim resursiga aylanayotgani qayd etilgan.

Kiberfiribgarlikning eng keng tarqalgan shakllaridan yana biri *fishingdir.* Fishing — elektron pochta, SMS, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar yoki soxta veb-saytlar orqali foydalanuvchini aldash va uning login-paroli, bank rekvizitlari, tasdiqlash kodlari yoki boshqa autentifikatsiya ma’lumotlarini qo‘lga kiritishga qaratilgan firibgarlik usuli. Uning xavfliligi texnik va psixologik mexanizmlarni birlashtirishida namoyon bo‘ladi: avval ishonchli manba imitatsiya qilinadi, keyin jabrlanuvchiga psixologik turtki beriladi, shundan so‘ng u soxta veb-sahifa, zararli ilova yoki boshqa raqamli obyektga yo‘naltiriladi.

Fishingning ommaviy shaklidan farqli ravishda *“spear-phishing”* muayyan shaxs yoki tashkilotga moslashtiriladi. Unda oldindan to‘plangan ma’lumotlardan foydalanilgani sababli xabar oddiy fishingga qaraganda ishonchliroq ko‘rinadi. *“Whale phishing”* esa yuqori lavozimdagi shaxslar, rahbarlar yoki katta moliyaviy vakolatga ega xodimlarga qaratilgan maqsadli firibgarlik shaklidir. *“Smishing”* SMS yoki boshqa qisqa xabarlar orqali, *“vishing”* esa telefon qo‘ng‘iroqlari orqali amalga oshiriladi. *“Business Email Compromise”* esa korporativ muhitda rahbar, hamkor yoki moliyaviy mas’ul shaxs nomidan soxta elektron xabar yuborib, mablag‘ni boshqa hisob raqamiga o‘tkazishga undashga asoslanadi. Bu shakllar o‘rtasidagi umumiy jihat – jabrlanuvchida ishonchli manba bilan muloqot qilayotganlik tasavvurini hosil qilish va uning moliyaviy yoki axborot xavfsizligiga daxl qiluvchi harakatni mustaqil ravishda amalga oshirishi.

Fishing texnologiyalarining rivojlanish dinamikasi ushbu tahdidning global miqyosda yuqori ekanini ko‘rsatmoqda. *Anti-Phishing Working Group* ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning birinchi choragida fishing hujumlari 13,8 foizga o‘sib, 2025-yilning 4-choragidagi 853 244 tadan 971 181 taga yetdi. Qolaversa, joriy yilning 1-choragi davomida bunday hujumlar soni barcha ijtimoiy media platformalarida oshgan [1].

Shu bilan birga, zamonaviy fishingda QR-kodlardan foydalanishning ko‘payishi, telefon qo‘ng‘iroqlari va xabarlarning ommaviylashishi hujumlarni elektron pochta bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda.

Fishingning yana bir xavfli jihati vizual imitatsiyaning takomillashib borayotganidir. Soxta veb-saytlar rasmiy platformalar interfeysiga juda yaqinlashgan, domen nomlarida vizual jihatdan o‘xshash belgilardan foydalanish, soxta brendlar va ishonchli dizayn elementlarini qo‘llash orqali foydalanuvchida haqiqiy resurs bilan muloqot qilayotganlik tasavvuri shakllantiriladi. Biroq, sayt sertifikati yoki saytning tashqi ko‘rinishi uning ishonchliligini avtomatik ravishda kafolatlamaydi. Shu sababli zamonaviy raqamli xavfsizlik madaniyati *“raqamli skeptitsizm”*, ya’ni har qanday kutilmagan xabar, havola yoki to‘lov talabini mustaqil manba orqali qayta tekshirish tamoyiliga asoslanishi lozim. Shundan kelib chiqib ushbu tushunchani *“shaxsning raqamli muhitda qabul qilayotgan axborot, elektron xabar, havola, veb-sayt, akkaunt, raqamli identifikatsiya, moliyaviy talab yoki muloqot subyektining haqiqiyligi va ishonchliligini avtomatik ravishda qabul qilmasdan, uning manbasi, mazmuni, maqsadi va xavfsizligini tanqidiy tahlil qilish, mustaqil tekshirish hamda shundan keyingina muayyan raqamli harakatni amalga oshirishga asoslangan kognitiv-profilaktik xulq-atvor modeli”*, deb ta’riflash taklif etiladi.

Kiberfiribgarlikning yana bir muhim yo‘nalishi to‘lov kartalari va elektron moliyaviy hisoblarga qarshi qaratilgan jinoyatlardir. *“Karding”* deb ataladigan mazkur yo‘nalishda karta rekvizitlarini qo‘lga kiritish, ularni tekshirish, noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirish, mablag‘ni turli hisoblarga tarqatish va uning manbasini yashirishga qaratilgan harakatlar o‘zaro bog‘liq jinoiy zanjirni tashkil etadi. Bunda “phishing”, “malware”, “keylogger”, soxta to‘lov sahifalari, soxta mobil ilovalar, QR-kodlar va bank troyanlari kabi vositalar qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, texnik himoya vositalari kuchaygani sari jinoyatchilarning inson omiliga tayanish tendensiyasi ham kuchaymoqda.

Ayniqsa, bank xodimi sifatida qo‘ng‘iroq qilish, hisobda shubhali operatsiya borligi haqida xabar berish va bir martalik tasdiqlash kodini so‘rash kabi ssenariylar ijtimoiy muhandislikning moliyaviy firibgarlik bilan uyg‘unlashgan shaklini tashkil etadi. Bunday holatda jabrlanuvchiga texnik jihatdan hech qanday hujum qilinmasligi mumkin, aksincha, u jinoyatchi tomonidan ishontirilib, tasdiqlash jarayonini o‘zi amalga oshiradi. Demak, kiberfiribgarlikning zamonaviy modelida “texnik hujum” va “fuqaroning o‘z qo‘li bilan amalga oshirgan xavfli harakati” o‘rtasidagi farq tobora muhim kriminologik masalaga aylanmoqda.

Shu o‘rinda, kiberfiribgarlikning moliyaviy mexanizmida *“drop”*lardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Drop – o‘z bank kartasi, hisob raqami yoki boshqa moliyaviy vositalaridan uchinchi shaxslarning pul mablag‘larini qabul qilish va keyin ularni boshqa manzilga o‘tkazish uchun foydalanishga rozi bo‘lgan shaxs. Bunday shaxslar ba’zan jinoiy sxemaning to‘liq mohiyatini anglamasligi, ba’zan esa moddiy manfaat evaziga unda ishtirok etishi mumkin. Draplardan foydalanish jinoiy mablag‘lar harakatini murakkablashtirib, asosiy tashkilotchilarni aniqlashni qiyinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, kiberfiribgarlikni samarali tergov qilishda faqat birinchi tranzaksiyani emas, balki mablag‘ning keyingi harakatlar zanjirini ham tahlil qilish zarur.

Kripto-aktivlar va raqamli moliyaviy vositalarning rivojlanishi ham firibgarlikning yangi modellarini yuzaga keltirmoqda. “Crypto investment scam”, “rug pull”, “pump-and-dump” kabi sxemalarda investorlarga *asossiz yuqori daromad va’da qilinib*, soxta loyihalar, soxta statistikalar, ijtimoiy tarmoqlarda sun’iy obro‘ va soxta ekspertlar orqali ishonch shakllantiriladi. Bu yerda ham texnik mexanizmdan ko‘ra insonning tez boyish istagi, yuqori daromad kutishi va ijtimoiy ta’sirga moyilligi muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda kiberfiribgarlikning kriminogen salohiyatini sezilarli darajada oshirayotgan omillardan biri sun’iy intellektning rivojlanishidir. *Generativ sun’iy intellekt* jinoyatchilarga matnlarni grammatik jihatdan sifatli tayyorlash, jabrlanuvchi haqida ochiq manbalardan ma’lumotlarni tizim-

lashtirish, individuallashtirilgan xabarlar yaratish, ovoz va tasvirlarni sintetik tarzda shakllantirish imkonini bermoqda. “Deepfake” texnologiyalari orqali tanish shaxsning ovozi yoki videotasviriga o‘xshash kontent yaratilib, qarindoshlar, hamkasblar yoki rahbarlar nomidan pul talab qilish holatlari paydo bo‘lmoqda. Interpol (Xalqaro politsiya tashkiloti)ning 2026-yilgi “Global Financial Fraud Threat Assessment” hisobotida sun’iy intellekt yordamida kuchaytirilgan firibgarlikning tez rivojlanayotgani va moliyaviy firibgarlikning uyushgan jinoyatchilik bilan tobora chuqurroq integratsiyalashayotgani qayd etilgan [2].

Bu tendensiya kiberfiribgarlikni shartli ravishda “neyrotexnologik bosqich”ga olib kelmoqda. Ushbu atama yuridik kategoriya emas, balki ilmiy-tahliliy tushuncha sifatida qo‘llanilib, insonning kognitiv va emotsional xususiyatlariga ta’sir qilishda sun’iy intellekt, ovoz sintezi, generativ modellar va personallashtirilgan kontentdan foydalanish jarayonini ifodalaydi. Bunday sharoitda “ovozni eshitish” yoki “videoni ko‘rish”ning o‘zi shaxsning haqiqiyligini tasdiqlovchi dalil bo‘la olmay qoladi. Demak, raqamli identifikatsiya tizimlarida biometrik belgilarning o‘ziga emas, balki bir nechta mustaqil tasdiqlash kanallarining uyg‘unligiga asoslangan yondashuv tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

Kiberfiribgarlikning transmilliy xususiyati ham uning ijtimoiy xavfliligini oshiradi. Jinoyatchi bir davlatda, server boshqa davlatda, jabrlanuvchi uchinchi davlatda, pul mablag‘lari esa to‘rtinchi yurisdiksiyada joylashgan hisob raqami yoki kriptohamyon orqali harakatlanishi mumkin. Shu boisdan ham Interpolning 2025-yilgi “HAECHI VI” – kiber moliyaviy jinoyatlarga qarshi global operatsiyasi [3] 40 ta davlat va hududda o‘tkazilganligi bejizga emas.

O‘z navbatida, bu holat kiberfiribgarlikka qarshi kurashishda milliy huquqni muhofaza qiluvchi organlarning alohida harakati yetarli emasligini, tezkor xalqaro axborot almashinuvi va aktivlarni izlash hamda muzlatish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki O‘zbekiston uchun mazkur masala raqamli iqtisodiyotning kengayishi bilan yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. **“***Raqamli O‘zbekiston — 2030”* strategiyasi [4]. iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan kompleks vazifalarni belgilagan bo‘lib, raqamli xizmatlar ko‘lamining kengayishi kiberxavfsizlik talablarini ham mutanosib ravishda kuchaytirishni talab etadi.

Bundan tashqari, 2026-yil 10-martda qabul qilingan PF–38-son farmon bilan O‘zbekistonning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Kiberxavfsizlik strategiyasi tasdiqlangan bo‘lib [5], unda kibertahdidlarni aniqlash va oldini olish, raqamli kriminalistikani keng qo‘llash, muhim axborot infratuzilmasini himoya qilish, ko‘p faktorli autentifikatsiyani rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va xususiy sektorni kiberxavfsizlik jarayonlariga jalb qilish kabi yo‘nalishlar belgilangan.

Mazkur strategik yondashuv kiberfiribgarlikka qarshi kurashishda profilaktika va raqamli kriminalistika integratsiyasini kuchaytirish uchun muhim huquqiy-institutsional asos yaratadi. Zero, kiberfiribgarlikka qarshi kurashishni faqat sodir etilgan jinoyatni tergov qilish bilan cheklash samarali natija bermaydi. Ushbu sohada “jinoyat sodir bo‘lgandan keyin reaksiya qilish” modelidan “jinoyat sodir bo‘lish ehtimolini oldindan aniqlash va minimallashtirish” modeliga o‘tish zarur. Buning uchun banklar, to‘lov tashkilotlari, telekommunikatsiya operatorlari, internet-platformalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va kiberxavfsizlik subyektlari o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi mexanizmini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Shunga ko‘ra, kiberfiribgarlikning kriminologik profilaktikasi, avvalo, *xavfni erta aniqlashga qaratilishi* kerak. Bunda tranzaksion antifrod tizimlarini rivojlantirish, shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida baholash, noodatiy qurilma yoki geolokatsiyadan kirish holatlarini aniqlash, yuqori xavfli tranzaksiyalar uchun qo‘shimcha tasdiqlash mexanizmlarini joriy etish va shubhali mablag‘lar harakatini tezkor bloklash imkoniyatini kengaytirish muhimdir. Ayniqsa, katta miqdordagi operatsiyalar, yangi qurilmadan kirish, yangi benefitsiarga to‘lov yuborish yoki foydalanuvchining odatiy xulq-atvoridan keskin farq qiluvchi harakatlar risk-indikator sifatida baholanishi mumkin.

Biroq, texnik himoyaning o‘zi yetarli emas. “Verizon” kompaniyasining so‘nggi “Data Breach Investigations Report” tahliliy materiallari ham

inson omili kiberxavfsizlikda muhim risk manbai bo‘lib qolayotganini, shu bilan birga, jinoyatchilar an’anaviy elektron pochta fishingidan tashqari mobil qurilmalar, SMS va ovozli muloqotlarga ko‘proq murojaat qilayotganini ko‘rsatadi [6]. Shu bois aholi va tashkilotlarda raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish kiberfiribgarlik profilaktikasining mustaqil va strategik yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Raqamli gigiyena deganda, bizningcha, kuchli va unikal parollardan foydalanish, ko‘p faktorli autentifikatsiyani yoqish, tasdiqlash kodlarini uchinchi shaxslarga bermaslik, shubhali havolalarni ochmaslik, dasturlarni faqat ishonchli manbalardan yuklash, bank operatsiyalarini mustaqil ravishda rasmiy ilova yoki rasmiy telefon raqami orqali tekshirish, ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha shaxsiy ma’lumot qoldirmaslik va shubhali holatlarni zudlik bilan xabar qilish kabi odatlar majmui tushuniladi. Biroq profilaktik siyosat faqat “foydalanuvchi ehtiyot bo‘lsin” degan yondashuv bilan cheklanmasligi kerak. Aks holda, jinoyatning butun mas’uliyati jabrlanuvchiga yuklanib qolishi mumkin. Aslida esa xavfsizlik “inson–texnologiya–institut” uchligi asosida qurilishi lozim.

Shu munosabat bilan, kiberfiribgarlikka qarshi kurashishning ilmiy asoslangan modeli sifatida *uch darajali profilaktika tizimi* taklif qilinadi.

Birinchi daraja – universal profilaktika bo‘lib, aholi, ta’lim muassasalari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini oshirishga qaratiladi.

Ikkinchi daraja – selektiv profilaktika bo‘lib, kiberfiribgarlik qurboni bo‘lish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar, masalan, raqamli moliyaviy xizmatlardan faol foydalanuvchilar yoki axborot xavfsizligi bo‘yicha yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lmagan guruhlarga mo‘ljallanadi.

Uchinchi daraja – individual profilaktika, u avval firibgarlikka duch kelgan shaxslar, drop sifatida jalb etilish xavfi bo‘lganlar yoki kiberjinoyatchilik muhiti bilan aloqasi aniqlangan shaxslarga nisbatan huquqiy va profilaktik ta’sir choralarini nazarda tutadi.

Kiberfiribgarlikka qarshi kurashishning yana bir muhim yo‘nalishi — jabrlanuvchini ayblash emas, balki uni qo‘llab-quvvatlash tamoyili. Qo‘rquv, uyat va ijtimoiy stigma sababli murojaat qilmaslik latentlikni kuchaytiradi. Shu sababli banklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida firibgarlik holatini xabar qilishning sodda, tezkor va foydalanuvchiga qulay mexanizmlarini yaratish maqsadga muvofiq. Chunki, hodisa sodir bo‘lganidan keyin dastlabki daqiqalarda mablag‘ni bloklash yoki tranzaksiyani to‘xtatish imkoniyati ba’zan jinoyatni tergov qilishdan ham kattaroq amaliy natija berishi mumkin.

Kiberfiribgarlikka qarshi kurashishda *huquqiy mexanizmlarni ham raqamli muhit xususiyatlariga moslashtirish* talab etiladi. Elektron dalillarning maqbulligi, raqamli izlarni saqlash, kripto-aktivlarni identifikatsiya qilish, virtual aktivlar bilan bog‘liq moliyaviy harakatlarni kuzatish, xorijiy provayderlardan ma’lumot olish, transchegaraviy tergov harakatlarini tezlashtirish va raqamli kriminalistika mutaxassislarining protsessual imkoniyatlarini kuchaytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘zbekistonning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Kiberxavfsizlik strategiyasida ham raqamli kriminalistikani keng qo‘llash va transchegaraviy kibertahdidlarga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish vazifalarining belgilangani ushbu yo‘nalishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kiberfiribgarlikning kelgusi rivojlanishini prognoz qilish shuni ko‘rsatadiki, 2030-yilga qadar, jinoiy sxemalarning ommaviyligi bilan bir qatorda, ularning individuallashuvi ham kuchayadi.

Birinchidan, sun’iy intellekt asosidagi generativ vositalar fishing matnlari, ovozli qo‘ng‘iroqlar va videokontentlarni shaxsga moslashtirishni arzonlashtiradi.

Ikkinchidan, kiberfiribgarlik elektron pochtadan mobil messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va ovozli kommunikatsiyalarga yanada ko‘proq ko‘chishi mumkin.

Uchinchidan, jinoiy xizmatlarning ixtisoslashuvi natijasida ma’lumot to‘plash, akkaunt buzish, ijtimoiy muhandislik, pullarni harakatlantirish va legallashtirish kabi jarayonlar turli jinoiy subyektlar o‘rtasida taqsimlanishi ehtimoli yuqori.

To‘rtinchidan, kripto-aktivlar bilan bog‘liq firibgarlik sxemalari yanada murakkablashishi hamda blokcheyn tahlili va aktivlarni muzlatish texnologiyalarining rivojlanishi jinoyatchilar uchun yangi qarshi choralarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Beshinchidan, kiberfiribgarlikda “ishonch infratuzilmasi” uchun raqobat kuchayadi. Jinoyat-

chilar soxta brendlar, soxta akkauntlar, sun'iy intellekt yaratgan ovoz va tasvirlardan foydalanib, raqamli muhitda ishonchni imitatsiya qiladi.

Bu esa ushbu jarayonlarga monand ravishda va ularga javoban banklar, davlat organlari va platformalar foydalanuvchiga ma'lumotning haqiqiy manbasini tekshirish imkonini beruvchi ko'p bosqichli identifikatsiya va tasdiqlash mexanizmlarini rivojlantirishi zarur bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, kelajakda raqamli xavfsizlikning asosiy vazifasi "hujumni to'sish"dan tashqari "ishonchli kommunikatsiyani tasdiqlash"ga ham ko'chishi mumkin.

Mazkur prognozlar asosida O'zbekistonda kiberfiribgarlikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun bir qator ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Avvalo, kiberfiribgarlikning yagona milliy statistik modelini shakllantirish va unda jinoyat turi, hujum kanali, jabrlanuvchi profili, zarar miqdori, tranzaksiya turi, jinoyatning transmilliylik darajasi va jinoiy mablag'larning harakat yo'nalishlarini aks ettirish, shuningdek:

– banklar, to'lov tashkilotlari, telekommunikatsiya operatorlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida firibgarlik indikatorlari bo'yicha *avtomatlashtirilgan axborot almashinuvi* mexanizmlarini rivojlantirish;

– aholi uchun *yagona va oson esda qoladigan* kiberfiribgarlik haqida xabar berish tizimini takomillashtirish;

– davlat xizmatlari va moliyaviy platformalarda ko'p faktorli autentifikatsiyani kengaytirish, yuqori xavfli operatsiyalar uchun dinamik risk baholash tizimlarini joriy etish;

– ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik va media savodxonlik elementlarini nafaqat IT mutaxassislari, balki barcha foydalanuvchilar uchun majburiy kompetensiya sifatida shakllantirish;

– kiberfiribgarlikning ruhiy mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan kriminologik va psixologik tadqiqotlarni ko'paytirish;

– sun'iy intellekt asosidagi "deepfake" va ovozli firibgarliklarni aniqlash texnologiyalarini milliy kiberxavfsizlik tizimiga integratsiya qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shunday qilib, kiberfiribgarlikni faqat axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyat sifatida baholash uning haqiqiy ijtimoiy xavfliligini to'liq ochib bermaydi. U moliyaviy jinoyatchilik, uyushgan transmilliy jinoyatchilik, psixologik manipulyatsiya, raqamli identiklikka tajovuz, ma'lumotlar iqtisodiyoti va kiberxavfsizlik muammolarining kesishgan nuqtasida shakllanayotgan kompleks kriminologik hodisadir. Uning asosiy evolyutsion xususiyati shundaki, jinoyatchi tobora ko'proq texnik tizimni emas, insonning qaror qabul qilish jarayonini nishonga olmoqda, texnik vositalar esa ushbu psixologik ta'sirni masshtablashtirish vositasiga aylanmoqda. Shu sababli kiberfiribgarlikka qarshi kurashishning eng samarali modeli texnik, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, psixologik va profilaktik mexanizmlarni yagona tizimga birlashtirishdan iborat bo'lishi lozim.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya qanchalik tezlashsa, kiberfiribgarlikning jinoiy imkoniyatlari ham shunchalik kengayishi mumkin. Biroq bu raqamlashtirishning o'zi xavf manbai degani emas. Asosiy muammo raqamli texnologiyalar rivoji bilan xavfsizlik madaniyati, huquqiy mexanizmlar va institutsional himoya tizimlari o'rtasidagi nomutanosiblikda namoyon bo'ladi. Shu bois raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi "raqamlashtirish + kiberxavfsizlik + raqamli savodxonlik + samarali huquqiy himoya + tezkor xalqaro hamkorlik" tamoyillarining birligiga asoslanishi kerak.

Foydalanilgan manbalar

1. Fishing faoliyati tendensiyalar hisoboti. 2026-yil. https://apwg.org/trendreports.
2. Interpolning 2026-yilgi "Global moliyaviy firibgarlik xavfini baholash" hisoboti. https://www.interpol.int/News-and-Events/ News/2026/INTERPOL-report-warns-of-increasingly-sophisticated-global-financial-fraud-threat.
3. Global moliyaviy jinoyatlar bo yicha operatsiyalardan 439 million dollar undirildi. 24.09.2025-y. https://www.interpol.int/News-and-Events/News/2025/USD-439-million-recovered-in-global-financial-crime-operation
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-sonli Farmoni. 05.10.2020-y. https://lex.uz/docs/5030957.
5. O'zbekiston Respublikasining 2026 — 2030-yillarga mo ljallangan kiberxavfsizlik strategiyasi. https://lex.uz/docs/8079286.
6. 2026-yilgi ma'lumotlar buzilishi bo'yicha tergov hisoboti. https://www.verizon.com/business/resources/reports/dbir/.

GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR QONUNGA XILOF MUOMALASINING OLDINI OLISHDA JAHON KRIMINOLOGIYASI NAZARIYALARINING QIYOSIY-TANQIDIY TAHLILI



KUTBITDINOV
G'iyosiddin Xusnidinovich
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi mas'ul xodimi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasini oldini olishning nazariy-huquqiy va kriminologik asoslari tadqiq etilgan. Ishda jahon kriminologiya fanida shakllangan fundamental konsepsiyalar, jumladan, anomiya, ijtimoiy nazorat, differensial assotsiatsiya, yorliqlashtirish, kundalik faoliyat, iqtisodiy-ratsional tanlov va viktimologiya nazariyalarining ijobiy jihatlari hamda kamchiliklari qiyosiy-tanqidiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida narkojinoyatchilikdek ko'p omilli illatga qarshi kurashishda yakkalik yondashuvlarining samarasizligi isbotlangan hamda makroijtimoiy, mikroijtimoiy va individual-psixologik determinantlar sintezini nazarda tutuvchi kompleks (integrativ) preventiv siyosatni shakllantirish zarurligi asoslantirilgan.*
Kalit so'zlar: *giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, narkotiklar, qonunga xilof muomala, kriminologiya, jinoyatchilik determinantlari, anomiya nazariyasi, ijtimoiy nazorat, differensial assotsiatsiya, kundalik faoliyat nazariyasi, ratsional tanlov, viktimologiya, yorliqlashtirish nazariyasi, integrativ yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье исследуются теоретико-правовые и криминологические основы предупреждения незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ. В работе проведен сравнительно-критический анализ положительных аспектов и недостатков фундаментальных концепций, сформировавшихся в мировой криминологической науке, включая теории аномии, социального контроля, дифференциальной ассоциации, наклеивания ярлыков, повседневной деятельности, экономического рационального выбора и виктимологии. В результате исследования доказана ограниченность изолированных (единоличных) подходов в борьбе с таким многофакторным злом, как наркопреступность, и обоснована необходимость формирования комплексной (интегративной) превентивной политики, предусматривающей синтез макросоциальных, микросоциальных и индивидуально-психологических детерминант.*
Ключевые слова: *наркотические средства, психотропные вещества, наркотики, незаконный оборот, криминология, детерминанты преступности, теория аномии, социальный контроль, дифференциальная ассоциация, теория повседневной деятельности, рациональный выбор, виктимология, теория наклеивания ярлыков, интегративный подход.*

Abstract. *This article examines the theoretical, legal, and criminological foundations of preventing the illicit traffic in narcotic drugs and psychotropic substances. The paper provides a comparative-critical analysis of the merits and limitations of fundamental concepts established in world criminology, including the theories of anomie, social control, differential association, labeling, routine activity, economic rational choice, and victimology. The study demonstrates the limitations of isolated approaches in combating multi-faceted drug-related crime and substantiates the necessity of establishing a comprehensive (integrative) preventive policy based on the synthesis of macro-social, micro-social, and individual-psychological determinants.*
Keywords: *narcotic drugs, psychotropic substances, drugs, illicit traffic, criminology, determinants of crime, anomie theory, social control, differential association, routine activity theory, rational choice, victimology, labeling theory, integrative approach.*

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasini oldini olishning nazariy-huquqiy asoslarini tadqiq etish borasida jahon kriminologiyada juda boy konseptual maktablar shakllangan. Ushbu jinoyatchilikning oldini olish tizimini tubdan takomillashtirish yo‘nalishida asoslantirilgan taklif, tavsiya va xulosalarni ishlab chiqishdan avval, ushbu salbiy hodisaning asl sabablarini ochib beruvchi fundamental nazariyalarning ijobiy jihatlari va kamchiliklarini sinchiklab o‘rganish maqsadga muvofiq.

XX asr o‘rtalarida amerikalik sotsiolog va kriminolog Robert Merton tomonidan ilgari surilgan ***“anomiya nazariyasi”*** jinoyatchilikning ijtimoiy-strukturaviy omillarini tushuntirishda inqilobiy qadam bo‘lgan edi. Merton o‘z tadqiqotlarida jinoyatchilikni insonning biologik nuqsonlari emas, balki jamiyatning ichki tuzilishidagi ziddiyatlar keltirib chiqarishini nazariy jihatdan isbotlab bergan [1]. Ushbu nazariyaning bosh mazmuni shundan iboratki, u jamiyat a’zolari uchun yagona madaniy maqsadlarni (moddiy boylik, muvaffaqiyat, yuqori ijtimoiy mavqe) singdiradi, biroq ushbu maqsadlarga qonuniy yo‘l bilan erishishning institutsional imkoniyatlari (sifatli ta’lim, daromadli ish o‘rinlari)ni hamma qatlamga birdek kafolatlamaydi.

Merton ushbu ijtimoiy bosim va notenglik sharoitida inson xulq-atvorining 5 ta asosiy moslashuv strategiyasini ajratadi. Biz o‘rganayotgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasini oldini olish muammosi uchun ushbu tasnif ichidagi “chekinish” (retreatism) strategiyasi nazariy jihatdan markaziy ahamiyatga ega. Chekinish strategiyasini tanlagan subyektlar jamiyat tomonidan singdirilgan maqsadlarni ham (moddiy farovonlikka intilishni), ularga erishishning qonuniy vositalarini ham rad etadilar va ijtimoiy tizimdan butunlay chiqib ketishga harakat qiladilar. Nazariy jihatdan aynan mana shu nuqta surunkali giyohvandlikning, toksikomaniyaning va jamiyatdan uzilishning asl ijtimoiy ildizini ifodalaydi. Shaxs ruhiy tushkunlik va ijtimoiy muvaffaqiyatsizlik oqibatida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi muhitida “qo‘nim topadi” va ushbu yashirin dunyoning a’zosiga aylanadi.

Anomiya nazariyasi kriminologiya fanini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasiga sof maishiy yoki biologik (irsiy moyillik) yondashuvlardan qutqarib, unga birinchi marta chuqur makro-ijtimoiy mazmun berdi. U davlatga jinoyatchilikning oldini olish uchun faqat qamoqxonalar qurish emas, balki marginal qatlamlarni kamaytirish, ijtimoiy tengsizlikni yo‘qotish va yoshlar uchun institutsional imkoniyatlarni yaratish zarurligini nazariy jihatdan isbotladi. Mahalliy olimlarimizdan Q.R. Abdurasulova ham o‘z ishlarida jamiyatdagi iqtisodiy notenglik va marginal qatlamlarning paydo bo‘lishi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining bosh determinanti ekanligini bayon qilishda aynan ushbu nazariya yondashuvlariga tayanadi [2].

Chuqurroq mulohaza qiladigan bo‘lsak, Mertonning anomiya nazariyasi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining faqatgina bitta tomonini – narkotik moddalarni notibbiy iste’mol qiluvchi oddiy qaram shaxslar (iste’molchilar)ning xulq-atvorini tushuntira oladi, xolos. Biroq, ushbu nazariya giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi zanjirining eng xavfli bo‘g‘ini bo‘lgan – transmilliy narkosindikatlar rahbarlari, yirik kontrabandachilar va g‘ariqonuniy narkolaboratoriya tashkilotchilari (narkobaronlar)ning motivatsiyasini umuman tushuntirib bera olmaydi. Chunki bu shaxslar jamiyatdan “chekingan” yoki uning maqsadlarini rad etgan shaxslar emas. Aksincha, ular moddiy farovonlik maqsadiga o‘ta qattiq intiluvchi, lekin unga erishishda qonunga xilof vositalardan foydalanuvchi ortiqcha agressiv subyektlardir. Demak, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining tashkiliy va uyushgan shakllarining oldini olishda anomiya nazariyasining nazariy salohiyati cheklangan va sayozdir.

Agar Merton e’tiborni “insonni nima jinoyat sodir etishga undaydi?” degan savolga qaratgan bo‘lsa, amerikalik taniqli kriminolog Trevis Xirshi o‘zining ***“ijtimoiy nazorat (bog‘lanish) nazariyasi”***da [3] mutlaqo teskari yondashuvni ilgari surdi, ya’ni “nima uchun ko‘pchilik insonlar jinoyat sodir etmaydi va ularni qonunga bo‘ysunishga nima majbur qiladi?”. Xirshining fikricha, har bir inson tabiatan qonunni buzishga yoki o‘z ehtiyojlarini oson yo‘l bilan qondirishga (jumladan, narkotik moddalar orqali ruhiy lazzat olishga) moyil bo‘lishi mumkin. Ammo insonni bu qilmishdan to‘xtatib turuvchi yagona kuch – bu uning jamiyat va uning sog‘lom institutlari bilan bo‘lgan ijtimoiy bog‘lanishlaridir.

Xirshi shaxsni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi kabi illatlardan asrovchi 4 ta asosiy ijtimoiy bog‘lanish unsurini nazariy asoslab beradi:

1. Mehr-muhabbat va bog‘liqlik (attachment). Shaxsning ota-onasi, oilasi, ustozlari va yaqinlari bilan ma’naviy bog‘liqligi. Agar shaxs ularning fikrini, hurmatini yo‘qotishdan qo‘rqsa, u giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi kabi jinoiy muhitga kirmaydi.

2. Majburiyat va istiqbol (commitment). Insonning qonuniy hayotda erishgan yutuqlari (o‘qishi, ishi, obro‘si). Shaxs giyohvandlik tufayli ushbu kelajagini boy berishdan qo‘rqishi nazariy preventiv to‘siqdir.

3. Jalb etilganlik (involvement). Inson vaqtining foydali ishlarga (sport, ilm, kasb) sarflanishi. Bo‘sh vaqtning bo‘lmasligi shaxsni jinoiy takliflardan asraydi.

4. Ishonch (belief). Jamiyatning huquqiy va ma’naviy normalari muqaddasligiga bo‘lgan ichki iymon.

Xirshi nazariyasi kriminologiyada institutsional profilaktika konsepsiyasiga asos bo‘ldi. U giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jazo choralari bilan emas, balki, birinchi navbatda, oila, mahalla va ta’lim muassasalari darajasida shaxsning ijtimoiy bog‘lanishlarini mustahkamlash orqali samara berishini isbotladi. Bu yondashuv bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan “mahallabay” va “xonadonbay” huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining eng mustahkam nazariy tayanchi hisoblanadi. MDH olimlaridan K.A. Krasnova ham narkojinoyatchilikning oldini olish tizimini yaratishda ushbu institutsional bog‘lanish omili birinchi qatorga chiqishi kerakligini alohida bayon qilgan [4].

Ushbu nazariyaning zaif tomoni shundaki, u insonning ichki ruhiy-psixologik deformatsiyalarini, addiktiv xulq-atvorini (qaramlikka patologik moyilligini) va iroda zaifligini umuman hisobga olmaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ba’zan juda sog‘lom, ziyoli va ma’naviy bog‘lanishlari kuchli bo‘lgan oilalarning farzandlari ham qiziquvchanlik, ruhiy inqiroz yoki zamonaviy “sintetik” dori vositalarining o‘ta kuchli kimyoviy ta’siri tufayli giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi zanjiriga tushib qolmoqda. Ya’ni, tashqi ijtimoiy bog‘lanishlar kuchli bo‘lsa-da, ichki psixologik omil ustun kelishi mumkin. Xirshi maktabi bu nozik holatni nazariy izohlashda ojizlik qiladi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlar o‘rtasida tarqalishi, “yuqishi” va ijtimoiy transformatsiya jarayonlarini mikro ijtimoiy muhit darajasida tushuntirishda amerikalik taniqli kriminolog Edvin Sazerlend tomonidan ilgari surilgan ***“differensial assotsiatsiya (ijtimoiy o‘rganish) nazariyasi”*** fundamental ahamiyat kasb etadi. Sazerlend o‘z konsepsiyasida jinoyatchilikni tug‘ma illat yoki ruhiy kasallik emas, balki insonning kundalik ijtimoiy muloqoti jarayonida o‘zlashtiradigan oddiy xulq-atvor shakli ekanligini nazariy jihatdan isbotladi [5]. Ushbu nazariyaning bosh qoidasiga ko‘ra, inson atrofidagi shaxslardan nafaqat jinoyat sodir etish usullarini (masalan, giyohvandlik moddasini qanday iste’mol qilish yoki yashirin joylarga qanday qo‘yishni (“zakladka”), balki qonunni buzishga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni, motivlar va oqlovchi argumentlarni ham o‘rganadi

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi kontekstida ushbu nazariya juda hayotiy mazmun kasb etadi. Shaxs agar qonunga bo‘ysunuvchi guruhlarga qaraganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi muhitiga ijobiy baho beruvchi salbiy kichik guruhlar (do‘stlar, tengdoshlar) davrasida ko‘proq vaqt o‘tkazsa va ushbu aloqalarning tezligi, davomliligi hamda shaxs uchun qadrliligi yuqori bo‘lsa, unda jinoiy xulq-atvor modeli muqarrar ravishda shakllanadi.

Sazerlend nazariyasi kriminologiya fanida “kichik guruhlar” va mikromuhit profilaktikasiga asos soldi. U davlatga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining oldini olish uchun faqatgina umumiy ma’ruzalar o‘qish emas, balki yoshlarning kundalik do‘st-

lashish muhitini sog‘lomlashtirish, destruktiv guruhlar paydo bo‘lishining oldini olish va ularni sog‘lom ijtimoiy faoliyatga (sport, madaniy to‘garaklar) yo‘naltirish zarurligini ilmiy isbotlab berdi. Mahalliy olimlardan M.K. Uteniyazov voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olish muammolarini tadqiq etar ekan, yoshlarning jinoiy guruhlarga kirib qolishi va qonunga xilof muomala zanjiriga ilashishi aynan mana shunday salbiy mikro ijtimoiy muhitdagi “o‘rganish” jarayoni oqibati ekanligini bayon qilishda ushbu nazariyaning qoidalaridan muvaffaqiyatli foydalangan [6].

Biroq, ushbu nazariyani giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining bugungi rivojlanish tendensiyalari nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilsak, uning nazariy modelida jiddiy bo‘shliq borligi ko‘rinadi. Differensial assotsiatsiya nazariyasi birinchi bo‘lib ushbu guruhga giyohvandlik vositasini olib kirgan, jinoiy harakatni ilk bor boshlagan yoki tashkil qilgan “yetakchi” (lider) shaxsning jinoiy motivatsiyasi qanday shakllanganini tushuntira olmaydi. Chunki o‘sha birinchi shaxs bu illatni atrofidagilardan o‘rganmagan, balki o‘zi tashabbus ko‘rsatgan. Bundan tashqari, Sazerlend nazariyasi insonning shaxsiy irodasi, tanlov erkinligi va salbiy ta’sirlarga qarshi tura olish qobiliyatini (psixologik bardoshlilik) inobatga olmaydi, insonni go‘yoki atrof-muhitning ko‘r-ko‘rona qurboni sifatida tasvirlaydi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi sohasida davlatning repressiv (jazolovchi) siyosati bilan ijtimoiy-reabilitatsion choralari o‘rtasidagi nozik muvozanatni ilmiy baholashda amerikalik sotsiolog Xovard Beker tomonidan ishlab chiqilgan ***“yorliqlashtirish nazariyasi”*** konseptual ahamiyat kasb etadi. Klassik kriminologiyadan farqli o‘laroq, Beker diqqatni jinoyatchining o‘ziga emas, balki davlat va jamiyatning jinoyatga bo‘lgan reaksiyasiga qaratadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, “og‘ish (deviant) xulq-atvor” shunchaki obyektiv jinoiy harakat emas, balki qonun chiqaruvchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan muayyan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan ijtimoiy bahoning – “jinoyatchi” degan yorliqning natijasi [7].

Beker jinoyatchilik rivojlanishini ikki bosqichga ajratadi: bir martalik adashish bo‘lgan “birlamchi deviatsiya” va davlat tomonidan qo‘llanilgan jinoiy jazodan keyin shakllanuvchi “ikkilamchi deviatsiya”. Agar giyohvandlik zanjiriga adashib kirib qolgan yoki faqat iste’molchi bo‘lgan shaxs davlat tomonidan qattiq jazolansa va unga jamiyatda “giyohvand”, “mahkum” degan rasmiy yorliq yopishtirilsa, insonning normal ijtimoiy hayotga qaytish yo‘llari (ishga kirish, obro‘ga erishish) butunlay yopiladi. Natijada, shaxs ushbu yorliqni ichki psixologik omil sifatida qabul qiladi va jinoiy submadaniyatga yanada chuqurroq singib ketadi.

Yorliqlashtirish nazariyasi zamonaviy kriminologiyada giyohvandlikka qaram shaxslarni faqatgina qamoqqa tiqilishi kerak bo‘lgan jinoyatchi emas, balki tibbiy-ijtimoiy davolanishga va reabilitatsiyaga muhtoj subyekt sifatida ko‘rish tizimining nazariy asosi bo‘lib xizmat qildi. U davlatni haddan tashqari repressiv siyosatdan va ortiqcha kriminalizatsiyadan tiyib turuvchi, jinoiy jazo o‘rniga tibbiy-ijtimoiy ta’sir choralarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatuvchi kuchli ilmiy vositadir. MDH olimlaridan Ye.V. Leonova ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining oldini olishda jazolashdan ko‘ra shaxsni qayta ijtimoiylashtirish dasturlari samaraliroq ekanligini nazariy asoslashda ushbu konsepsiya prinsiplariga tayanadi [8].

Ushbu nazariyaning katta kamchiligi va nazariy zaifligi shundaki, u davlatning qonuniy jinoiy jazo tizimini go‘yoki jinoyatchilikni bartaraf etuvchi emas, balki uni ko‘paytiruvchi salbiy omil sifatida ko‘rsatadi. Nazariya jinoiy jazoning umumiy va xususiy prevensiya (ya’ni potensial jinoyatchilarni qo‘rqitib, to‘xtatib turish) funksiyasini butunlay inkor etadi. Agar biz giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi sohasida yorliqlashtirish nazariyasiga ko‘r-ko‘rona ergashib, jazo choralarini butunlay susaytirsak yoki jinoiy javobgarlikdan voz kechsak, bu ushbu jinoyatchilik tashkilotchilarining mutlaqo jazosiz qolishiga va jamiyatda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi bilan bog‘liq vaziyatining keskin portlashiga olib kelishi muqarrar. Demak, bu yondashuv ham muammoni hal etishda bir tomonlama va muvozanatsizdir.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining muayyan hududlarda va makonlarda (masalan, ma’lum bir tumanlarda, ko‘ngilochar maskanlar atrofida yoki ta’lim muassasalari yaqinida) to‘planishi va rivojlanishini sof kriminologik omillar asosida tushuntirishda L. Koen va M. Felson tomonidan ilgari surilgan ***“kundalik faoliyat nazariyasi”*** muhim o‘rin tutadi [9]. Bu nazariya jinoyatning kelib chiqishini insonning ichki ijtimoiy deformatsiyalari bilan emas, balki kundalik hayotdagi qulay vaziyatlar bilan bog‘laydi. Nazariyaga ko‘ra, har qanday jinoiy qilmish, jumladan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi sodir bo‘lishi uchun vaqt va makon kesimida uchta majburiy unsurning bir vaqtda uchrashishi talab etiladi: motivatsiyalashgan huquqbuzar, munosib nishon va yetarli himoya yoki nazoratning yo‘qligi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi kontekstida ushbu nazariya jinoiy vaziyatni juda aniq ochib beradi. “Motivatsiyalashgan huquqbuzar” – bu narkotiklarni tarqatuvchi yoki yashirin joylarga qo‘yuvchi shaxs; “munosib nishon” – bu giyohvandlikka moyil bo‘lgan yoshlar yoki himoyalanmagan hudud; “yetarli nazoratning yo‘qligi” esa – huquq-tartibot tizimi yo‘nalishlarining sustligi, hududlarning tunda yoritilmaganligi yoki kuzatuv kameralarining mavjud emasligidir.

Koen va Felson nazariyasi kriminologiya fanida “situatsion profilaktika” konsepsiyasi shakllanishiga olib keldi. U huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatchining shaxsini o‘zgartirishga urinishdan ko‘ra, jinoyat sodir etiladigan makonni – tashqi sharoitni o‘zgartirishni, ya’ni jinoyat sodir etishni texnik jihatdan qiyinlashtirishni nazariy asoslab berdi. Bu nazariya bugungi kunda ichki ishlar organlari tomonidan “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz mahalla” dasturlari doirasida kuzatuv kameralarini o‘rnatish, ichki ishlar va Milliy gvardiyaning jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarini “issiq nuqtalar”ga yo‘naltirish faoliyatining ilmiy asosidir. MDH olimlaridan I.A. Tarasov ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining oldini olishda zamonaviy raqamli texnik-kuzatuv metodlarining ustuvor bo‘lishi lozimligini bayon qilishda aynan mana shu situatsion yondashuvga tayanadi [10].

Biroq, ushbu nazariya giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining tub ijtimoiy va kriminologik sabablarini butunlay inkor etadi, ularni o‘rganishni rad etadi. Nazariya jinoyat sodir etilishining faqatgina tashqi sharoitlariga e’tibor qaratadi. Kamchiligi shundaki, agar davlat faqatgina tashqi nazoratni kuchaytirsa (kameralar qo‘ysa, to‘siqlar o‘rnatsa), bu jinoyatchilikning ildizini yo‘qotmaydi, balki uni boshqa – nazorat sust bo‘lgan hududlarga yoki shifrlangan virtual makonga (ijtimoiy tarmoqlar, darknetga) ko‘chishiga olib keladi, xolos. Ya’ni, jinoyatning ichki motivatsiyasi baribir saqlanib qolaveradi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi zanjirining eng xavfli qismi bo‘lgan narkotiklarni ulgurji yetkazib beruvchilar, sotuvchilar va yashirin tarmoq tashkilotchilarining xulq-atvorini tushuntirishda ***“iqtisodiy-ratsional tanlov nazariyasi”*** eng kuchli ilmiy vosita hisoblanadi. Nobel mukofoti laureati Geri Bekker va kriminolog Derek Kornish tomonidan rivojlantirilgan ushbu yondashuv jinoyat sodir etishni insonning ruhiy kasalligi emas, balki uning iqtisodiy jihatdan qilgan ongli, ratsional tanlovi deb hisoblaydi [11]. Nazariyaga ko‘ra, jinoyatchi qilmishga qo‘l urishdan avval “xavf va foyda” nisbatini taroziga qo‘yib baholaydi. Agar jinoyatdan keladigan moliyaviy daromad davlat tomonidan belgilangan jazoning og‘irligi va qo‘lga tushish xavfidan ancha ustun bo‘lsa, shaxs ongli ravishda jinoyat sodir etishni tanlaydi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi sohasida bu nazariya yaqqol namoyon bo‘ladi. Sababi, giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosi dunyodagi eng serdaromad yashirin “biznes” turlaridan biridir. Jinoyatchilar xavf-xatar yuqori bo‘lishiga qaramay, yuqori foyda uchun bu yo‘lni ongli ravishda tanlaydilar.

Ratsional tanlov nazariyasi davlatning jinoiy-huquqiy siyosatini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi. U nazariy jihatdan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining oldini olish uchun jinoyat sodir etish “xavfi”ni keskin oshirish, ya’ni jazoning muqarrarligini ta’minlash va jinoiy daromadlarni musodara qilish mexanizmlarini qat’iylashtirishi shart. Bu yondashuv xorijlik olimlar P. Ryoyter va J. Kalkins ishlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, ular “narkobozor”ning iqtisodiy jozibadorligini sindirish ustuvor preventiv chora ekanligini ko‘rsatib berganlar [12].

Ushbu nazariyaning kamchiligi shundaki, u giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

qonunga xilof muomalasi zanjiridagi barcha subyektlarni birdek “aqlli va ratsional hisob-kitob qiluvchi shaxslar” deb xato baholaydi. Vaholanki, amaliyotda surunkali giyohvandlikka qaram bo‘lgan shaxslarning xulq-atvori hech qanday ratsional mantiqqa bo‘ysunmaydi. Ular navbatdagi dozani topish yoki pul topish uchun jinoyatga qo‘l urayotganda jazoning muddati yoki qo‘lga tushish xavfi haqida umuman o‘ylamaydilar. Ularning harakatlarini iqtisodiy hisob-kitob emas, balki jismoniy-biologik qaramlik va ruhiy deformatsiya boshqaradi. Shu sababli, ratsional tanlov nazariyasi giyohvand jinoyatchilar xususiyatini ochib berishda sayozdir.


Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi muammosini nazariy tadqiq etishda kriminologiyaning maxsus tarmog‘i bo‘lgan ***“viktimologiya nazariyasi”***ni ham chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bu yondashuv diqqatni jinoyatchiga emas, balki jabrlanuvchining shaxsi va xulq-atvoriga qaratadi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi tarkibida jabrlanuvchi roli juda o‘ziga xos fenomen hisoblanadi, chunki bu jinoyatchilikda ko‘pincha an’anaviy ma’nodagi (masalan, o‘g‘rilik yoki qotillikdagi kabi) tashqi aniq jabrlanuvchi mavjud bo‘lmaydi.

Viktimologik nazariya asoschilaridan biri Benjamin Mendelson konsepsiyasiga ko‘ra, narkotiklarni sotib oluvchi va iste’mol qiluvchi shaxsning o‘zi bir vaqtning o‘zida ham huquqbuzar, ham “o‘z-o‘zini jabrlantiruvchi” subyekt (qurbon) sifatida baholanadi [13]. Bu yerda shaxsning viktimligi uning psixologik zaifligi, ijtimoiy deformatsiyasi yoki atrof-muhitning salbiy ta’siri natijasida yuzaga keladi va u jinoiy tarmoqlarning qurboniga aylanadi.

Viktimologik nazariyaga ko‘ra, narkotiklarni sotib oluvchi va iste’mol qiluvchi shaxsning o‘zi bir vaqtning o‘zida ham huquqbuzar, ham “o‘z-o‘zini jabrlantiruvchi” subyekt hisoblanadi. Bu yerda shaxsning viktimligi uning psixologik zaifligi, ijtimoiy deformatsiyasi yoki atrof-muhitning salbiy ta’siri natijasida yuzaga keladi va u jinoiy tarmoqlarning qurboniga aylanadi. Mahalliy olimlardan J.S. Anvarov ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining profilaktikasida viktimologik usullarini qo‘llash, ya’ni potensial iste’molchilarning viktimlik darajasini kamaytirish orqali narkobozordagi “talab”ni so‘ndirish mumkinligini aynan ushbu nazariya asosida bayon qilgan [14].

Ushbu yondashuvning zaif tomoni shundaki, u jinoyatchi bilan jabrlanuvchi o‘rtasidagi huquqiy chegarani xiralashtirib yuboradi. Narkotik modda iste’mol qiluvchi shaxsni haddan tashqari “qurbon” sifatida ko‘rsatish va uni ayash, jamiyatda ushbu qilmish uchun shaxsiy javobgarlik hissini susaytirib yuborishi mumkin. Fransuz kriminologi R. Kassan o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, viktimlikka ortiqcha urg‘u berish jinoyatning obyektiv ijtimoiy xavflilik darajasini soyada qoldiradi [15]. Vaholanki, har bir shaxs o‘z qilmishi uchun qonun oldida ongli ravishda javob berishi shart. Bu nazariya huquqiy javobgarlik prinsipini zaiflashtirish xavfini tug‘diradi.

Yuqorida qayd etilgan jahon kriminologiyasining fundamental nazariyalari (anomiya, ijtimoiy nazorat (bog‘lanish), differensial assotsiatsiya (ijtimoiy o‘rganish), yorliqlashtirish, kundalik faoliyat, ratsional tanlov, viktimologiya) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasi muammosini ma’lum bir yondashuv orqali muvaffaqiyatli yoritib bersa-da, ularning hech biri ushbu transmilliy va ko‘p omilli illatni yakka o‘zi to‘liq izohlashga qodir emas. Shu sababli, zamonaviy preventiv siyosatda kompleks (integrativ) yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Unga ko‘ra, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar qonunga xilof muomalasining oldini olish bir vaqtning o‘zida uchta darajadagi omillar – makroijtimoiy (iqtisodiy notenglik, qonunchilik bo‘shliqlari), mikroijtimoiy (oila, mahalla, do‘stlar davrasi) va individual-psixologik (shaxsning addiktiv xulq-atvori, viktimligi) determinantlarning o‘zaro sintezi asosida tashkil etilishi shart.



Foydalanilgan manbalar

1. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – М.: АСТ, 2006. – С.142–145.
2. Абдурасулова Қ.Р. Криминология: Дарслик. – Тошкент: ТДЮУ, 2021. – С.115
3. Hirschi T. Causes of Delinquency. – Berkeley: University of California Press, 1969. – Pp. 68.
4. Краснова К. А. Криминологическая система предупреждения преступности несовершеннолетних в сфере незаконного оборота наркотиков: Дис. ... д-ра юрид. наук. – Москва, 2016. – С. 215.
5. Sutherland E. H. Principles of Criminology. – Philadelphia: Lippincott, 1947. – Pp. 89.
6. Утениязов М.К. Вояга етмаганлар гиёҳвандлигининг олдини олиш муаммолари: Юрид. фан. ном ... дис. автореф. – Тошкент, 2004. – 22 б.
7. Becker H. S. Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance. – New York: Free Press, 1963. – P. 53.
8. Леонова Е. В. Предупреждение преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ: Дис. ... канд. юрид. наук. – Пермь, 2014. – С. 92.
9. Cohen L.E., Felson M. Social Change and Crime Rate Trends: A Routine Activity Approach // American Sociological Review. – 1979. – Vol. 44. – No. 4. – Pp. 588.
10. Тарасов И.А. Особенности расследования преступлений в сфере незаконного оборота наркотивов: дис. ... канд. юрид. наук. – Красноярск, 2022. – С. 105.
11. Корниш Д., Кларк Р. Рациональный выбор и ситуативная профилактика преступлений // Криминология и общество. – М., 2004. – С. 24.
12. Reuter P., Caulkins J.P. The analytical foundations of drug policy // Journal of Policy Analysis and Management. – 2011. – Vol. 30. – No. 1. – Pp. 120.
13. Mendelsohn B. La victimologie: Une nouvelle branche de la science bio-psycho-sociale // Revue Internationale de Criminologie et de Police Technique. – Genève, 1956. – Vol. 10. – No. 2. – Pp. 40.
14. Анваров Ж.С. Гиёҳвандлик воситаларининг қонунга хилоф муомаласи билан боғлиқ жиноятчиликнинг виктимологик профилактикасини такомиллаштириш: Юрид. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент: ИИВ Академияси, 2022. – С.78.
15. Cassagne R. Les paradoxes de la victimologie moderne и dans la criminalité liée aux stupéfiants // Revue de science criminelle et de droit pénal comparé. – Paris, 2018. – No. 3. – Pp.112.



JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



BOLIYEV
Umar Usmonovich
Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada jinoyatchilikning oldini olishning mazmun-mohiyati, profilaktikaning asosiy yo'nalishlari va O'zbekistonda shakllanayotgan milliy yondashuv tahlil qilingan. Jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali yo'li jinoyat sodir etilgandan keyin chora ko'rish emas, balki uni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldindan aniqlab, bartaraf etishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, mahalla tizimi, aholi bilan manzilli ishlash va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish profilaktikaning muhim omili sifatida baholangan. Ayni paytda, idoralararo axborot almashinuvi, raqamli jinoyatchilikka qarshi kurashish va jabrlanuvchilar bilan ishlashda mavjud kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va jamoatchilikning profilaktikadagi rolini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.*
Kalit so'zlar: *jinoyatchilik, jinoyatchilikning oldini olish, profilaktika, huquqbuzarlik, jamoat xavfsizligi, mahalla tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, raqamli jinoyatchilik, jabrlanuvchi, kriminologiya*

Аннотация. *В статье анализируются сущность профилактики преступности, основные направления предупредительной деятельности и формирующийся в Узбекистане natsіональный подход к решению этой задачи. Наиболее эффективный способ борьбы с преступностью заключается не в принятии мер после совершения правонарушения, а в заблаговременном выявлении и устранении причин и условий, способствующих его возникновению. С этой точки зрения важными факторами профилактики считаются система махалли, адресная работа с населением и расширение участия общественности. В то же время отмечаются недостатки в межведомственном informatsіonном обмене, борьбе с киберпреступностью и работе с потерпевшими. Для решения этих проблем в статье выдвигаются практические предложения по совершенствованию правовых механизмов, эффективному использованию цифровых технологий, укреплению межведомственного взаимодействия и повышению роли общественности в профилактической деятельности.*
Ключевые слова: *преступность, предупреждение преступности, профилактика, правонарушение, общественная безопасность, институт махалли, правоохранительные органы, цифровая преступность, потерпевший, криминология.*

Abstract. *This article analyzes the essence of crime prevention, the main directions of preventive activities, and the national approach to addressing this task currently emerging in Uzbekistan. The most effective way to combat crime lies not in taking measures after an offense has been committed, but in proactively identifying and eliminating the causes and conditions that contribute to its occurrence. From this perspective, the «mahalla» system, targeted engagement with the population, and expanded public participation are considered key factors in prevention. At the same time, shortcomings are noted in interagency information sharing, the fight against cybercrime, and support for victims. To address these issues, the article puts forward practical proposals for improving legal mechanisms, effectively utilizing digital technologies, strengthening interagency cooperation, and enhancing the role of the public in prevention efforts.*
Keywords: *Crime, crime prevention, prophylaxis, offense, public safety, mahalla system, law enforcement agencies, digital crime, victim, criminology.*

Jinoyatchilikka qarshi kurashish davlatning faqat repressiv (jazolash) funksiyasi emas, balki shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks ijtimoiy-huquqiy faoliyatidir. Zamonaviy kriminologiyada "jinoyat sodir bo'lgandan keyin javob berish" modeli tobora ko'proq "xavfni oldindan aniqlash – sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish – jabrlanuvchini himoya qilish – natijani o'lchash" zanjiri bilan to'ldirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida profilaktika huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish, shuningdek, ularning sodir etilishi sabablarini hamda ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik choralar tizimi sifatida mustahkamlangan [1].

Jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, unda tinchlik, osoyishtalik va huquqiy tartibning mustahkam bo'lishiga bog'liq. Fuqarolar o'z uylarida, ko'chada, ishxonasida o'zini xavfsiz his qilgan jamiyatda insonlar farovon yashaydi, jamiyatda iqtisodiyot rivojlanadi. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish masalasi barcha davlatlardagi kabi O'zbekistonda ham doimiy dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ko'pchilik *"jinoyatchilikka qarshi kurashish"* deganda faqat ichki ishlar organlarining jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topishi va jazolashini tushunadi. Aslida esa, jinoyatchilikning oldini olish masalasi bu bilan cheklanmaydi.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng to'g'ri yondashuv – jinoyat sodir etilgandan keyin chora ko'rish emas, balki uning oldini olishdir. Buning uchun jinoyatga olib kelishi mumkin bo'lgan sabab va sharoitlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish lozim. Oddiy qilib aytganda, kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul. Jinoyatchilikka ham shu tamoyil asosida yondashish lozim.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 2020-yildagi 62 081 tadan 2025-yilda 155 002 taga yetgan [2]. Biroq bu o'sishni avtomatik ravishda "jinoyatchilik ikki yarim baravar yomonlashdi" deb talqin qilish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Birinchidan, ro'yxatga olish va aniqlash amaliyotidagi o'zgarishlar statistikaga ta'sir qiladi. Ikkinchidan, 2025-yil yakunida jami jinoyatlarning 49,6 foizi kiberjinoyatlar hissasiga to'g'ri kelgan, oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlar esa 4,6 foizga kamaygan [3]. Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatni baholashda jinoyatlarning tuzilishi, latentlik, aniqlanish, hududiy va viktimologik xususiyatlar va profilaktika natijalarini birgalikda tahlil qilish talab etiladi.

Q.R.Abdurasulova kriminologiyaning hozirgi vazifalarini jinoyatchilik, uning sabab va shart-sharoitlari, jinoyatchi shaxsi, jabrlanuvchi va profilaktika qonuniyatlarini o'rganish, kriminologik prognozlash hamda amaliyotni ilmiy taklif va tavsiyalar bilan ta'minlash bilan bog'laydi [4]. N.S. Salayev penitensiar tizim misolida profilaktika faqat jazoni ijro etish jarayoni emas, balki mahkumni qayta ijtimoiylashtirish, psixologik qo'llab-quvvatlash, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan kompleks funksiya[5] ekanini ta'kidlaydi.

Nazarimizda, ilmiy nazariy jihatdan jinoyat va jinoyatchilik bir-biridan farq qilishini aniq va tushunarli tushunchalar bilan quyidagicha farqlash maqsadga muvofiq:

Ya'ni, ***jinoyat*** – bu muayyan bir shaxs tomonidan sodir etilgan, jinoyat qonuni bilan taqiqlangan va jazo belgilangan aniq qilmish. Masalan, o'g'rilik, firibgarlik, tan jarohati yetkazish yoki pora olish alohida jinoyat hisoblanadi. Demak, jinoyat deganda bitta aniq voqea yoki qilmish tushuniladi. ***Jinoyatchilik*** esa – muayyan hududda va ma'lum vaqt davomida sodir etilgan barcha jinoyatlarning umumiy holatini ifodalovchi ijtimoiy hodisa. Masalan, bir yil davomida Toshkent shahrida sodir etilgan barcha o'g'rilik, firibgarlik, bezorilik va boshqa jinoyatlar yig'indisi jinoyatchilik holatini ko'rsatadi.

O'z o'rnida, "jinoyatchilikning oldini olish" jumlasining ham aniq ma'nosini ifodalash lozim. Xususan, *jinoyatchilikning oldini olish* jinoyat sodir etilgandan keyin unga munosabat bildirish emas, balki jinoiy xavfni oldindan ko'ra bilish, uni yuzaga keltiruvchi omillarga maqsadli ta'sir ko'rsatish va jamiyatda xavfsiz huquqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz kriminologik faoliyatdir.

Milliy kriminologik maktabda jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, shaxsning g'ayriijtimoiy xulqini tuzatish, jabrlanuvchining

xavfsizligini ta’minlash, prognozlash va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi.

Q.R. Abdurasulovaning talqiniga ko‘ra, kriminologiya amaliyotdan ajralgan nazariy fan emas, balki huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun ilmiy tavsiyalar beruvchi ijtimoiy-huquqiy fan hisoblanadi. Bu fikr profilaktika qarorlarini «tajribada shunday» degan idoraviy odatga emas, balki tahliliy dalillarga asoslash kerakligini anglatadi.

N.S. Salayevning penitensiar profilaktikaga doir tadqiqotlari esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda jazoni ijro etishdan keyingi bosqichning ahamiyatini ko‘rsatadi. Muallif qayta ijtimoiylashtirish, psixologik yordam va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish retsidivning oldini olishga xizmat qilishini asoslaydi. Shundan kelib chiqib, probatsiya nazorati faqat cheklov va tekshiruvlar majmui sifatida emas, bandlik, hujjatlashtirish, kasbiy ko‘nikma, oilaviy muhit va ijtimoiy xizmatlar bilan bog‘langan «qayta integratsiya yo‘nalishi» sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Amaliyotda ijtimoiy profilaktika va manzilli ishlash elementlari kengaymoqda. Ichki ishlar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilning birinchi olti oyida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar 2 011 taga kamaygan va mahallalarning 55 foizida jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmagan [6]. Shuningdek, 2025-yilda besh viloyatdagi kriminogen vaziyati og‘ir 419 ta mahallaga xizmat qiluvchi mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilib, profilaktika, tezkor-qidiruv, patrul-post, yo‘l-patrul, xotin-qizlar va probatsiya yo‘nalishlari bir nuqtada integratsiya qilingan [7]. Mazkur modelning kuchli jihati muammoni faqat profilaktika inspektoriga yuklamasdan, funksional guruh asosida hal etishdan iborat.

Raqamli va texnik vositalardan ham keng foydalanilmoqda. Masalan, birgina Yakkabog‘ tumanida 2025-yil davomida mahallalarning kirish-chiqish joylari, ko‘p qavatli uylar, savdo markazlari, bozorlar va maktablarga 1 054 ta videokuzatuv kamerasi, 104 ta domofon majmuasi va 63 ta tashvish tugmasi o‘rnatilgani qayd etilgan [7]. Bunday infratuzilma jinoyatning fosh etilishi va tezkor javob choralariga yordam berishi mumkin, biroq uning real profilaktik ta’siri jinoyatlar soni, takroriy chaqiriqlar, fosh etish vaqti va fuqarolarning xavfsizlik hissi kabi indikatorlar bilan alohida baholanishi zarur.

E’tiborli tomoni bugungi kunda O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olishda mahallaning o‘rni juda muhim. Mahalla aholi bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi va hududdagi muammolarni tezda aniqlash imkoniyatiga ega. Shu sababli mahalla tizimi orqali jinoyatlarning oldini olish tajribasi o‘ziga xos “o‘zbek modeli” sifatida qaraladi [8]. Bu tizimda mahalla faollari, profilaktika inspektorlari va jamoat tashkilotlari birgalikda ishlaydi. Ular muammoli oilalarni o‘z vaqtida aniqlaydi, ular bilan ishlaydi va oiladagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, yoshlar va boshqa nazoratga muhtoj fuqarolar bilan profilaktik ishlar olib boriladi. Bunday hamkorlik jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rishdan ko‘ra, uning oldini olishga ko‘proq yordam beradi. Eng muhimi, mahalladagi muammolar qancha erta aniqlansa, ularni hal qilish va jinoyat sodir bo‘lishining oldini olish imkoniyati shuncha yuqori bo‘ladi.

2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan Prezident qarorida mahallalarda jinoyatlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratilgan. Unda har bir mahallada jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘layotgan muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish vazifasi belgilangan. Ayniqsa, oilaviy nizolar va oila-turmush munosabatlari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishda ilmiy yondashuvdan foydalanish, ya’ni avval muammoni o‘rganish, keyin amaliy tavsiya berish va uning natijasini tekshirish tartibi joriy etilgan [9].

2026-yil 5-yanvarda qabul qilingan Prezident qarori bilan bu ishlar yanada kuchaytirildi. Unda kriminogen vaziyati murakkab, ya’ni “qizil” toifaga kiritilgan mahallalarda jinoyatlarning oldini olish va xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha manzilli choralar belgilab berildi. Shuningdek, hokimlar va huquq-tartibot idoralari rahbarlarining bu yo‘nalishdagi mas’uliyati kuchaytirildi [10].

Bu o‘zgarishlardan ko‘rinib turibdiki, jinoyatchilikning oldini olish faqat ichki ishlar organlarining vazifasi emas. Bu ishda mahalliy hokimliklar, prokuratura, mahalla faollari, jamoatchilik va ilmiy muassasalar ham birgalikda ishtirok etishi kerak. Asosiy maqsad – jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rish emas, balki uning sababini oldindan aniqlab, muammoni o‘z vaqtida hal qilishdir.

Bu borada ayrim xorijiy mamlakatlarda jinoyatchilikning oldini olishda politsiya va aholi hamkorligiga katta ahamiyat beriladi. Bunday yondashuvda politsiya faqat jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rmaydi, balki mahalliy aholi bilan birga muammolarni aniqlab, ularning oldini olishga harakat qiladi. BMTning jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha materiallarida ham jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va aholi bilan hamkorlikda ishlash samarali usullardan biri sifatida ko‘rsatilgan [10].

Shuningdek, ko‘plab davlatlarda jinoyat sodir etgan shaxslarni jazoni o‘tab bo‘lgandan keyin jamiyatga qayta moslashtirishga e’tibor qaratiladi. Bunda ularga ish topish, kasb o‘rgatish, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi choralar qo‘llaniladi. UNODC (***BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi*** (*United Nations Office on Drugs and Crime*) ma’lumotlariga ko‘ra, bunday reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv dasturlari qayta jinoyat sodir etish xavfini kamaytirishga yordam beradi [11].

Erishilgan yutuqlarga qaramasdan, jinoyatchilikning oldini olish yo‘nalishida hali ham ***ayrim muammolar*** mavjud.

Birinchidan, axborot almashinuvi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimiyat, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari o‘rtasida xavfli holatlar haqidagi ma’lumotlar har doim ham o‘z vaqtida almashilmaydi. Masalan, oiladagi zo‘ravonlik yoki voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi kabi holatlar haqida ma’lumot kech yetkazilsa, muammoni o‘z vaqtida bartaraf etish yoki huquqbuzarlikning oldini olish qiyinlashadi.

Ikkinchidan, profilaktika ishlari ayrim hollarda tizimli olib borilmaydi. Oiladagi muammolarni aniqlash va jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha ishlar ba’zan vaqtinchalik tadbirlar bilan cheklanib qoladi. Aslida profilaktika doimiy ravishda, muammoning sabablarini o‘rgangan holda olib borilishi kerak .

Uchinchidan, raqamli jinoyatchilikka qarshi kurashishda ayrim kamchiliklar mavjud. Internet orqali sodir etiladigan firibgarlik, kiberhujum va boshqa huquqbuzarliklar yangi usullarda sodir etilmoqda. Shu sababli ularni aniqlash va oldini olish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish hamda mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarur.

To‘rtinchidan, jabrlanuvchilar bilan ishlashni yanada kuchaytirish lozim. Jinoyatdan jabrlangan shaxslarga psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Bunday yordamning yetarli bo‘lmasligi ayrim hollarda jabrlanuvchilarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishdan tortinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Beshinchidan, profilaktika ishlarining natijalarini baholash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Amalga oshirilgan profilaktika tadbirlari haqiqatan ham jinoyatchilikni kamaytirishga qanchalik ta’sir qilayotganini aniqlash uchun aniq statistik va ilmiy mezonlardan foydalanish kerak. Bunday baholash kelgusida qaysi usullar samarali, qaysi yo‘nalishlarda esa qo‘shimcha choralar zarurligini belgilash imkonini beradi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi ishlarga e’tibor berish zarur:

Birinchisi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimliklar, mahalla va boshqa tegishli tashkilotlar o‘rtasida axborot almashish tizimini takomillashtirish zarur. Bunda jinoyatchilik holati, huquqbuzarlikka moyil shaxslar, xavf omillari va jinoyatchilik darajasi yuqori hududlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona elektron tizim orqali o‘z vaqtida almashish muhimdir. Bu esa xavflarni barvaqt aniqlash, muammoli hudud va shaxslarni belgilash hamda manzilli profilaktik choralarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ikkinchisi, profilaktika ishlarini kuchaytirish lozim. Bunda jinoyatchilikning holati va dinamikasi, uning sabab va shart-sharoitlari hamda xavf guruhidagi shaxslarni tahlil qilish asosida xavflarni oldindan aniqlash va manzilli profilaktik choralarni o‘z vaqtida amalga oshirish zarur.

Uchinchisi, jinoyatlarning oldini olish va ularni tezkor aniqlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Xususan, videokuzatuv tizimlari, sun’iy intellekt, geoinformatsion tizimlar (GIS), raqamli ma’lumotlar bazalari va analitik platformalardan foydalanish jinoyatchilikning hududiy va vaqt bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish, xavfli hududlarni aniqlash hamda profilaktik choralarni manzilli tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, kiberjinoyatlarni aniqlash, raqamli izlarni tahlil qilish va kiberxavflarga tezkor javob qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchisi, jinoyatchilikning oldini olishda mahalla va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish zarur. Xususan, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, xavf guruhidagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni olib borish, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda muammoli holatlar haqida mas’ul tashkilotlarni o‘z vaqtida xabardor qilishda mahalla faollari va jamoatchilik rolini oshirish muhimdir. Bunday hamkorlik xavflarni barvaqt aniqlash, manzilli profilaktik choralarni amalga oshirish va xavfsiz ijtimoiy muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Beshinchisi, jinoyat qurbonlariga ko‘rsatiladigan yordam samaradorligini oshirish zarur. Amaldagi tizimda ayollar va voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish mexanizmlari mavjudligini inobatga olib, xizmatlarning tezkorligi va o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, shuningdek, barcha toifadagi jabrlanuvchilarning zarur yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Jabrlanuvchilarni zarur xizmatlarga tezkor yo‘naltirish, individual ehtiyojlarini hisobga olish va takroriy jabrlanishning oldini olish bo‘yicha idoralararo hamkorlikni kuchaytirish ularning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.


Oltinchisi, profilaktika ishlari samaradorligini muntazam baholab borish zarur. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimliklar va boshqa mas’ul tashkilotlar jinoyatchilik va huquqbuzarliklar dinamikasi, profilaktik chora-tadbirlar natijadorligi hamda hududdagi xavf omillarining o‘zgarishini aniq mezonlar asosida tahlil qilishi lozim. Bu samarasiz choralarni aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va keyingi profilaktik tadbirlarni real natijalarga asoslangan holda belgilash imkonini beradi.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini zamonaviy kriminologiya nazariyalari va usullari bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, zamonaviy kriminologiya, viktimologiya va sotsiologiya fanlari jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan turli nazariya va konsepsiyalarni ishlab chiqqan bo‘lib, ularni amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etish profilaktika samaradorligini oshiradi [12].

Demak, *xulosa sifatida* shuni ta’kidlash kerakki, jinoyatchilikning oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas. Bu ishda davlat tashkilotlari, mahalla, jamoatchilik va oila hamkorlikda ishlashi kerak. Eng muhimi, jinoyat sodir bo‘lgandan keyin chora ko‘rish emas, balki uning sabablarini oldindan aniqlash va bartaraf etishdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha mahalla tizimiga tayangan yondashuv tobora kuchayib bormoqda. Mahalladagi muammolarni aniqlash, aholi bilan ishlash va profilaktika choralarini belgilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda mas’ul tashkilotlar va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, axborot almashinuvini yaxshilash, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, jabrlangan shaxslarga yordam ko‘rsatish va profilaktika ishlarining natijalarini baholashni yanada kuchaytirish zarur.

Buning uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, idoralar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va profilaktika ishlariga ilmiy yondashuvni kengaytirish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, jinoyatchilikning oldini olishda eng samarali yo‘l – muammoni oldindan ko‘rish, uning sababini aniqlash va o‘z vaqtida chora ko‘rish. Bu kabi yondashuvlar faqat jinoyatlar sonini kamaytirishga emas, balki mamlakatda fuqarolar o‘zini xotirjam va xavfsiz his qiladigan muhitni shakllantirishga ham yordam beradi.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonuni. URL: https://lex.uz/docs/2387357
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni (hududlar bo'yicha), indikator 2.04.09.0001. Yangilangan: 22.04.2026. URL: https://siat.stat.uz/data/800/?lang=uz.
3. O 'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. 2025-yil 12 oyi yakunlari bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumot // Rasmiy portal materiali, 2026.
4. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya fanining vujudga kelishi, dolzarb vazifalari va rivojlanish istiqbollari // Yurisprudensiya, 2026. – 4(4). – B. 77–88. URL: https://yurisprudensiya.tsul.uz/index.php/yurisprudensiya/article/view/634
5. Salayev N.S. Penitensiar tizimda profilaktik funksiyaning ahamiyati va uning samaradorligini ta'minlash masalalari // Yurisprudensiya, 2026. URL: https://yurisprudensiya.tsul.uz/index
6. O'zbekiston Respublikasi IIVda 2025-yil 6 oyi davomida huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan videoselektor yig'ilishi, 13.07.2025. URL: https://gov.uz/iiv/news/view/68142.
7. O'zbekiston Respublikasi IIV “Mahallaga xavfsizlik, fuqaroga xotirjamlik – Davlat rahbarining qaror va topshiriqlari ijroda”, 2025. URL: https://gov.uz/oz/iiv/news/view/81428.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ-2-son “2026-yilda respublika mahallalarida jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. Rasmiy ijro materiallari: https://gov.uz/oz/zomin/news/view/128463.
9. Маҳаллаларда жиноятчиликнинг олдини олишда илмий ёндашув жорий этилмоқда. NORMA.UZ. Манба: https://www.norma.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarori. – Toshkent, 2026.
11. Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar. Ilmiy maqola (kriminologiya nazariyalari bo'yicha). Manba: https://proacademy. uz/postfiles/ sets/l5/-9/L5- 9b0QfV26NAIJH4 AUgHydSV6htFVW6.pdf.
12. Kriminologiyaning dolzarb masalalari: "Xavfsiz oila" (oilada profilaktika muammolari bo'yicha). Manba: https://kti.iiv.uz/storage/journal/files/ btMMwxA6STWbnVWwpfsh2CvheKkFeO.



HUQUQBUZARLIKLAR VA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA IJTIMOIY TARMOQLAR HAMDA JAMOATCHILIK FIKRIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH



MURZAJANOV
Shavkatbek Gafurovich
Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Maqolada huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish masalalari kriminologik jihatdan tahlil qilingan. An'anaviy murojaat shakllaridan raqamli platformalarga o'tish, ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy fikr va aholi kayfiyatini monitoring qilishning ahamiyati ochib berilgan. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalari yordamida latent jinoyatchilikni aniqlash hamda viktimologik profilaktika samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Ijtimoiy mediada sun'iy intellektdan foydalanish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan jamiyat o'rtasida raqamli dialog modelini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.*
Kalit so'zlar: *kriminologiya, murojaatlar mexanizmi, ijtimoiy tarmoqlar, jamoatchilik fikri, huquqbuzarliklar profilaktikasi, raqamli politsiya faoliyati, sun'iy intellekt, latent jinoyatchilik.*

Аннотация. *В исследовании с криминологической точки зрения анализируются вопросы совершенствования механизма работы с обращениями граждан в сфере борьбы с правонарушениями и преступностью. Раскрывается значимость перехода от традиционных форм обращений к цифровым платформам, а также мониторинга общественного мнения и настроений населения в социальных сетях. Рассмотрены способы выявления латентной преступности и повышения эффективности виктимологической профилактики с помощью технологий искусственного интеллекта и больших данных (Big Data). Выдвинуты практические предложения по внедрению искусственного интеллекта в социальные медиа и формированию модели цифрового диалога между правоохранительными органами и обществом.*
Ключевые слова: *криминология, механизм обращений, социальные сети, общественное мнение, профилактика правонарушений, цифровая полицейская деятельность, искусственный интеллект, латентная преступность.*

Abstract. *This study provides a criminological analysis of improving the mechanism for handling citizens' appeals in the field of combating offenses and crime. The article highlights the significance of transitioning from traditional forms of appeals to digital platforms, as well as monitoring public opinion and attitudes on social networks. It explores ways to detect latent crime and increase the effectiveness of victimological prevention using artificial intelligence and Big Data technologies. In conclusion, practical proposals are put forward for the integration of artificial intelligence in social media and the creation of a digital dialogue model between law enforcement agencies and society.*
Keywords: *criminology, mechanisms of appeals, social networks, public opinion, crime prevention, digital policing, artificial intelligence, latent crime.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlarining bosh mezonlaridan biri – fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligiga erishishdan iborat. Xususan, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning oldini olish borasidagi davlat siyosati endilikda faqatgina idoraviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, balki keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan yaqin hamkorlikka asoslanmoqda.

Hozirgi shiddatli raqamli taraqqiyot davrida axborot almashish tezligining ortishi, xususan, ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizga chuqur kirib borishi fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. An'anaviy murojaatlar bilan ishlash shakllari bilan bir qatorda, virtual fazodagi jamoatchilik fikri, Internet foydalanuvchilarining munosabati va ijtimoiy tarmoqlardagi muammoli xabarlar huquqbuzarliklarning latent (yashirin) shakllarini o'z vaqtida aniqlash va ularning barvaqt oldini olishda muhim signal vazifasini o'tamoqda.

Huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ijtimoiy tarmoqlar hamda jamoatchilik fikridan foydalanish mexanizmlarining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari nisbatan yangi yo'nalish bo'lganligi bois hozirgi kunda yetarlicha tadqiq etilmagan sohalardan biridir.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan izlanishlar davomida Internet va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan kriminologik profilaktika jarayonida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berishga, aholi murojaatlariga tezkor munosabat bildirish orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qildik.

Ushbu mavzuda olimlarning jinoyatchilikka qarshi kurashda jamoatchilik fikri va murojaatlar bilan ishlashga oid qarashlariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda kriminologiya va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini rivojlantirishda mahalliy olimlar jamoatchilik bilan hamkorlik va aholi fikrini o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. Zero, ichki ishlar organlarining faoliyatiga faqatgina yuqoridan beriladigan baho emas, balki oddiy fuqarolarning tizimga bo'lgan ishonchi birlamchi mezon hisoblanadi.

Taniqli kriminolog olim I.Ismailov o'z tadqiqotlarida huquqbuzarliklarning oldini olishda mahalla va jamoatchilikning rolini tizimli tahlil qilgan. Uning fikricha, jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar aholi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, fuqarolardan kelib tushayotgan har bir murojaatni chuqur tahlil qilishi shart. Olim jamoatchilik fikrini o'rganish orqali hududlardagi real kriminogen vaziyatni to'g'ri baholash mumkinligini asoslab bergan [1].

Q.Rasulev esa jinoyatchilikning oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalari va Internet imkoniyatlaridan foydalanish masalasiga to'xtalib o'tadi. Uning qarashlariga ko'ra, bugungi kunda virtual makonda sodir etilayotgan kiberjinoyatlar va firibgarliklarning oldini olish uchun aholining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi hamda ular tomonidan qoldirilayotgan xabarlarni tezkorlik bilan o'rganish zarur. Bu esa latent, ya'ni yashirin jinoyatlarni erta aniqlashga yordam beradi [2] .

Jamoatchilik fikri va fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash tizimini huquqiy jihatdan takomillashtirish haqida gap ketganda, yuridik fanlar doktori M. Rustambayevning fikrlari muhim ahamiyatga ega. Olim davlat organlariga kelib tushayotgan murojaatlarning sifatli hal etilishi jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashning bosh omili ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar orqali bildirilayotgan xalq noroziligi yoki takliflari qonuniy tartibda o'rganilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyasini belgilashda inobatga olinishi lozim [3].

Shuningdek, kriminolog Z.Illarionova o'z ishlarida viktimologik profilaktika, ya'ni fuqarolarning jinoyat qurboniga aylanib qolishining oldini olish masalalarini tadqiq etgan. Olimaning fikricha, ijtimoiy tarmoqlarda aholi o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish va ularning xavotirlarini o'rganish orqali qaysi hududlarda qanday jinoyatlar xavfi borligini oldindan prognoz qilish mumkin [4].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jinoyatchilikka qarshi kurashda ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik fikridan foydalanish nafaqat davlat organlari ishini yengillashtiradi, balki "xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi" zamonaviy raqamli tizimni yaratishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda rossiyalik olimlar ham huquqbuzarliklarning oldini olishda raqamli texnologiyalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatlar va jamoatchilik fikrini o'rganish muhimligini faol tadqiq etib kelmoqdalar. Bu yo'nalish zamonaviy kriminologiyada "raqamli kriminologiya" (digital criminology) va "virtual kriminogen muhit" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir.

Taniqli rus kriminologi, professor Ya.Gilinskiy jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini faqat rasmiy statistika emas, balki aholining real xavotirlari

(страх перед преступностью) belgilashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolar tomonidan qoldirilayotgan shikoyat va xabarlar jamiyatdagi deviant (og‘uvchi) xulq-atvorning asl holatini ko‘rsatuvchi eng ishonchli manbadir. Olim jamoatchilik fikrini raqamli platformalar orqali doimiy monitoring qilishni kriminologik prognozlashning ajralmas qismi deb hisoblaydi [5].

Kriminolog olim V. Ovchinskiy esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida katta ma’lumotlar (Big Data) va ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatlarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish zarurligini ilgari suradi. Uning qarashlariga ko‘ra, zamonaviy politsiya/ichki ishlar tizimi ijtimoiy mediada aks etayotgan qonunbuzarliklar haqidagi xabarlarni tezkor algoritmlar yordamida saralab olishi shart. Bu yondashuv huquqbuzarliklar erta aniqlanishi va murojaatlar yechimida shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi [6].

Jamoatchilik fikri va murojaatlar bilan ishlashda Internet makonining ta’sirini huquqiy jihatdan tadqiq etgan olim S. Ivansovning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar aholi va davlat organlari o‘rtasidagi an’anaviy byurokratik to‘siqlarni yo‘qotadi. Muallif ijtimoiy tarmoqlardagi ommaviy muhokamalar va fuqarolarning shikoyatlari asosida jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyalariga tezkor o‘zgartirishlar kiritish zarurligini asoslab beradi. Ushbu mexanizm latent (yashirin) jinoyatlarning oldini olishda yuqori samara beradi [7].

Shuningdek, raqamli profilaktika masalalarini o‘rgangan olimlar A. Suxodolov va A. Bichkova ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatlarni kriminologik jihatdan tahlil qilishning metodologik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha, virtual makondagi postlar, videomurojaatlar va hattoki izohlarni (kommentariylarni) semantik tahlil qilish orqali muayyan hududlardagi ijtimoiy zo‘riqish va jinoyat sodir etilish xavfini oldindan aniqlash mumkin [8] .

Ushbu qarashlarini umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik fikri jinoyatchilikka qarshi kurashda nafaqat axborot manbai, balki profilaktika tizimini mutlaqo yangi, raqamli bosqichga olib chiquvchi strategik vosita hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida aholining huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi murojaatlari bilan ishlash tizimi an’anaviy qoliplardan chiqib, yangicha mazmun kasb etmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashinuvi maydoniga, balki real vaqt rejimida (real-time) kriminogen vaziyatni monitoring qilish va jamoatchilik fikrini o‘rganishning eng tezkor vositasiga aylandi. Jamoatchilik fikri va ijtimoiy tarmoqlardagi kayfiyatni tahlil qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlarga latent (yashirin) jinoyatchilikni aniqlash va viktimologik profilaktikani to‘g‘ri tashkil etish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilikka qarshi kurashda faqatgina rasmiy statistikaga tayanish kriminogen vaziyatni to‘liq aks ettirmaydi. Jinoyat huquqi va kriminologiya sohasi olimlarining ta’kidlashicha, aholining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo‘lgan ishonchi va jamoatchilik fikri jinoyatchilik darajasini belgilovchi muhim indikatorlardan biridir.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatlar va postlarni tahlil qilish orqali jinoyatchilikning oldini olish konsepsiyasi faol rivojlanmoqda. Masalan, kriminolog olimlar M. Smit va J. Braun (Smith & Brown, 2021) o‘zlarining raqamli politsiya faoliyatiga bag‘ishlangan ishlarida shunday yozadilar:

“Ijtimoiy tarmoqlar – bu jamiyatdagi kriminogen «og‘riqli nuqtalar”ni ko‘rsatuvchi ijtimoiy barometr. Foydalanuvchilarning shikoyatlari va muhokamalari zamirida rasmiy ro‘yxatga tushmagan yuzlab huquqbuzarliklar yashiringan bo‘ladi» [9].

Shu o‘rinda ijtimoiy tarmoqlardagi murojaatlar bilan ishlashning bugungi holati va muammolariga to‘xtalamiz.

Hozirgi kunda Facebook, Telegram, Instagram kabi platformalarda fuqarolar tomonidan qoldirilayotgan xabarlar, videomurojaatlar va sharhlar huquqbuzarliklarni fosh etishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ushbu ma’lumotlar bilan ishlashda quyidagi tizimli muammolar ko‘zga tashlanadi:

Avtomatlashtirilgan tahlil tizimining yo‘qligi. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning bugungi kundagi eng zaif nuqtasi – axborotlarni qayta ishlashda raqamli algoritmlarning joriy etilmagani va haligacha “qo‘l mehnati” (manual tahlil) ustuvorlik qilayotgani.

Virtual makonda aholi tomonidan qoldirilayotgan son-sanoqsiz murojaatlar, videosignallar va izohlar soha xodimlari tomonidan oddiy monitoring usulida qidirib topiladi. Bu esa kriminologik ahamiyatga ega bo‘lgan tezkor ma’lumotlarni o‘z vaqtida payqamaslik, jinoyatga nisbatan kechikib munosabat bildirish xavfini tug‘diradi.

Profilaktikaning asosiy qoidasi – tezkorlik bo‘lgan bir davrda, tizimli ravishda katta ma’lumotlarni (Big Data) semantik skrining qiluvchi avtomatlashtirilgan dasturlarning yo‘qligi latent jinoyatchilikning o‘sishiga va ijtimoiy tarmoq orqali yordam so‘ragan fuqaroning ichki ishlar organlariga bo‘lgan ishonchi pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu muammoning yechimi sifatida Ichki ishlar vazirligining tezkor-qidiruv va huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlari amaliyotiga sun’iy intellekt texnologiyasiga asoslangan “E-kriminolog” (yoki “Raqamli patrul”) avtomatlashtirilgan monitoring dasturini joriy etish kerak. Ushbu tizim inson omili ishtirokisiz, milliy segmentda (o‘zbek va rus tillarida)gi ijtimoiy tarmoqlarda “urdi”, “so‘kdi”, “firibgar”, “qo‘rqyapman”, “pichoq” kabi kalit so‘zlar ishlatilgan post va izohlarni soniyalar ichida skrining qilib, xaritada kriminogen nuqta sifatida operator ekraniga chiqarib berishi lozim. Bu manual mehnatga barham berib, murojaatlar yechimida 100 foizlik tezkorlikni ta’minlaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi minglab ma’lumotlar qo‘lda (manual) qayta ishlanadi, bu esa tezkorlikni kamaytiradi.

Fake (yolg‘on) axborotlarni saralash muammosi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushayotgan kriminogen signallar bilan ishlashda yuzaga kelayotgan yana bir tizimli muammo – bu dezinformatsiya va manipulyativ (feyk) xabarlarni birlamchi bosqichda saralash mexanizmining mukammal emasligi. Virtual makonda axborot tarqatishning osonligi huquqni muhofaza qiluvchi organlarni chalg‘ituvchi, asossiz va sun’iy shov-shuvga asoslangan murojaatlar oqimini ko‘paytirib yubordi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi organlari har bir virtual signalga qonuniy munosabat bildirish majburiyatiga ega bo‘lganligi sababli, soxta xabarlarni tekshirishga juda katta tezkor kuch va vositalar safarbar etilmoqda. Natijada, davlat resurslarining noto‘g‘ri yo‘naltirilishi (misdireksiya) kuzatilib, bu real vaqt rejimida haqiqiy jinoyat qurbonlariga tezkor yordam ko‘rsatish imkoniyatini cheklaydi hamda jamiyatda sun’iy vahima tug‘ilishiga zamin yaratadi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning axborot-tahlil bo‘linmalari tarkibida maxsus “Feyk-analitika va faktcheking (faktlarni tekshirish)” guruhlarini tashkil etish hamda raqamli verifikatsiya (haqiqiylikni tekshirish) dasturlarini joriy etish kerak. Bu tizim ijtimoiy tarmoqdagi xabarning tarqalish geolokatsiyasi, profilning soxtaligi (bot yoki emasligi) va foto/video kontentning muqaddam Internetda ishlatilganlik darajasini (Ochiq axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish usullari bilan) voqea joyiga guruh jo‘natishdan oldin – bir necha daqiqa ichida tekshirib berishi lozim. Bu, o‘z navbatida, resurslarning behuda sarflanishini oldini oladi va murojaatlar bilan ishlashning xolisligini ta’minlaydi. Ijtimoiy mediada tarqaladigan manipulyativ yoki soxta xabarlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning resurslarini noto‘g‘ri yo‘naltirilishiga sabab bo‘ladi.

Huquqiy maqomning mukammal emasligi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini cheklayotgan eng asosiy omillardan biri virtual makondagi axborotlarning huquqiy maqomi qonunchilikda mukammal tartibga solinmaganidir.

Ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, videomurojaatlar yoki fuqarolarning xavotirlari aks etgan sharhlar qonunan rasmiy murojaat (ariza) sifatida tan olinmaydi, bu esa ularga nisbatan qat’iy ijro intizomini belgilash imkonini bermaydi. Vaholanki, xorijiy ilg‘or tajriba, xususan, AQSH va Buyuk Britaniya amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy media ma’lumotlari jinoyatchilikni prognoz qilishning muhim poydevori hisoblanadi. Ushbu davlatlarda qo‘llaniladigan “Predictive Policing” (Prognozlashtiriluvchi politsiya) konsepsiyasi Big Data va sun’iy intellekt yordamida Internetdagi matnlarni tahlil qilib, kriminogen xavflarni barvaqt aniqlash va viktimologik profilaktikani masofadan turib tashkil etish imkonini bermoqda [10].

Bizning fikrimizcha, milliy qonunchilikda ham ijtimoiy tarmoqlardagi asosli kriminogen signallarni tekshirishning majburiy huquqiy mexanizmlarini yaratish davr talabidir.

Ushbu muammoga nisbatan amaliy taklif sifatida Jinoyat-protsessual kodeksi va tegishli qonunni takomillashtirishga oid quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, ya’ni jinoyat-

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

protsessual qonunchiligiga “Ijtimoiy tarmoqlardagi ishonchli raqamli ma’lumotlar jinoyat ishini qo‘zg‘atishga asos bo‘lishi” haqidagi normativ qoidani kiritish. Bunda, agar jinoyat haqidagi xabar ommaviy makonda foto/video dalillar bilan asoslangan bo‘lsa, jabrlanuvchining rasmiy arizasi mavjud emasligi yoki profilning anonimligidan qat’i nazar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan majburiy tartibda surishtiruvga qadar tekshiruv harakatlarini boshlash tartibini mustahkamlash lozim. Bu chora rivojlangan davlatlarning "Predictive Policing" tizimi kabi latentlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi post yoki sharh rasmiy murojaat (ariza) sifatida qay darajada tan olinishi va unga nisbatan ijro intizomi qanday bo‘lishi yuzasidan qonunchilikda ayrim bo‘shliqlar mavjud.

AQSH va Buyuk Britaniya tajribasida qo‘llaniladigan katta hajmdagi raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash orqali jinoyatchilikning oldini olish modeli – "Predictive Policing" milliy olimlarimiz tomonidan mahalliy qonunchilik va amaliyotga moslashtirilgan holda taklif etilgan. Xususan, professor X. Odilkoriyev va Sh. G‘oyibnazarov huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muammolariga to‘xtalib, quyidagi fikrlarini ilgari surganlar: “Raqamlashtirish asrida jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyasi “aniqlash va jazolash” modelidan “oldindan aytib berish va barvaqt oldini olish” (prognozlashtirish) modeliga o‘tishi shart. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va elektron platformalarda shakllanayotgan ulkan ma’lumotlar bazasini (Big Data) sun’iy intellekt algoritmlari orqali kriminologik skrining qilish zarur. Bunday raqamli tahlil hududlardagi ijtimoiy zo‘riqish nuqtalarini aniqlash, jinoyat sodir etilishi mumkin bo‘lgan vaqt va joyni oldindan prognoz qilish hamda profilaktika kuchlarini maqsadli yo‘naltirish imkonini beradi” [11].

Mualliflarning ushbu fikrlari xorijlik olim K. Jonson (Johnson, 2023) tomonidan bayon etilgan “Predictive Policing” tizimining texnik va uslubiy mohiyatiga to‘liq hamohangdir. O‘zbek olimlari ushbu tizimni O‘zbekistondagi “Xavfsiz shahar”, “Aqlli mahalla” loyihalari va ichki ishlar organlarining raqamli tizimlari bilan integratsiya qilish zarurligini ilmiy asoslab berganlar.

Murojaatlar yechimida jamoatchilik fikridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari borasida ham o‘z fikrimizni bildirib o‘tamiz. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushayotgan murojaatlarni kriminologik jihatdan samarali boshqarish va tizimlashtirish uchun quyidagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish taklif etiladi:

Sun’iy intellekt va semantik tahlil tizimini joriy etish. Ijtimoiy tarmoqlardan kelib tushayotgan va tarqalayotgan ulkan hajmdagi axborotlar oqimini kriminologik jihatdan nazorat qilish va ulardan huquqbuzarliklar profilaktikasida samarali foydalanish uchun sun’iy intellekt hamda semantik tahlil texnologiyalarini joriy etish zarur deb hisoblaymiz. Bu tizim huquqni muhofaza qiluvchi organlarning matbuot xizmatlari va tahliliy markazlariga virtual makondagi millionlab ma’lumotlarni inson omilisiz, avtomatik ravishda skrining qilish imkonini beradi. Dasturiy algoritmlar tarmoqlardagi “o‘g‘rilik”, “firibgarlik”, “zo‘ravonlik”, “tan jarohati” kabi kriminogen kalit so‘zlarni va ularning semantik ma’nodoshlarini real vaqt rejimida qidirib topishga ixtisoslashadi. Natijada, fuqarolar rasmiy tarzda ariza bilan murojaat qilmagan taqdirda ham, ularning ijtimoiy tarmoqlarda qoldirgan viktimologik signallari tizim tomonidan barvaqt aniqlanadi va bu latent jinoyatchilikka qarshi tezkor kurashishda raqamli barometr vazifasini o‘taydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning matbuot xizmatlari va kriminologik markazlari ijtimoiy tarmoqlardagi “o‘g‘rilik”, “firibgarlik”, “zo‘ravonlik”, “tan jarohati” kabi kalit so‘zlarni (keywords) avtomatik tarzda skrining qiluvchi dasturlarni ishga tushirishlari lozim. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha ***takliflar:***

Kriminologiya tadqiqot instituti hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi hamkorligida “Matnli skrining va profilaktika” (E-Semantic Preventive) milliy dastur platformasini ishlab chiqish. Ushbu dasturga o‘zbek tilining mahalliy shevalari va Internetda ko‘p qo‘llaniladigan sleng (jargon) so‘zlar lug‘atini kiritish orqali ijtimoiy tarmoqlardagi yashirin tahdidlarni aniqlashning huquqiy-texnik mexanizmini yaratish. Bu chora murojaatlar yechimini tubdan tezlashtiradi va profilaktika faoliyatini raqamli formatga o‘tkazadi.

“Jamoatchilik nazorati — kriminologiya” integratsiyasi. Har bir tuman (shahar) ichki ishlar organlari huzurida ijtimoiy tarmoqlardagi faol blogerlar, mahalla faollari va huquqshunoslardan iborat “Jamoatchilik maslahat kengashlari”ni tuzish. Bu murojaatlarning xolis va shaffof ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi.

Viktimologik so‘rovlarni raqamlashtirish. Fuqarolar o‘rtasida anonim raqamli so‘rovnomalar (masalan, Telegram-botlar yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali) o‘tkazish. Bu aholining qaysi turdagi jinoyatlardan eng ko‘p xavotirda ekanligini (Fear of Crime) aniqlashga yordam beradi.

G‘arb kriminologiyasidagi raqamli makonda jamoatchilik fikrini o‘rganish konsepsiyasi milliy ilmiy maktab vakillarining qarashlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, o‘zbekistonlik olimlar M. Mamasiddiqov va A. Abdurasulov huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aholi bilan raqamli muloqotini rivojlantirish masalalariga to‘xtalib, shunday fikrni ilgari suradilar: “Bugungi axborotlashgan jamiyatda ichki ishlar organlarining faoliyati faqatgina jinoyat sodir bo‘lgandan keyin munosabat bildirish bilan cheklanmasligi lozim. Zamonaviy patrul va profilaktika faoliyati virtual makonga ko‘chishi shart. Agar davlat organlari Internet tarmog‘i va ijtimoiy mediada fuqarolar tomonidan bildirilayotgan ijtimoiy fikrni tizimli o‘rganib, undagi muammolarga tezkor yechim topsa, jamiyatda huquq-tartibot tizimiga nisbatan yuksak ishonch muhiti shakllanadi. Natijada, aholi jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy ko‘makchisiga va “virtual yordamchisiga” aylanadi” [12].

Olimlarning bu qarashlari xorijlik tadqiqotchilar Teylor va hammualliflarining (2022) ilgari surgan qarashlari bilan to‘liq mos keladi [13]. Farqi shundaki, o‘zbek olimlari ushbu raqamli hamkorlikni milliy mentalitet, mahalla instituti va O‘zbekistondagi raqamli islohotlar kontekstida amaliyotga tatbiq etish zarurligini asoslab berganlar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ijtimoiy tarmoqlar hamda jamoatchilik fikridan foydalanish samaradorligini oshirish – bu shunchaki murojaatlarga javob qaytarish emas, balki “Ijtimoiy hamkorlik va kriminologik dialog” modeliga o‘tish demakdir. Bu mexanizmning takomillashtirilishi fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash bilan bir qatorda, kriminologik prognozlash va profilaktika sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Ismailov I. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va kriminologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018.
2. Rasulev Q.A. Axborot texnologiyalari davrida kiberkriminologiya muammolari // Jurnal. Huquq va burch. – 2021. – №4. – B. 22–26.
3. Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat siyosati va jamiyatda huquqiy ong muammolari. – Toshkent: TDYUU, 2020. – B. 112–115.
4. Illarionova Z.S. Viktimologik profilaktika va jamoatchilik fikrini o‘rganish usullari // Kriminologik tadqiqotlar axborotnomasi. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 78-81.
5. Гилинский Я.И. Криминология: Учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Центр гуманитарных инициатив, 2019. – С. 142–145.
6. Овчинский В.С. Криминология цифрового мира. Анализ и прогнозы. – Москва: Норма, 2021. – С. 88–93.
7. Иванцов С.В. Влияние общественного мнения на предупреждение преступности в условиях цифровизации // Вестник криминологической ассоциации. – Москва, 2022. – №3. – С. 34–39.
8. Суходолов А.П., Бычкова А.М. Искусственный интеллект в противодействии преступности: криминологические аспекты // Всероссийский криминологический журнал. – 2020. – Т. 14. – № 4. – С. 517.
9. Smith M., Brown J. (2021). XXI asrda raqamli politsiya faoliyati va jinoyatchilikning oldini olish. London: Academic Press. – 112–115-b.
10. Jonson K. (2023). “Prognostik politsiya faoliyati va katta ma’lumotlar tahlili: muammolar va yechimlar”. Nyu-York: Science Media. – R 45–51.
11. Adilkariyev X.T., G‘oyibnazarov Sh.A. Raqamli kriminologiya: Innovatsion texnologiyalar yordamida huquqbuzarliklarni prognoz qilish va profilaktika tizimini takomillashtirish // Jurnal. Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2024. – №1. – B. 42–49.
12. Mamasiddiqov M.M., Abdurasulov A.A. (2023). Huquqbuzarliklar profilaktikasida raqamli texnologiyalar va jamoatchilik bilan hamkorlikning yangi bosqichi // Jurnal. Odil sudlov – Pravosudiye. – Toshkent, 2023. – №4. – B. 56-62.
13. Taylor, R., Davies, L. va Shon, P. (2022). Kriminologik tadqiqotlarda jamoatchilik fikri va virtual makonlar // Jurnal. Zamonaviy jinoiy odil sudlov. 38(3). – B. 234–249.

EKSTRADITSIYA JARAYONIDA INTERPOL MILLIY MARKAZIY BYUROSINING ROLI VA HUQUQIY ASOSLARI



NASRULLAYEV
Firdavs Suxrobovich
Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodim tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada ekstraditsiya jarayonida Interpol milliy markaziy byurosining huquqiy maqomi, institutsional o‘rni va amaliy funksiyalari tahlil qilingan. O‘zbekiston qonunchiligi va xalqaro huquq normalari asosida MMBning ekstraditsiya mexanizmidagi roli ochib berilgan. Axborot almashuvi, identifikatsiya va inson huquqlarini himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari ekstraditsiya instituti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*
Kalit so‘zlar: *ekstraditsiya, Interpol, Milliy markaziy byuro, xalqaro qidiruv, axborot almashinuvi, identifikatsiya, protsessual muvofiqlashtirish, huquqiy filtr, idoralararo hamkorlik, inson huquqlari.*

Аннотация. *В статье анализируются правовой статус, институциональная роль и практические функции Национального центрального бюро Интерпола в экстрадиционном процессе. На основе законодательства Республики Узбекистан и норм международного права раскрывается значение НЦБ в механизме экстрадиции. Особое внимание уделено вопросам информационного обмена, идентификации и обеспечения прав человека. Полученные выводы направлены на повышение эффективности института экстрадиции.*
Ключевые слова: *экстрадиция, Интерпол, Национальное центральное бюро, международный розыск, обмен информацией, идентификация, процессуальная координация, правовой фильтр, межведомственное взаимодействие, права человека.*

Abstract. *The article examines the legal status, institutional role, and practical functions of the National Central Bureau of INTERPOL in the extradition process. Based on the legislation of the Republic of Uzbekistan and international legal norms, the role of the NCB in the extradition mechanism is analyzed. Special attention is paid to information exchange, identification procedures, and the protection of human rights. The findings contribute to improving the effectiveness of the extradition institution.*
Keywords: *extradition, INTERPOL, National Central Bureau, international search, information exchange, identification, procedural coordination, legal filter, interagency cooperation, human rights.*

Globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan hozirgi sharoitda transmilliy jinoyatchilikning ko‘lami va dinamikasi sezilarli darajada kengaymoqda. Jinoyat turlarining ko‘payishi, davlat chegaralari orqali erkin va tez harakatlanish imkoniyatlarining oshib borishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Bunday sharoitda ekstraditsiya instituti xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng muhim huquqiy mexanizmlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekstraditsiya jarayonining samaradorligi, avvalo, axborot almashinuvining tezkorligi, ishonchliligi va aniqligi bilan belgilanadi. Ana shu jarayonda Interpolning Milliy markaziy byurosi (keyingi o‘rinlarda – MMB) markaziy idoraviy bug‘ini sifatida namoyon bo‘lib, xalqaro hamkorlik borasida tashkilotlar o‘rtasida ma’lumot almashish va protsessual muvofiqlashtirish vazifalarini amalga oshiradi.

O‘zbekistonda Interpol MMBning huquqiy maqomi va uning ekstraditsiya jarayonidagi o‘rnini o‘rganish dolzarbligi bir qator omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, transmilliy jinoyatchilikning o‘sishi tizimlarni xalqaro huquqiy mexanizmlar bilan muvofiqlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Ikkinchidan, amaliyotda Interpol axborotlaridan foydalanish, ularni tekshirish va davlatlar o‘rtasidagi ma’lumot almashuvi jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Uchinchidan, huquq sohasida MMBning huquqiy tabiati, uning protsessual funksiyalari va ekstraditsiya jarayonidagi tashkiliy-huquqiy asoslariga ilmiy-nazariy yondashuvlar bir xil emas, bu esa amaliyotda qator talqinlar xilma-xilligiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu maqolada Interpol MMBning ekstraditsiya instituti doirasidagi huquqiy maqomi va amaliy vazifalarini ilmiy asosda yoritish, amaliyotdagi mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish uchun zarur nazariyani shakllantirish maqsad qilib olingan.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Interpolning MMB ekstraditsiya jarayonida faqat axborot almashuvini ta’minlovchi texnik bo‘g‘in sifatida emas, balki mustaqil tashkiliy-huquqiy ahamiyatga ega institutsional subyekt sifatida asoslanadi.

O‘zbekistonning Interpol tizimiga kirishi mamlakat huquqni muhofaza qilish idoralar uchun xalqaro hamkorlikni tashkiliy-huquqiy darajada yo‘lga qo‘yishda muhim bosqich bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 5-martdagi 118-son qarori bilan O‘zbekistonning Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti – Interpolga a’zo sifatida qabul qilinishi huquqni muhofaza qilish tizimida xalqaro huquqiy mexanizmlardan foydalanishning zamonaviy usullarini shakllantirdi[1].

Keyinchalik, 2017-yil 2-iyundagi 343-son qaror Interpolning O‘zbekistondagi Milliy markaziy byurosining (MMB) huquqiy maqomini aniq belgilab, uning vazifa va vakolatlarini tuzilmaviy jihatdan takomillashtirdi [2].

MMBning Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida mustaqil boshqarma sifatida faoliyat yuritishi uni xalqaro miqyosda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi markaziy idora sifatida namoyon qiladi [3].

Uning faoliyati Interpol Ustavi, xalqaro shartnomalar va qonunchilik normalari bilan tartibga solinib, u faqat ma’muriy vazifalarni bajarish bilan cheklanmaydi. Aksincha, MMB huquqiy-axborot almashuvi, identifikatsiya, qidiruv va haqqoniylikni baholash kabi maxsus vazifalarni amalga oshiruvchi idora sifatida ishlaydi.

Interpolning xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi o‘rni uning faqat texnik yoki axborot almashinuvi funksiyalari bilan cheklanib qolmasligini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda Interpol davlatlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasi va taktikasini muvofiqlashtiruvchi markaziy tuzilma sifatida baholanadi.

Xususan, V.A. Kolesnikov Interpolni “jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida qo‘shma strategiya va taktikani ishlab chiquvchi jahon markazi” sifatida tavsiflaydi [4].

Mazkur yondashuvdan kelib chiqqan holda ta’kidlash joizki, Interpol Milliy markazi byurolari, jumladan O‘zbekiston Respublikasidagi MMB, mazkur strategik va muvofiqlashtiruvchi funksiyalarni milliy darajada amalga oshiruvchi asosiy institutsional vosita hisoblanadi.

Aynan shu nuqtayi nazardan, Interpol MMBning ekstraditsiya jarayonidagi vazifalari quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o‘rtasida tezkor va xavfsiz axborot almashuvini ta’minlash hamda xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish Interpol vakolatlarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ikkinchidan, ekstraditsiya, xalqaro qidiruv va huquqiy yordam masalalari bo‘yicha kelib tushgan so‘rovlarni qabul qilish, ularning Interpol qoidalari va xalqaro standartlarga muvofiq rasmiylashtirilganligini tekshirish hamda tegishli davlatlarning Milliy markaziy byurolariga yetkazish MMB zimmasiga yuklatilgan muhim protsessual vazifadir.

Uchinchidan, Interpol Bosh kotibiyati va a’zo davlatlar o‘rtasida identifikatsiya, qidiruv va tahlil uchun zarur bo‘lgan axborot bazalari orqali doimiy ma’lumot almashuvi amalga oshiriladi.

To‘rtinchidan, MMB milliy vakolatli organlarning Interpol axborot tizimlaridan samarali foydalanishini ta’minlash maqsadida tegishli texnik va huquqiy shart-sharoitlarni yaratishda ishtirok etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Interpolning MMB faqat axborot almashinuvini ta’minlovchi texnik

bo‘g‘in sifatida emas, balki ekstraditsiya, xalqaro qidiruv va huquqiy yordam mexanizmlarining uzluksiz hamda barqaror amal qilishini ta’minlovchi strategik institutsional subyekt sifatida faoliyat yuritadi [5].

Shu munosabat bilan MMBning vazifalari, huquqiy maqomi hamda idoralararo hamkorlik tizimidagi o‘rni ekstraditsiya institutining samaradorligi va huquqiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ekstraditsiya institutining huquqiy tartibga solinishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 65-bobi 592 va 599-moddalarida [6] mustahkamlangan bo‘lib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun topshirish xalqaro shartnomalar yoxud o‘zarolik tamoyili asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayonning barqaror va samarali amal qilishi, avvalo, davlatlar o‘rtasidagi axborot almashuvining tezkorligi, shaxsni aniq identifikatsiya qilish hamda protsessual hujjatlarning belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilishi kabi bosqichlarning tizimli tashkil etilishiga bog‘liq. Shu ma’noda, Interpolning MMB ekstraditsiya jarayonining samaradorligini ta’minlovchi idoraviy institut hisoblanadi.

Milliy markaziy byuroning ekstraditsiyada ishtiroki mazmunan hamda vazifalar jihatdan ikki asosiy bosqichda namoyon bo‘ladi. Birinchi bosqichda MMB ekstraditsiyaga oid so‘rovlarni qabul qiladi hamda ularning Interpol qoidalari va talablariga muvofiq rasmiylashtirilganligini kompleks tekshiradi.

Mazkur bosqichda jinoyatni huquqiy malakalanishi, protsessual hujjatlarning to‘liqligi va qonuniyligi, shuningdek, Interpol Ustaviga muvofiq ravishda siyosiy, harbiy yoki diniy motivlarning mavjud emasligi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nazorat mexanizmi MMBning “huquqiy filtr” funksiyasini ifodalab, ekstraditsiya jarayonida qonuniylik va huquqiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy kafolat sifatida namoyon bo‘ladi [7].

Ikkinchi bosqichda ekstraditsiya so‘rovi Interpolning global axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, xususan I-24/7 tizimi orqali tegishli xorijiy davlatga yuboriladi hamda uning ko‘rib chiqilishi va ijrosi monitoring qilinadi [8].

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur axborot tizimidan foydalanish davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni tezkor, ishonchli va barqaror mexanizmga aylantirib, ekstraditsiya jarayonida ortiqcha ovoragarchiliklarni oldini oladi.

MMBning ishtiroki belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli tarzda shakllangan bo‘lib, ular qatoriga xalqaro qidiruvdagi shaxsga oid ma’lumotlarni Interpolning maxsus axborot bazalari orqali aniqlash, identifikatsiya va tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasidan chiqadigan ekstraditsiya so‘rovlarining ijrosini nazorat qilish, xorijiy vakolatli organlardan kelib tushgan javob va ma’lumotlarni idoralarga o‘z vaqtida yetkazish, shuningdek, barcha hujjatlarni xalqaro huquq normalariga muvofiqligini ta’minlash kiradi.

Mazkur vazifalar majmui MMBni ekstraditsiya jarayonining markaziy tashkiliy-huquqiy instituti sifatida tavsiflash imkonini beradi.

MMB faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri ekstraditsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar ehtimolini kamaytirishdan iborat. Xususan, shaxsni noto‘g‘ri identifikatsiya qilish, asossiz xalqaro qidiruv e’lon qilinishi yoki ma’lumotlarning bir-biriga mos kelmasligi inson huquqlari uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin.

Shu ma’noda, MMB tomonidan amalga oshiriladigan axborotni tekshirish va qayta tekshirish mexanizmlari ushbu xavflarning oldini oluvchi muhim kafolat vazifasini bajaradi.

Ekstraditsiya jarayonida idoralararo hamkorlikning huquqiy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan Idoralararo yo‘riqnoma MMBning Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy Gvardiya, Bojxona qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, Tashqi ishlar hamda Adliya vazirliklari bilan o‘zaro hamkorligini huquqiy jihatdan tartibga soldi.

Ushbu hujjatda ekstraditsiyaga oid so‘rovlarni “o‘ta shoshilinch”, “shoshilinch” va “odatiy” toifalarga ajratish, har bir toifa uchun aniq protsessual tartib va vaqt me’yorlarini belgilash orqali tezkorlik hamda huquqiy aniqlikni ta’minlash mexanizmi joriy etildi [9].

Shuningdek, Interpol kanallari orqali olinadigan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat axborotni yuborgan davlatning yozma roziligi asosida taqdim etish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi talablariga qat’iy rioya etish tartiblari xalqaro huquq normalari, jumladan, Yevropa Kengashining 108-konvensiyasi talablari bilan to‘liq uyg‘unlikda ekanini ko‘rsatadi[10].

Ekstraditsiya jarayonining umumiy samaradorligi, avvalo, shaxsni identifikatsiya qilishning aniqligi va ma’lumotlarning ishonchliligi bilan belgilanadi. Bu borada Interpol axborot tizimlari ekstraditsiya mexanizmining zamonaviy texnologik poydevorini tashkil etadi.

Interpol ma’lumotlar bazalari orqali shaxsning harakatlanish yo‘nalishlari, xalqaro qidiruv maqomi va jinoyatga aloqadorlik darajasi aniqlanib, prokuratura va tergov organlariga protsessual qarorlarni asoslash uchun zarur axborot taqdim etiladi.

Ayni paytda, ekstraditsiya jarayoni inson huquqlarini himoya qilish majburiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsni boshqa davlatga topshirish uning erkinligi, xavfsizligi va huquqiy maqomiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ekstraditsiya faqat protsessual qoidalar bilan cheklanmay, insonparvarlik tamoyillari bilan ham belgilanadi.

Interpol Ustavida siyosiy, irqiy yoki diniy motivli ta’qib holatlarida Interpol kanallaridan foydalanishni taqiqlovchi qoidalar, shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Yevropa ekstraditsiya konvensiyasi va Qiynoqlarga qarshi konvensiyada [11] mustahkamlangan kafolatlar MMBning axborot bilan ishlash va tekshirish mexanizmlarida o‘z ifodasini topadi.

Shu bilan birga, amalda ekstraditsiya so‘rovlarini Interpol kanallari orqali amalga oshirish jarayonida milliy qonunchilik va xalqaro standartlar o‘rtasida muayyan huquqiy tortishuvlar va talqinlar mavjudligi kuzatiladi. Bu esa Interpol Milliy markaziy byurosi faoliyatining aniq protsessual chegaralarini belgilash hamda uning ekstraditsiya jarayonidagi huquqiy maqomini yanada aniqlashtirish zarurati yuzaga keltiradi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, Interpolning O‘zbekiston Respublikasidagi Milliy markaziy byurosi ekstraditsiya institutining huquqiy va amaliy mexanizmlarini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutishini tahlil natijalari yaqqol ko‘rsatadi. MMBning belgilangan vakolatlari, uning idoralararo hamkorlik sohasida idoraviy o‘rni hamda xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida axborot almashinishini tashkil etishdagi vazifalari transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Me’yoriy-huquqiy hujjatlar MMB faoliyatining huquqiy asosini mustahkamlab, O‘zbekiston huquqni muhofaza qiluvchi organlarini xalqaro darajada muvofiqlashtiruvchi barqaror subyekt sifatida shakllantirdi.

Ushbu huquqiy baza Interpol mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, davlatning transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi amaliy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi.

Ekstraditsiya jarayonida MMBning ishtiroki axborot almashuvini ta’minlash, shaxsni aniq identifikatsiya qilish, so‘rovlarning huquqiy asoslanganligini tekshirish va ijrosini tahlil qilish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Mazkur vazifalar ekstraditsiya institutining barqaror, standartlashgan va huquqiy jihatdan aniq mexanizm sifatida amal qilishini ta’minlaydi. Interpol axborot bazalaridan foydalanish qaror qabul qilishda aniqlik va ishonchlilikni oshirib, noto‘g‘ri identifikatsiya, asossiz xalqaro qidiruv e’lon qilinishi yoki huquqiy talablarga javob bermaydigan ekstraditsiya so‘rovlarini yuborish xavfini minimal darajaga tushiradi.

Shu ma’noda, Interpol axborot infratuzilmasi ekstraditsiya jarayonining huquqiy kafolatlari bilan uzviy bog‘langan tashkiliy-huquqiy poydevor sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson huquqlarini ta’minlash MMB faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Interpol Ustavida mustahkamlangan siyosiy, irqiy yoki diniy motivli ta’qibni taqiqlovchi qoidalar, ma’lumotlarni saqlash va tarqatishdagi cheklovlar hamda xalqaro inson huquqlari standartlariga qat’iy rioya etish talabi ekstraditsiya jarayonining insonparvar va qonuniy xarakterini ta’minlaydi.

Bu jihatdan MMB tomonidan amalga oshiriladigan axborotni tekshirish mexanizmlari noqonuniy so‘rovlar va inson huquqlari buzilishi xavfini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Interpol MMBning huquqiy va idoraviy faoliyati O‘zbekistonda ekstraditsiya institutining izchil takomillashuviga xizmat qilmoqda.

O‘z.KTI | Kriminologik faoliyat _ Ilmiy-amaliy jurnal | №3-2026 (8)

Fikrimizcha, ekstraditsiya jarayonida Interpol MMBning protsessual maqomini Jinoyat-protsessual kodeksi darajasida aniq belgilash, shuningdek, axborot almashuvi va so‘rovlarni tekshirish mexanizmlarini yagona standartlar asosida normativ jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

Ekstraditsiya jarayonida Interpol MMB axborot almashuvi bilan cheklanmagan holda, huquqiy filtr va protsessual muvofiqlashtirish funksiyalarini bajaruvchi institutsional subyekt sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi.

O‘zbekiston qonunchiligida MMBning ekstraditsiya jarayonidagi o‘rni asosan idoralararo hujjatlar orqali tartibga solingani, bu esa uning protsessual maqomini aniqlashtirish zaruratini keltirib chiqarishi ko‘rsatildi.

Interpol axborot tizimlaridan foydalanish ekstraditsiya qarorlarining huquqiy asoslanganligi va inson huquqlari kafolatlarini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

Ekstraditsiya jarayonida MMB faoliyatini milliy protsessual qonunchilik darajasida aniq belgilash xalqaro standartlar bilan uyg‘unlikni ta’minlashi isbotlandi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat politsiyasining xalqaro tashkiloti (Interpol)ga kirishi to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. – 05.03.1994. – № 118.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Interpolning Milliy markaziy byurosi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. – 02.06.2017. – № 343.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida Interpol milliy markaziy byurosining faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi buyrug‘i // O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. – Toshkent shahri, 26.11.2022. – № 515.
4. Колесников В.А. Международно-правовые основы сотрудничества по линии Интерпола // Вестник Воронежского института МВД России. – 2014. – № 2. – [с.32].
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Interpol Milliy markaziy byurosi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // «Lex – O‘zbekiston» rasmiy huquqiy axborot tizimi. – 09.02.2024. – URL: https://lex.uz/docs/818372?twolang=1. – Murojaat sanasi: 05.12.2025.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // «Lex – O‘zbekiston» rasmiy huquqiy axborot tizimi. – 22.09.1994. – URL: https://lex.uz/docs/111460. – Murojaat sanasi: 05.12.2025.
7. Constitution of the International Criminal Police Organization – INTERPOL (ICPO-INTERPOL). – Adopted by the General Assembly, Vienna, 1956 (with amendments up to 2023). – Lyon: ICPO-INTERPOL, 2023.
8. INTERPOL. I-24/7 Global Police Communications System. – URL: https://www.interpol.int/How-we-work/INTERPOL-Global-Complex-for-Innovation/I-24-7. – Murojaat sanasi: 05.12.2025.
9. Interpolning O‘zbekiston Respublikasidagi Milliy markaziy byurosining O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari va boshqa vakolatli idoralari bilan hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi
10. Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data (ETS No.108). – Strasbourg: Council of Europe, 1981 (as amended). – URL: https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/-/conventions/treaty/108
11. Constitution of the International Criminal Police Organization – INTERPOL, art. 3; Universal Declaration of Human Rights, 1948, arts. 5, 9, 10; International Covenant on Civil and Political Rights, 1966, arts. 7, 9, 14; European Convention on Extradition, 1957, arts. 3, 11; Convention against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment, 1984, art. 3; INTERPOL Rules on the Processing of Data.



XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHNING QIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI



KUTLIMURATOV
Maxmudjon Sharipbayevich
Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning huquqiy va institutsional asoslari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Germaniya, Buyuk Britaniya hamda Amerika Qo‘shma Shtatlarida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi, subyektlari, profilaktik choralarning turlari va zamonaviy mexanizmlari o‘rganilgan. Shuningdek, ushbu davlatlarda jamoatchilik bilan hamkorlik, huquqiy ma’rifat, raqamli texnologiyalar, videokuzatuv tizimlari, “Community policing” modeli hamda individual profilaktika institutlarining samaradorligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, qiyosiy-huquqiy tahlil, profilaktika subyektlari, individual profilaktika, viktimologiya, huquq-tartibot organlari, jinoyatchilikning oldini olish.*

Аннотация. *В данной статье представлен сравнительно-правовой анализ правовых и институциональных основ организации профилактики преступности в ряде развитых зарубежных стран. В частности, рассматриваются система профилактики преступности, субъекты, виды профилактических мер и современные механизмы в Российской Федерации, Республике Беларусь, Германии, Великобритании и Соединенных Штатах Америки. Также рассматриваются вопросы общественного сотрудничества, правового просвещения, цифровых технологий, систем видеонаблюдения, модели «общественной полиции» и эффективности отдельных профилактических институтов в этих странах.*

Ключевые слова: *профилактика правонарушений, общественная безопасность, сравнительно-правовой анализ, субъекты профилактики, индивидуальная профилактика, виктимология, правоохранительные органы, предупреждение преступности.*

Abstract. *This article presents a comparative legal analysis of the legal and institutional frameworks for organizing crime prevention in certain developed foreign countries. Specifically, it examines the crime prevention systems, participating entities, types of preventive measures, and modern mechanisms employed in the Russian Federation, the Republic of Belarus, Germany, Great Britain, and the United States. Furthermore, the article highlights the effectiveness of public cooperation, legal education, digital technologies, video surveillance systems, the "community policing" model, and mechanisms for individual prevention in these countries.*

Keywords: *crime prevention, public safety, comparative legal analysis, crime prevention entities, individual prevention, victimology, law enforcement agencies, crime prevention.*

Har qanday jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ hujjatlar, avvalambor, ushbu jamiyatda yashayotgan aholining yashash tarzi, mentaliteti, urf-odatlarini, hattoki, oiladagi tarbiya, odob-axloq qoidalarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Chunki qabul qilinayotgan har qanday qonun kelajakda kutilgan natijani berishi uchun jamiyatdagi ijtimoiy omillar ulkan ahamiyat kasb etadi.

Barcha davlatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi va xavfsizligini ta’minlash faoliyati turli yo‘llar, usullar bilan ta’minlanadi [1]. Ushbu sohada har bir davlat o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lib, ilg‘or

tajribalarni o‘rganish hamda ularni yurtimiz jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir.

D.V.Vasilevning fikricha, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda xorij tajribasini o‘rganish jamiyatni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari va yo‘llarini belgilab olish, bashariyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi yanglishuvlar va xato yondashuvlarga qayta yo‘l qo‘yilishining oldini olish imkonini beradi [2].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqni muhofaza qilish faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etish barcha davrlarda, ayniqsa, qonun ustuvorligini, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, muammolarni hal etish jamiyatning asosiy ehtiyoji va talabiga aylanib ulgurgan bugungi kunda ham huquqshunoslar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar olimlari o‘zlarining ilmiy izlanishlari natijasida erishgan yutuqlarini qonunchilikka tatbiq etish yo‘li bilan ushbu muammoni bartaraf etish, aholi o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, **Rossiya Federatsiyasi** qonunchiligida huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi ularni keltirib chiqaruvchi sabablar va sodir etilishiga imkon bergan yoki osonlashtirgan sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongini rivojlantirish va huquqiy bilimini oshirishga yo‘naltirilgan [3].

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 72-moddasiga muvofiq, qonuniylik, huquq-tartibot, jamoat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi Rossiya Federatsiyasi va subyektlarining birgalikdagi boshqaruvida amalga oshiriladi. Ijroiya hokimiyatiga rahbarlikni amalga oshirish asosida Prezident va hukumat qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, mulkchilik va jamoat tartibini qo‘riqlash bo‘yicha tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlarini amalga oshiradi, shuningdek jinoiy-huquqiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, resurslarini belgilaydi [4].

Rossiya Federatsiyasi IIV Federatsiya tarkibiga kiruvchi respublikalar IIVlari, o‘lkalar, viloyatlar va federal darajadagi shaharlar ichki ishlar bosh boshqarmalari, boshqarmalari va bo‘limlari, avtonom viloyatlar va okruglar, tuman va shahar ichki ishlar organlari, temiryo‘l, havo va suv transporti tarmoq ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari, ichki qo‘shinlar hamda tizimga kiruvchi boshqa tarkibiy tuzilmalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi [5].

Rossiya Federatsiyasining 2011-yil 7-fevralda qabul qilgan “Politsiya to‘g‘risida”gi qonunida belgilanganidek, politsiya ijroiya hokimiyati federal organining ichki ishlar sohasidagi yagona markazlashgan tizimi tarkibiy qismi hisoblanib, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– shaxs, jamiyat va davlatni huquqqa xilof tajovuzlardan himoya qilish;

– jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va fosh etish;

– jinoyatlarni aniqlash va ochish, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruvni amalga oshirish;

– qidiruvni tashkil etish;

– ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ma’muriy jazolarni ijro etish;

– jamoat joylarida huquq-tartibotni ta’minlash;

– yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash;

– qurol savdosi sohasidagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– xususiy detektivlik va qo‘riqlash faoliyati sohasidagi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– mulk va obyektlarni qo‘riqlash;

– jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyatga oid sud ishi yurituvidagi boshqa ishtirokchilar, sudyalar, prokurorlar, tergovchilar va huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining boshqa mansabdor shaxslari hamda qo‘riqlanishi talab etiladigan boshqa shaxslarni davlat himoyasi bilan ta’minlash;

– ekspert-kriminalistik faoliyatni amalga oshirish [6].

Buyuk Britaniyada patrullik naryadlari xizmat faoliyati mobaynida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida yo‘l harakatini tartibga soladilar va nazorat qiladilar, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topishda ishtirok etadilar, boshqa tarmoq xizmatlari uchun kerakli ma’lumotlarni to‘playdilar hamda turli favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga yordam ko‘rsatadilar. Rivojlangan mamlakatlar politsiyasining patrullik xizmatlariga zamonaviy texnik ta’minot xos bo‘lib, bu naryadlarning yuqori safarbarligiga erishish imkonini beradi. Masalan, Londonning eng chekka provinsiyasidan jinoyat haqida xabar tushgach, patrul bo‘linmasi dispetcherlik punktidan o‘rtacha 2,5–3 minut ichida voqea joyiga yetib borishga qodir.

Patrul naryadlari axborot ta’minotiga ham katta e’tibor qaratilgan. Ular aloqa vositalari va kompyuter texnikasi bilan yaxshi qurollangani bois kerakli ma’lumotni axborot markazi ma’lumotlar bazasidan tezda olish imkoniyatiga ega. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda politsiyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni amalga oshirish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini yengillashtirish maqsadida katta ko‘chalar va posyolkalarda videokuzatuv uskunalari o‘rnatila boshlandi. Mazkur kameralarda olingan huquqbuzarlik yoki jinoyatga oid rasmlar orqali ish olib borish politsiyaga katta qulaylik yaratadi.

Xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni amalga oshirish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda keng qo‘llaniladigan usullardan yana biri – huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, “muammoni hal qilish” bo‘lib, u politsiya tomonidan qo‘llaniladigan zamonaviy usullarni o‘z ichiga olgan yangi ish usuli hisoblanadi [7].

Belarus Respublikasi qonunchiligida “huquqbuzarliklar profilaktikasi huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asoslari to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonun hujjatlarga muvofiq fuqarolarning huquqqa xilof harakatlarni sodir etishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ijtimoiy jarayon va ularning sodir etilishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish faoliyati”[8].

Har bitta davlatning ushbu sohadagi qonun hujjatlarini va huquqshunos olimlarining fikrlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, barchasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga umumiy ta’rif berilganligiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni ushbu huquqbuzarliklar profilaktikasining qanday amalga oshirilishi, oldiga qo‘ygan maqsadlari, vazifalari, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning protsessual huquqda o‘z aksini qay tarzda topishi va kelajakda qanday natijalarga erishishi ko‘rsatilgan.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shundan dalolat beradiki, o‘rganilgan xorijiy davlatlar qonunchiligida “huquqbuzarliklar” tushunchasiga berilgan ta’riflar milliy qonunchilikdagi ta’rif bilan mazmunan mos keladi. Jumladan:

Rossiya Federatsiyasining 2016-yil 23-iyunda qabul qilingan *“Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asoslari to‘g‘risida”*gi Federal qonunida “ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘luvchi g‘ayrihuquqiy qilmish *(harakat, harakatsizlik)* ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat”;

Belarus Respublikasining 2014-yil 4-yanvarda qabul qilingan *“Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatning asoslari to‘g‘risida”*gi qonunida “sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, aybli, g‘ayrihuquqiy harakat *(harakatsizlik)*” sifatida ta’riflangan.

Ahamiyat berilsa, “huquqbuzarlik; tushunchasini ta’riflashda O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi qonunlarida g‘ayrihuquqiy qilmish *(harakat yoki harakatsizlik)* tushunchasi, Belarus Respublikasi qonunida g‘ayrihuquqiy harakat *(harakatsizlik)* tushunchasi qo‘llanilgan.

Fikrimizcha, Belarus Respublikasi qonunidagi ushbu yondashuv qo‘llab-quvvatlanishga loyiqdir. Darhaqiqat, O‘zbek tilining izohli lug‘atida “qilmish” tushunchasi “qilingan ish”, “nojo‘ya ish”, “harakat”, “faoliyat” ma’nolarini anglatadi. Shunga asoslangan holda aytish mumkinki, qilmish faqat mexanik harakatda ifodalanadi. Harakatsizlikni qilmish sifatida baholash munozaralidir.

O‘tkazilgan tahlillarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkin: *huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, aybli, g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik*.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni va mazkur qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlar tahlili bilan bir qatorda, ayrim xorijiy davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ham tahlil qilindi.

Xususan, Rossiya Federatsiyasining 2016-yil 23-iyunda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasida

huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to‘g‘risida”gi [9] Federal qonunining 2-moddasida *huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga, shuningdek, huquqbuzarliklar yoki jamiyatga zid xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida shaxslarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, axborot va boshqa xususiyatdagi chora-tadbirlar majmuasi* sifatida belgilangan.

